

*Qalandar  
Abdurahmonov*

---

**BUYUKLAR  
KAHKASHONIDA**





P.

**Qalandar  
ABDURAHMONOV**

**BUYUKLAR  
KAHKASHONIDA**







**ABDULLA ORIQOV**

*O'zbekiston Qahramoni*

*O'zbekiston xalq shoiri*

Qalandar  
ABDURAHMONOV

# BUYUKLAR KAHKASHONIDA

*Hujjatli qissa*



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

UUSADO'TAU

AXBOROT-RESURS MARKAZI

G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Toshkent - 2018

24 3/1

**UO'K 821.512.133-4(092)Oripov A.**

**KBK 83.3g(50')**

**A 15**

### **Abdurahmonov, Qalandar**

Buyuklar kakhkashonida. Xotira-esse. / Q. Abdurahmonov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 228 b.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, taniqli olim, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, badiiy adabiyot va she'riyat muxlisi Qalandar Abdurahmonovning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan tasdiqlangan 2018-yilgi «Yo'l xaritasi»ga kiritilgan «Buyuklar kakhkashonida» kitobi zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri – O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripovning xotirasiga bag'ishlangan. Muallif mumtoz shoirning milliy adabiyotimiz, madaniyatimizdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritarkan, uni yaqindan bilgan, she'riyatining haqiqiy ixlosmandi bo'lgan inson sifatida Abdulla Oripovning hayoti va ijodi, she'riy asarlari haqida, buyuk italyan shoiri Dante Aligerining shoh asari – «Ilohiy komediya»ning o'zbek tiliga tarjimasini hamda Italiyadagi «Dante festivali»da birga ishtirok etgan unutilmas onlar to'g'risida chuqur samimiyat bilan fikr yuritadi va shunday ulug' ijodkor bilan yurtdosh, zamondosh bo'lganidan behad faxrlanishini bayon qiladi.

Kitob adabiyot va she'riyat ixlosmandlari, umuman, barcha kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otadi, deb ishonamiz.

**UO'K 821.512.133-4(092)Oripov A.**

**KBK 83.3g(50')**

© Q. Abdurahmonov

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,  
2018

**ISBN 978-9943-5213-2-2**



## **SO‘ZBOSHI**

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bilan kamina o‘rtasida, o‘ylab qaragam, o‘xshashlik tomonlar bisyor ekan. Ikkalamiz ham bir diyor – Qashqadaryo viloyatidanmiz, tumanlarimiz – Koson va Chiroqchi bir-biridan olisda emas. Bolaligimiz ham ovloq, tog‘ etaklaridagi Nekuz va To‘lako‘lda o‘tgan. Hatto otalarimiz – Orif bobo Ubaydullo o‘g‘li va Abdurahmon Xo‘jaxon o‘g‘lining ham mehnat faoliyatlari bir xil bo‘lgan – ularning har ikkisi ham jamoa xo‘jaliklariga rahbarlik qilishgan.

Faqat shugina emas, o‘rta maktabda o‘qib yurgan paytlarimda men ham she‘rlar mashq qilib yurganman. Bir necha she‘rlarim tuman gazetasida bosilib chiqqan. Men ham o‘rta maktabni Abdulla Oripovdek oltin medal bilan bitirib, Toshkent davlat (hozirgi O‘zbekiston Milliy) universiteti jurnalistika fakultetiga





hujjat topshirganman. Lekin taqdir ekan, otamning maslahati asosida keyin iqtisodchi mutaxassisligini tanladim.

Kasbi-korimiz turlicha bo'lsa ham, Abdulla Oripov bilan qalin do'st, maslakdosh edik. Kattakichik yig'inlar, tadbirlarda birga qatnashardik, chet el mamlakatlariga tashriflarda ham ko'pin-



cha birga bo'lardik. Bu ulug' inson men rahbarlik qilayotgan G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filialining doimiy aziz mehmoni edi. Abdulla Oripov talaba yoshlarimiz, professor-o'qituvchilarimiz bilan uchrashishni nihoyatda xush ko'rar, biror tadbirimizga kelmasdan qolmasdi.



Bizning oliy ta'lim muassasamizda faoliyat olib borayotgan adabiyot ixlosmandi, chiroqchilik Jabbor Ro'ziyev bilan Abdulla Oripov qalin do'st va ulfat bo'lishgani sababli buyuk shoir og'amiz G.Plexanov nomidagi Ros-

siya iqtisodiyot universiteti Toshkent filialimizda o'tkaziladigan barcha bayramlar va tadbirlarda albatta ishtirok etardi. Abdulla aka har safar bizga yangi yozilgan she'rlaridan o'qib berar, professor-o'qituvchilarimiz va talaba yoshlarimizni xursand qilardi.



Abdulla Oripovning oliy ta'lim muassasamiz bilan doimiy aloqada bo'lgan, talaba yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shayotgan katta hissasini inobatga olgan holda, Ilmiy kengashimiz u kishini «Universitet Toshkent filialining Hurmat belgisi» nishoni bilan taqdirlash to'g'risida qaror qabul qildi.

Abdulla Oripovga ushbu nishon tantanali vaziyatda topshirildi. Xalq shoiri o'ziga bildirilgan bu ehtiromga javoban Filialimizga yanada qadrdon bo'lib qoldi. Uning samimiy chiqishlari, u kishi ishtirokidagi she'rxonlik

kechalari pedagogik jamoamizni ham, talaba yoshlarimizni ham adabiyotga, she'riyatga chinakam oshno qildi.

Filialimizda o'tkazilgan Abdulla Oripovning rus tilida chop etilgan «Blagoslovleniye projitoy mnoy» she'riy to'plamining taqdimoti chinakam she'riyat bayramiga aylandi. Taqdimotda ishtirok etgan, taniqli shoir, Abdulla Oripov she'rlarini rus tiliga tarjima qilib kelayotgan A.Faynberg, shoir R.Farhodiy va boshqalar bunday uchrashuvlar bo'lajak iqtisodchilarning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilishini alohida ta'kidladilar.

O'z vaqtida buyuk italyan shoiri Dante Aligeri «Ilohiy komediyasi»ning ustoz ijodkorimiz tomonidan tarjima qilingan «Do'zax» qismi bevosita bizning oliy o'quv yurtimiz tomonidan nashr etildi, shu munosabat bilan Dante ijodiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ham tashkil etildi. Keyin esa Italiya hukumati va Madaniyat vazirligi taklifiga ko'ra, Abdulla Oripov va men har yili Italiyada o'tkaziladigan an'anaviy Dante



bayramida faxriy mehmonlar sifatida ishtirok etish sharafiga muyassar bo'ldik.

Men she'riyat ixlosmandi sifatida Abdulla Oripovning Toshkent davlat universitetida tahsil olayotgan paytdagi ilk she'rlaridan boshlab uni butun dunyoga mashhur qilgan asarlarigacha – hamma-hammasini qayta-qayta o'qir, ulardan ilhomlanar, yurtdoshimning badiiy mahorati tobora yuksalib borayotganidan qalbim quvonchga to'lar edi.

Shoir ijodida mavzular hayotning o'zi qadar rang-barang. Ayniqsa, uning har bir satridagi xalqona hikmat va falsafa, betakror tashbeh va topilmalar bu she'riyatni yuksaklikka ko'tardi. Abdulla Oripovning asarlarida shoirona mushohadaning qamrovi keng: ezgulik va yovuzlik, shafqat va mehrsizlik, inson va tabiat, urush va tinchlik, ajdodlar va avlodlar, boshqa juda ko'p hayotiy, dolzarb masalalar uning ijodida yetakchi mavzulardir. Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul otashin shoirning g'oyat serqirra ijodkor ekanini ta'kidlab: «Uning she'riyatida Oybekka xos nozik poetik tashbeh, Cho'lponga xos hissiyot, Hamid Olimjonga xos jo'shqinlik, G'afur G'ulomga xos donishmandlik uyg'unlashib, 60-yillarda o'zbek

she'riyatini odam qalbi bilan barobarlashgan pog'onaga ko'tarib qo'ydi», deb yozganida to'la haq edi. Abdulla Oripovning o'zi esa shoirlik kredosini soddagina qilib, lekin qat'iy tarzda bunday bayon qilgan edi:



Men – shoirman,  
Istasangiz shu,  
O'zirniki erur shu sozim.  
Birovlardan olmadim tuyg'u,  
O'zga ham bermam ovozim.

Albatta, ijodining ilk pillapoyalariga qadam qo'yayotgan shoir uchun bu satrlar balandparvoz da'vodek tuyulishi mumkin. Ammo Abdulla Oripov she'riyatga chaqnoq yulduzdek porlab va o'ta shiddat bilan kirib kelganini tan olmaslikning iloji yo'q. XX asrning 60-yillari boshida Abdulla Oripovning matbuotda birin-ketin e'lon qilingan «Sen bahorni sog'inmadingmi?», «Men nechun sevaman O'zbekistonni?», «Dorboz», «Munojot»ni tinglab» va «Mitti yulduz» deb nomlangan ilk she'riy to'plamidan o'rin olgan va boshqa betakror she'rlari adabiyot ixlosmandlari o'rtasida qo'lma-qo'l bo'lib, ular tomonidan darhol yod olinganini, ba'zilari qo'shiq sifatida mashhur bo'lib ketganini juda yaxshi bilaman. Qilni qirq yoradigan munaqqidlarning e'tirof

etishlaricha, Abdulla Oripovning shoir sifatidagi salohiyati avvalo o'z eli, o'z yurtiga cheksiz mehr-muhabbati, hamisha xalq dardi bilan yonib, undan ilhom olib yashagani, binobarin, chuqur xalqchilligi, hayotiy salmog'i, milliy ruhi bilan belgilanadi.

Taniqli adabiyotshunos Umarali Normatovning guvohlik berishicha, bir guruh shoir va adiblar atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorning bog'ida sayr qilib yurishganlarida Said Ahmad ustoz Abdulla Qahhorga:

– Siz «O'tmishdan ertaklar» qissangizga mittigina boshlovchi shoir Abdulla Oripov satrlarini epigraf qilib keltiribsiz, – debdi andak quvlik bilan.

Shunda Abdulla Qahhor biroz sukut saqlab, xayolga tolib:

– Bu borada ko'p o'ylab ko'rdim, – debdi. So'ng: – Oldinroq Abdullajon iltimosimga ko'ra «Nurli cho'qqilar»ga epigraf uchun to'rt satr she'r yozib bergan edi. Bu galgisi butunlay boshqacha bo'ldi... Esimni taniganimdan beri meni qiynab kelayotgan, to'rt yil ter to'kib ifoda etmoqchi bo'lgan ko'nglimdagi gapni, g'am-g'ussani siz «mitti» shoir degan bu bala



(ustoz adib «bola» soʻzini qoʻqonchasiga chiroyli, shikasta ovozda «bala» deb talaffuz etarkan) toʻrt satrda qoyil qilib aytib qoʻyibdi. «Munojot»ni tinglab» sheʻridan olingan oʻsha satrlar asarga oʻz-oʻzidan tayyor epigraf boʻlib kirib keldi:

Eshilib, toʻlgʻonib ingranadi kuy,  
Asrlar gʻamidan soʻylar «Munojot».  
Kuyi shunday boʻlsa, gʻamning oʻziga  
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

Bu satrlar goʻyo ay-  
ni «Oʻtmishdan ertak-  
lar» uchun yozilgan-  
dek. Qissaning maʼno-  
mohiyatini – pafosini  
bundan aniqroq, yor-  
qinroq ifodalaydigan  
boshqa bir soʻz topish  
mumkinmi?!

Shu payt birdan  
quyosh bulut pana-  
sidan chiqib, tevarak-  
atrof yorishib yash-  
nab ketibdiyu Abdul-  
la Qahhorning bogʻidan



bulbulning shodon ovozi eshitila boshlabdi. Adib bir dam sehrli sadoga g'arq bo'lib turibdi-da:

– Bulbulning sayrashini, yangroq ovozini eshitmagan, undan zavq olmagan zot yo'q. Ammo bulbulning o'zini ko'rganmisizlar? – deya savol tashlabdi.

Abdulla Qahhor bilan birga sayr qilayotgan Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov va Umarali Normatov bulbulni ko'rmaganini aytishibdi. Abdulla Qahhor fikrini davom ettiribdi:

– Qishloqdagi hovlimizda bir tup qizil olma bo'lardi. Har yili bahorda gullaganida qo'shaloq bulbul gullar chamani orasida hafta davomida basma-basiga to'lib-toshib sayrashardi. Har-



She'riyatda kutilmagan yangi nafas paydo bo'ldi. Tomchini kuzatgan bo'lsangiz, to'lishganidan keyin tomadi. Abdullajonning she'rlari ham ana shunday. Oldin so'zma-so'z, satrma-satr yuragi qonida qaynab pishadi.

**Abdulla QAHHOR**

chand urinmaylik, ularni ko'rolmasdik. Faqat men emas, oilamizdan hech kim ko'rmagan...

Abdulla Qahhor bosh barmog'ini ko'rsatib, bunday degan ekan:

– Bulbulning jussasi shu barmoqning uchidek keladi. Uning yuragi jussasidan o'n barobar katta. To'lib, yurakdan sayraganida go'yo dunyoni titratadi. Anavi «mitti» shoir «bala»ning yuragi ham jussasidan o'n chandon kattadir-ov... «Mitti yulduz» kitobchasini varaqlab ko'ring. Shu mitti shoir qalb tubidan sharsharadek otilib chiqqan satrlar qalblarni larzaga soladi. Hali ko'rasizlar, uning ovozi olis-olislarga yetib boradi...

Chindan ham, Abdulla Oripov o'z xalqining mag'rur ovozi bo'lib, uni dunyoga tanitishga xizmat qildi. Shunday betakror iste'dod egasi, hassos qalb sohibi bizning oramizda yashab o'tdi. Bunday benazir siymo bilan bir yurtida, bir zamonda yashab, uning she'rlarini uning o'z ovozi, nafasi bilan eshitish albatta katta sharaf.

Tabiiyki, bunday ulug' zotlar haqida esdalik yoki xotira yozish oson emas. Men bunga da'vo qilmoqchi emasman, faqat adabiyotimiz uchun, Abdulla Oripovdek nurli siymo haqida o'zim bilgan, guvoh bo'lgan voqealarni kelajak



avlodlarga imkon qadar batafsil etkazish uchun foydasi tegar, degan maqsadda u kishi haqida bilganlarimni qog'ozga tushirdim.


Hech shubhasiz, Abdulla Oripov haqida eng muhim so'zni shoirning o'zidan, u kishining ustozlari, zamondosh do'stlari, atoqli ijodkorlardan o'tkazib hech kim ayta olmaydi. Shuning uchun kitobda Abdulla Oripovning she'rlaridan, ulug' shoir va adiblar, adabiyotshunos olimlarning bu mumtoz siymo haqidagi fikrlaridan namunalarni e'tiboringizga havola qilmoqdamiz. Birinchidan, bu hurmat ifodasi bo'lsa, ikkinchidan, bizning yozganlarimiz ana shu insonlarning fikrlariga ozgina bo'lsa ham qo'shimcha kiritsa, ularni boyitishga xizmat qilsa, o'zimni behad baxtiyor his etardim.

Abdulla Oripov bir she'rida «El qo'llasa, azizim, omon bo'lsak ajabmas», deb yozgan edi. Haqiqatan ham, sevimli shoirimiz doimo el ardog'ida bo'lib, uning mehridan bahramand bo'lib yashadi. O'zi ham she'rlarida, asarlarida xalqimizni, ona diyorimizni zo'r muhabbat bilan kuylab, unga farzandlik hislarini yuksak pardalarda bayon qildi.

Bir soʻz bilan aytganda, Abdulla Oripovni, uning boy ijodiy merosini el mehridan, Oʻzbekistonimiz qiyofasidan ayri tasavvur etolmaymiz.

Xalqimizning faxr-iftixoriga, oʻzbekona do-nishmandlik ramziga aylanib ketgan ulugʻ shoi-rimiz yana bir sheʼrida – atoqli rus shoiri Nikolay Nekrasov xotirasiga bagʻishlovida buyuklar kahkashonida, yaʼni yulduzli osmon, somon yoʻlida shoir boʻlish oson emasligini taʼkidlaydi.

Abdulla aka oʻzi ham buyuklar kahkashonida – ulugʻ ijodkorlar davrasida shoir boʻlish, oʻz sozi, oʻz ovozigaga ega boʻlish naqadar qiyin ekanini bir umr his etib, doimo izlanish, intilish bilan yashadilar. Buyuklar dahosiga intilib, ulardan ibrat olib, bu kahkashonda oʻrniga ega boʻlish uchun harakat qildilar. Shuning uchun u kishining Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Dante Aligeri kabi ulugʻ zotlarning hayoti va ijodiga qayta-qayta murojaat qilganlari, jahon madaniyati, adabiyoti va sanʼatini bir butun hodisa deb tasavvur etgani zamirida juda katta maʼno bor. Yaʼni, ulugʻ ustozlarning oʻzlari ham ana shu buyuk mezonlar kengliklarida yashab,



ijod qilib, xalqimiz, milliy adabiyotimiz uchun bebaho asarlar yaratdilar.



Biz bugun Abdulla Oripov deganda, buyuklar kakhkashonida munosib o'rin egallagan ulug' o'zbek shoiri, adibi va jamoat arbobini tushunamiz. Shuning uchun ham ushbu risolamizga «Buyuklar kakhkashonida» deb nom qo'yishga qaror qildik. She'riyat kakhkashonida yulduzday porlab turgan Abdulla Oripov asarlaridan bahramand bo'lib, el-yurtimizga u kishi kabi halol xizmat qilish hammamizga nasib etsin.





## UMRBOQIY ISTE'DOD

Abdulla Oripov she'riyatida xalq qalbiga yaqinlikni, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni juda chuqur his etasiz. Atoqli shoir xuddi qum barxanidan oltin zarralarini saralab olgandek, bir qarashda oddiy, xalqona, ammo ma'no-mazmun jihatidan nodir so'zlarni topib, o'rnida ishlatishi bilan ularni dilni yayratadigan sehrli kuy, ohangga aylantira oladi. Ko'pchilikka yod bo'lib ketgan «Sen bahorni sog'inmadingmi?» she'ridagi satrlarni eslaylik:

Olisdagi zalvorli tog'lar  
 Xayolimni keldilar bosib.  
 O'tdi qancha hijronli chog'lar  
 Vasling menga bo'lmadi nasib.  
 Sensiz men ham, bahor ham g'arib,  
 Sen bahorni sog'inmadingmi?



Abdulla Oripov. – Shoir! Shoir bo'lganida ham anov-manovlardan emas. Xudo butun qilib berganlardan. Zo'r!

**MIRTEMIR,**

*O'zbekiston xalq shoiri*

Abdulla Oripov xalqona obrazlar, ibora va tashbehlar, hayotiy manzaralar orqali teran falsafiy ma'nolarni ifoda etadi. Shu tariqa ijodining ildizlari naqadar chuqur, purma'no, xalq ijodi, buyuk salaflari tafakkuri bilan bevosita bog'liq, ularning davomi ekanini isbotlaydi. Ijodkor she'rlarining kuchi va jozibasi ularning xalq diliga yaqinligida, tom ma'nodagi xalqchilligidadir. Shoir o'z qalbini mahorat bilan tarjima qiladi, tarjima uchun esa, hech shubhasiz, so'z kerak. Bu so'z esa xalqning asrlar davomida sayqallangan, zamonlar sinovidan o'tgan o'z so'zidir.

Shuning uchun ham xalqimiz uning har bir she'rini intiqlik bilan kutar, gazeta yoki jurnalda, kitob hoida chop etilishi bilan ularni topib o'qir, yod olardi. Dalada ham dehqonlar

tushlik paytida Abdulla Oripov she'rlarini o'qiyotganlarini, bola emizib o'tirgan ayollar ularni berilib tinglayotganini ko'rganmiz. She'rlarini tinglagan chollar, umring uzoq bo'lsin, o'g'lim, deb alqaganlari ham bor gap.

Ayniqsa, istiqlol yillarida Abdulla Oripov ijodi chinakam qadr-qimmat topdi. Abdulla Oripov mustaqil O'zbekistonning davlat madhiyasi matnini yozdi. Uning ijodida ozod Vatan, erkin va ozod xalq mavzusi, mustaqillikni asrash va mustahkamlash masalasi yetakchi o'ringa chiqdi.

Abdulla Oripov 1998-yili Vatanimizning oliy mukofoti – «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Abdulla Oripov shaxsini, ijodini, uning betakror iste'dodini behad qadrlar edi. Ozod Sharafiddinov, Said Ahmad, Muhammad Yusuf kabi atoqli adabiyot namoyandalari qatori uni ham ma'naviy-mafkuraviy sohada o'zining ishonchli safdoshi deb bilar edi.



Biz XX asr o'zbek adabiyotini Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz, zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad, Erkin Vohidov singari ijodkorlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek, ma'naviy kelajagimiz, farovon va buyuk istiqbolimizni Abdulla Oripov ijodisiz ham ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Uning she'rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug' kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Islom Karimov,**  
*O'zbekiston Respublikasining  
Birinchi Prezidenti*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati hokimi bo'lib ishlagan paytlarida, o'sha vaqtda Yozuvchilar uyushmasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatgan Abdulla Oripov bilan birgalikda yosh ijodkorlarning Zomin seminariga asos soladi. Hozirgi kunda bu semi-





nar yanada kengayib, uning ishtirokchilari soni tobora ortib bormoqda. Abdulla Oripovni yaqindan bilgan, uning she'riyatini, she'riy maktabini behad qadrlaydigan Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Abdulla Oripov xotirasini abadiylashtirish, uning ijodiy merosini o'rganish va targ'ib etishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu haqda kitobning keyingi fasllarida albatta batafsil fikr yuritamiz.

Ijodkorning «Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi» she'rida hayotiy falsafa, ijtimoiy g'oya juda kuchli. Yurtimizdagi soddagina farrosh kampir beshta qit'adan tan-



lab olingan, olamdagi barcha ilmlarni o'zida mujassam etgan olimlar yecholmagan jumboqqa qalbidagi insoniy mehri bilan javob topadi:

Voy bechora bolagina,  
Dard zaptiga olibdi-ku!  
Holdan toyib, boshqa ko'zi  
Yumilib ham qopti-ku!

Buni Abdulla Oripovning o'zi quyidagicha izohlaydi: «Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi»da samodan bir jonzot yerga tushadi. Besh donishmand uning sir-sinoatini aniqlamoqchi, sinamoqchi bo'lib, bor bilimlarini ishga soladi. Ammo hech narsani eplay olishmaydi. Farrosh, ya'ni, yer supurib yurgan kampir haligi jonzotning boshini silasa, u javob qiladi, ko'zlarida nur paydo bo'ladi. Albatta, mehr – «kesakdan gul undiradi». Mehr qo'shilmagan har qanday yaralmish – insoniyatga g'animdir. Chunki u – qahrdir. Mehr-muruvvat xuddi suv, havo, nur kabidir»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. «Xamsa» – jahon adabiyotidagi buyuk asar // [http://kutubxona.com/Abdulla Oripov](http://kutubxona.com/Abdulla_Oripov). Xamsa jahon adabiyotidagi buyuk asar.



Abdulla Oripovning she'riyatimiz osmonida paydo bo'lishini chaqmoqqa o'xshatadilar. To'g'ri! Ammo chaqmoq o'chadi, qudratli nur sochgan iste'dod esa – umrboqiy! Abdulla Oripov she'riyatini momaqaldiroqqa o'xshatadilar. Rost. Ammo momaqaldiroq guldurosi tinadi, qalblarni maftun etgan she'riyatning sadosi esa abadiy!

**Izzat SULTON,**  
*akademik*

Farrosh kampir ana shu ko'zi yumuq samoviy mehmonning tikanakdek tikka o'sgan sochini silab, unga ichgani suv ham tutqazib, mo'jiza paydo qiladi. Kampirning onalik mehri Yer yuzida hali uchramagan bu mavjudotning atigi bittagina ko'ziga ham yosh keltiradi. Shoir bu bilan insoniy mehr toshbag'irlarning metindek qotgan diydadini eritishga qodirligini uqtiradi, bu orqali mehr kurrayi zaminimizdagina emas, balki butun koinotda ham nihoyatda zarur ekaniga urg'u beradi.

Xalq shoiri o'z she'rlarida ayolni, muqaddas Vatan ramzi bo'lgan onani madh etadi. U

buni shunday izohlagan edi: «Ayol – ezgulik mehrobi... Aslida shoir qalamidan tomgan misralar avvalroq Ayol yuragiga bitilgan bo‘ladi. Dunyo bezovtaliklari dastlab Ayol manglayiga chiziqlar tortadi. Farzandlar tarbiyasi, erkakning uydan boshi baland chiqib ketishi – «uyida tinchi bo‘lishi» – Ayolning fidoyi qalbiga bog‘liqdir. Ayolning ulug‘ xizmatlariga har qanday tuzum, har qanday jamiyat doimo muhtoj. Ayol – xonadon chirog‘i, jamiyat tayanchidir. Aslida ham barcha axloqiy dunyoqarashlar aynan jamiyatning ilk beshigi – oilaga borib taqaladi. Oila esa – Ayol demakdir. Nomus, or, sadoqat, vafo, muhabbat kabi muqaddas tuyg‘ularning timsoli Ayoldir».

Shuning uchun ayol haqidagi she‘rlar va umuman, ona obrazi Abdulla Oripov ijodida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. U o‘z ijodi – she‘riyatini ham «onajonim» deb atagan. Xalq shoiri barvaqt vafot etgan muhtarama onasi Turdi Erdona Karvon qizi xotirasiga bag‘ishlab «Onamga xat», «Ona vafotiga», «Onajon», «Ona», «Onamni eslab» va boshqa she‘rlar bitgan. Abdulla akaning, ayniqsa, «O‘zbek onasi» qasidasi ayol obrazini oliy maqomga ko‘targan:

## O'ZBEK ONASI

Mushtipar ham o'zing, buyuk ham o'zing,  
Kuyinchak ham o'zing, kuyuk ham o'zing,  
Olamga tatirlik suyuk ham o'zing,  
Payt keldi aytmoqqa gapning xonasi,  
Ey o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Seni To'maris deb, maqtaganim bor,  
Sen – Temur beshigin tebratgan bedor,  
Sensan – Bibixonim, Nodirai zor,  
Payt keldi aytmoqqa gapning xonasi,  
Ey o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Vatanni Ona deb bekor aytilmas,  
Ona buyurganda yo'ldan qaytilmas,  
Sen o'zing – Ka'bamsan, Baytul muqaddas,  
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,  
Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Boshingdan nimalar o'tmadi, axir,  
Vatandek taqdiring bo'ldi goh taxir,  
Bobur shoh bo'lsa-da, qoshingda faqir,  
Payt keldi aytmoqqa gapning xonasi,  
Ey o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Kelajak toychog'-u toyingizdadir,  
Jannat ham albatta poyingizdadir,  
Vatan-ku Siz turgan joyingizdadir,  
Payt keldi aytmoqqa gapning xonasi  
Ey o'zbek onasi, o'zbek onasi.



Sizga ta'zim qilib turibman bu payt  
Sizga baxshidadir eng shohona bayt,  
Aziz Yurtboshingga duolaring ayt,  
Payt keldi aytmoqqa gapning xonasi  
Ey o'zbek onasi, o'zbek onasi.



Toshkent shahri. Motamsaro ona haykali

Abdulla Oripov asarlarining asosiy qismini XX asr o'zbek she'riyatidagi yetakchi shakl – barmoq vazni tashkil etsa-da, u ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan aruzdagi g'azalga ham, masnaviyga ham, ruboiyga ham murojaat qilib turgan. U bunda buyuk Alisher Navoiy ijodidan ilhomlangan. Abdulla Oripovning hisoblashicha,



hayotning istalgan jabhasiga tegishli chaqmoq fikrlar, go'zal tashbehlar Navoiyning ijod



Katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u – hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o'z xalqining ovozi, uning orzu umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir. Biroq eng asosiysi, u – o'z davrining hakami va kuychisi, u – jarchi va faylasuf, u – so'z sehrgari va uzlatga chekingan mutafakkir darvesh. Bularning bari unga qalb izhorini hammaga birday tushunarli, sevimli va shu bilan birga, ko'tarinki, teran ma'nolar mohiyatini ifodalash uchun ato etilgan. Shu bois shoirning so'zlaridan zamondoshlari ham, kelgusi avlodlar ham faxrlanib yuradilar. Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo'ygan davrlarimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo'lib gavdalanadi.

**Chingiz AYTMATOV**

xazinasida, tafakkur merosida hayratomuz darajada serobdir.

Shoir ijodida Alisher Navoiyga bag'ishlangan she'rlar ko'p. Abdulla Oripov Alisher Navoiyni nainki o'zbek xalqi, balki bashariyatning daho farzandi, «she'r ahli aro jahongiri» deb hisoblagan:

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,  
Hammasiga guvoh – yer osti,  
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro  
Jahongiri kim bo'lar rosti.

Besh asrkim, nazmiy saroyini  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.

Tom ma'noda xalq shoiri bo'lgan Abdulla Oripov ijodida tarix va zamon ruhi, buyuk bobolarimizga xos donishmandlik, haqiqat va ezgulikning abadiyligini his etish, hayotning ma'no-mohiyatini ularning nigohi bilan anglash alohida muhim o'rin tutadi. Adabiyotshunos olim va publitsist Murtazo Qarshiboyev «Noma'lum odam» kim edi? nomli maqolasida Abdulla Oripov she'riyatiga xos ana shu jihatlarni chuqur ochib beradi. Shu o'rinda ana shu maqolani to'liq keltirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

## «Noma'lum odam» kim edi?

Keyingi yillarda hayotimiz insoniy qadriyatlar bilan boyidi, fikrimiz o'zgardi, sezgilarimiz tiniqlashdi. Kechagi voqealar, taassurot va kechinmalarning ma'no-mazmuni, mohiyati o'zgarib, bugun odamda o'zgacha tuyg'u, o'zgacha mulohaza uyg'otadi. Oллоh bergan hayotimiz, qalbimiz, yuragimiz qandaydir «partiya va hukumatniki» emas, balki o'zimizniki, faqat va faqat o'zimizga tegishli ilohiy mulk, ilohiy saltanat ekanini his etmoqdamiz. Shuning uchun o'zimizga, yon-atrofimizga inson ko'zi bilan qarab, xolis va haqqoniy baho berishga o'rganmoqdamiz.

Kechagi badiiy asarlarni ham bugun boshqacha ko'z bilan o'qiymiz.

Shoir Abdulla Oripovning «Noma'lum odam» she'ri ham qayta-qayta o'qishga loyiq asarlardan. Bu she'rda yaqin o'tmish voqeligiga, tiriklikka teran munosabat yashirin. She'r bir taqdir hikoyasi shaklida:

U na shoir edi va na mashhur zot,  
Lekin dunyo bilan bir edi dardi.  
U ham boshqalardek kechirib hayot,  
Shoshib ishga borib, sekin qaytardi.

Taassufki, ba'zan hayotda insonning o'zidan ko'ra mansabi, martabasi ko'proq qadr topadi. She'r qahramonida esa na mansab, na martaba bor. Chetdan qaraganda, u – oddiy odam, ko'pning biri, buyuk shoirimiz Cho'lpon ta'biri bilan aytsak, muhit erkidagi somon parchasi. Bu toifa odamlar kechagi kun atamasida «vintcha» deyilar edi.

Ammo shoir bu vintchada ulug' bir hikmatni anglab qoladi va unga o'zicha nom topadi – «Noma'lum odam». Davrning ijtimoiy aqidalari nuqtayi nazaridan qaraganda, u chindan ham nomsiz, nishonsiz zot. Umri bino bo'lib bir ishni do'ndirib qo'ymagan, oliy nazarlarga tushib, olqish ham olmagan. Uni birov bilmaydi, bilganlar ham ko'zga ilmaydi. Lekin uning noma'lumligi shu bilangina cheklanib qolmaydi. She'r davomida u yanada teranroq ma'no kasb etadi.

Odamda insondek yashash imkoni bo'lsa yaxshi. Jamiyat bu imkonni qadrlasa, yana ham a'lo. Shundagina odamzod o'zidagi insoniy fazilatlardan tortinmasdan, emin-erkin yashaydi. Poklik, rostlik ortiqcha tashvish manbayi emas, insoniy martaba maqomini oladi. Insondek yashash imkoni qadrlansagina jamiyat insonparvarlikka yuz tutadi. Afsuski, biz bilgan



tuzumda unday emas edi. Insonlik xorlik sanalardi. U tuzum barchadan ijtimoiy faol bo'lishni talab etardi. Bu nima degani? Bu – faqat partiyani, uning dohiylarini o'ylab, ular uchun yasha, muhit aqidalari doirasidagina faol bo'l, deganidir. Tabiiyki, bunday turmush tarzi odamni o'zligidan ayiradi, hovuzdagi «oltin baliqcha»ga aylantirib qo'yadi. Biroq «Noma'lum odam» tor fikrlaydigan aqidaparast emas. Aksincha, u davr aqidalarini hazm qilolmaydi. U zamon illatlaridan ancha yuqori turadigan mezonlar bilan yashaydi. Shuning uchun ham u zamonga yot, begona.

Shaxsning ijtimoiy muhitdan begonaligi – adabiyotning azaliy mavzusi. Bu muammo Sharq adabiyotida ham, G'arb adabiyotida ham ko'p va xo'b yoritilgan. Ammo sovetlar zamonasi o'ziga xos voqeligi, ijtimoiy tartibotining mutlaq g'ayriinsoniyliги bilan ham mislsiz hodisa edi. Bu tuzumda shaxs va jamiyat munosabati asliga tamoman teskari edi. U zamon – ommaviy munofiqlik zamonı. Hamma tuzumga begona, ayni paytda hamma tuzumning odami – kerak bo'lganda, uni alqaydi, uning g'oyalarini boshiga toj qilib kiyadi. Kerak bo'lmaganda esa... uni ommaviy tarzda so'kish, haqorat qilishdan



ham qaytmaydi. Ayrim shaxslargina bunday o‘yinlardan tiyiladi. Ularning isyoni – faoliyatsizligi. Tasavvur qiling, sovet kishisining bosh xususiyati ijtimoiy faollik, deb jar solib turilgan bir sharoitda faoliyatdan tiyilish, chindan ham isyon. Lekin Abdulla Oripov qahramoniga xos faoliyatsizlik asosi faqat mustabid tuzum emas. Qahramonning o‘zida ham «ayb» bor:

Anglardi dunyoni u ham xo‘p teran,  
Ma‘yus boqar edi botguvchi kunga.  
Ba‘zida yuragi yongani bilan,  
Parvo qilmas edi hech qachon bunga.

Bu zot oxirat tashvishidan begona emas. U botayotgan kunga qarab horg‘in tin oladi, dunyoning hisob-kitobli ekaniga iymon keltiradi. Gohida yuragi jo‘shib, shaxti-shiddati qo‘zib qoladi-yu, ammo bunga ham parvo qilmaydi: bamisoli «In ham meguzarad – bu ham o‘tadi», degan hikmat uning bosh shiori.

Bizningcha, she‘rning nozik nuqtasi ana shu o‘rinda mujassam. Qahramon beparvoligini jamiyatdagi umumiy loqaydlik belgisi, «vintcha»lik alomati deb tushunish va shu bilan kifoyalaniq qolish ham mumkin-da! Yuzaki qaraganda shunday – «vintcha»lik alomati bu!

Biroq, boya aytganimizdek, qahramonning o'zida ham «ayb» bor. Keyingi misralarda bu «ayb» ochilgandek bo'ladi. Davr illatlariga qarmaqarshi o'laroq, «Noma'lum odam»ning fazilatlarini ortib boraveradi:

U qabr ustida so'zlamadi nutq,  
 Tabrik ham aytmadi to'ylarda xandon.  
 O'lim bu – nishonga borib tekkan o'q,  
 Tug'ilish – shiddat-la tortilgan kamon.

Darhaqiqat, o'limning mohiyati ayon bo'lgach, qabr tepasida nutq so'zlashdan ne foyda? Tug'ilish kimning, qanday buyuk zotning irodasi bilan yuz berishi ma'lum bo'lgach, shu munosabat bilan qilinadigan to'ylarda safsata sotishdan mantiq bormi?

Ko'rinadiki, qahramonning holati taqvo va qanoat rasmini tutib kelgan so'fiy bobolarimiz holatiga naqadar yaqin. U nafaqat keng ma'nodagi ijtimoiy faoliyatdan, balki tiriklikning odatiy, kundalik yumushlaridan ham tiyiladi. U – so'fiynazar zot. Keyingi misralar bu fikrni yanada kuchaytiradi:

Shon-shuhrat talashgan turfa xil g'arib,  
 Sho'rlik kimsalarga kulib boqardi.  
 Yurmasdi har qayda ilinj axtarib,  
 Qalbida bir daryo guvlab oqardi.

Aslida ilinj nima? Ilinj – tamadir. Mobodo insonning dunyodan hech bir tamasi bo‘lmasa-chi? Tamasiz odamning tamasi – Xudo, oxirat! Ayon bo‘ladiki, «Noma‘lum odam» – bandalikni bo‘yniga olgan zot. Uning «aybi» – shu! U ilinjni qalbidan – Ollohga e‘tiqoddan topadi. Shoir xudosizlik avjiga chiqqan bir zamonda beixtiyor Olloh ishqidagi inson qiyofasini jonlantirib qo‘yadi. Bir satr vositasida Haqqa e‘tiqod qo‘ygan odamning holati chiziladi-qoladi – «Qalbida bir daryo guvlab oqardi...»

Ajabo, orifona she‘r bitmak uchun har misrada ismi Ollohni zikr etmoq shart emas ekan.

She‘r qahramoni shon-shuhrat bandalariga kulib qaraydi. Bu ham tanish holat. Bu ham dunyo va dunyoparastlikdan mudom kulib o‘tgan haqparast bobolar tariqatini eslatadi.

«Noma‘lum odam» Ollohga e‘tiqod qo‘ygan musulmongina emas. U Haq tajallisi – dunyoni ham teran anglaydi. Boya aytganimizdek, u – so‘fiynazar zot:

Birovning u bilan bo‘lmadi ishi,  
U ham duch kelganga ochmadi yurak.  
Nasab, ikir-chikir, mol-mulk tashvishi  
Uni etolmadi zarra jonsarak.

Ma'lum bo'lmoqdaki, «Noma'lum odam» «vintcha» holiga tushmagan. Bu holga tushgan boshqalar. Beozor odam bilan hech kimning ishi yo'q. Chunki, bu muhitda hatto xudoga ham e'tibor yo'q. Bu muhitda xudo qachon eslanadi? Qachonki, uning nomini aytmasdan ish bitirish qiyin kechsa! Bu muhitda fazilatlar illatga yo'yiladi:

Xo'sh, yiroq yulduzlar kimlar? Yassaviymi, Navoiymi, Mashrabmi yoki barcha ruhi pok bobolarimizmi? She'rxon qalbida ana shu misralarga uyqash so'fiy ajdodlarimizning hikmat to'la satrlari ulug' mutasavvuflar kalomiga benihoya hamohang bo'lib ketadi. Quyidagi satrlarni hazrat Yassaviy misralariga muqoyasa qilib ko'raylik:

Olamning bu mayda g'alvasi nechun?

Bari o'tadigan, bari nokerak.

*Abdulla Oripov*

Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o'taro,  
Inonmagil molingga, bir kun qo'ldan ketaro.

*Ahmad Yassaviy*



She'r so'ngida shoir tabiiy savolga beriladi: qaydan kelgandi u? Chindan ham, bunday pokiza zot shunday buzuq muhitda qanday paydo bo'lib qoldi? Mushkul savol. Ammo ko'ngildan bir mulohaza kechadi: bobolar ruhining yuz ko'rsatishi emasmikan bu?..

Qaydan kelgandi u? Bilmadi kimsa,  
Qabrga ham jimjit kirib ketdi u.  
Menimcha, dunyoning ustidan rosa  
Miriqib qahqaha urib ketdi u.

Qahramonning ko'ngli so'fiylikka moyil, dedik. U – pok va beozor kimsa, dedik. Lekin muhit oqimida u ko'pchilikdan farq qilmaydi – shoshib ishga borib, sekin qaytadi, barcha qatori hayot kechiradi, tuzumning yumushini bajaradi.

Tuzumga bo'ysunmaslik, uning yumushini bajarmaslikning iloji yo'q. Cho'lpon «Muhit, kuchlik ekan, egdim bo'ynimni» degani kabi, bu zot ham taqdirga tan beradi. Agar «Noma'lum odam» she'ri Cho'lponning «Somon parcha» she'ri bilan birgalikda tahlil etilsa, yana bir haqiqatni anglash mumkin.

Bu haqiqat, bizning fikrimizga ko'ra, quyidagicha. Haqnazar, so'fiynazar zotlarning chir-



kin muhit domiga bandi etilishi «Somon parcha» she'ri yozilgan davrda – o'tgan asrning 20-yillarida boshlangan. «Noma'lum odam» qalbidagi haqiqat yallig'i esa o'sha olis yillardagi iztirob va g'ussalarning davomidir. «Na isyon, na to'lqin, na to'fon, na o't! Ko'zimda og'ir bir taslim nuri bor», deb yozadi Cho'lpon. «Noma'lum odam» esa, «ba'zida yuragi yongani bilan» bunga sira parvo qilmaydi.

Ta'kidlash joizki, Cho'lponning she'rida «partiya soldati» bo'lishning ilk belgilari – hukmron kuch nima desa «xo'p» deb ketaverish – manqurtlik alomatlari («Har amal, har ishni haq deb boramen») tahlil etiladi. Savol tug'iladi: 20-yillardagi ilojisiz taslim kayfiyati shaxsning 70-yillardagi mutlaqo beparvo holatiga – ommaviy «soldatchilik»ka asos bo'lmadimikan? Ehtimol shu bois «Noma'lum odam»ning faoliyati emas, qalb holati, faoliyatsiz vaziyati so'fiylarni eslatar. Ehtimol shu sababdan u faqat ichki munosabatdagina sobit, haqnazardir...

Bu zot o'tmish va zamoni tutashtirgan nuqta. U – o'tmishning zamonga malomati, zamonning o'tmishga hayrati. U – anglanmagan sado, unutilgan haqiqat. Shuning uchun shoir uni «Noma'lum odam» deb ataydi.

Kommunistik tuzum qonida soʻfiylar ruhi, haqqparastlik otashi gupurgan yurtdoshlarimizdan ham «vintcha» yasashga urinib koʻrdi, lekin bunga erisholmadi. Ammo u elaro loqaydlik muhitini yaratdi. Ajdodlardan oʻtib kelayotgan qadimiy ruh esa turli ramz va timsollar shaklida sheʻriyatni yangilab boraverdi. Adabiy tanqidchilar uni mudom «tushkun kayfiyat» nomi bilan tigʻga tortar, biroq tigʻ sheʻr bagʻrini tilka-pora qilar edi-yu, zinhor maʼno-mohiyatini ochib berolmasdi.

Shunday qilib, «nomaʼlum odam»lik davri oʻtdi – kommunistik tuzum inqirozga yuz tutdi. Endi nomaʼlumlik pardasini yirtib, asl holatimiz – oʻzligimizga qaytadigan davr kelgani rost boʻlsin!

*1994-yil*

Abdulla Oripov «Navoiy ideallari bir xalq, bir til, bir qavm chegarasiga sigʻmaydi. Bu zotning oʻgitlari jami inson bolasiga, es-hushi joyida boʻlgan tafakkur sohiblariga qaratilgandi. Shu boisdan ham yer yuzining barcha puchmoqlarida buyuk Navoiyni faqat iltifot yuzasidan emas, balki bashariyatga mehnati singan zot boʻlganligi

uchun ham ardoqlab turibdilar», deb ta'kidlagan. Uning Alisher Navoiyga bag'ishlangan turkum she'rlarida ulug' bobomizni buyuk shaxs, ulkan iste'dod egasi sifatida ta'riflaydi, uning dahosiga ta'zim qiladi, «g'azal mulki sultoni»ning siymosini xalqi, millati timsoli sifatida ko'radi:

Jahonki muqaddas neni ko'ribdi  
Bariga onasan, ey qodir hayot!  
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,  
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,  
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.  
Uning nomi bilan birga bitilgan  
Dunyo daftarida o'zbek degan nom.





## SHOIRLIK QISMATIN BIRGA KO'TARGANLAR

Aziz o'quvchi, siz hayotda, tabiatda bir noyob hodisaga e'tibor berganmisiz. Agar diqqat qilgan bo'lsangiz tog' bilan – tog', bog' bilan – bog', cho'qqi bilan – cho'qqi tutashib ketganini ko'rasiz. Tunda osmonda ham yulduzlar g'uj-g'uj. Yulduzning yonida albatta yulduz porlaydi. Bu buyuk hodisa adabiyotda ham o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Ulug' iste'dod va mahorat egalari ham, xuddi bir-biri bilan yetaklashgan aka-ukalardek, yelkama-yelka turib adabiyot maydoniga kirib kelishadi. Abdulla Oripovning shoirlik qismati ham bundan mustasno emas.

Haqiqatan ham, XX asrning ikkinchi yarmi va yangi ming yilligimiz boshidagi o'zbek adabiyotini Abdulla Oripov va Erkin Vohidov siymolarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular



o'zlarining shoh asarlari bilan milliy adabiyotimiz sahifalariga nomlarini zarhal harflar bilan bitib ketdilar.

Abdulla Oripov ham, Erkin Vohidov ham yurtimiz tarixining g'oyat murakkab bir davrida she'riyat olamiga kirib keldilar. Ular birgalikda o'zbek she'riyatining butun bir davriga asos soldilar. Ikkilasi ham Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Nuriddin Shukurov kabi shoir va yozuvchilar adabiyotshunos olimlar maktabida saboq oldilar, ularning mehriga, e'tiboriga sazovor bo'ldilar. O'zbek xalqining ma'naviy ramzi, ta'bir joiz bo'lsa, tashrif qog'oziga aylanib ketgan bu ikki buyuk siymo Vatanimiz mustaqilligiga erishish, yangi milliy davlat barpo etish jarayonlarining ham doimo oldingi saflarida bo'ldilar. Ular Vatan va xalq oldidagi buyuk xizmatlari uchun O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri degan yuksak unvonlarga, Davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar. Shoirlar bir necha bor davlatimizning oliy qonun chiqaruvchi organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylanib, deputat, senator sifatida faoliyat ko'rsatishdi, ulkan jamoat



arboblari degan sharaflı nomga muyassar bo‘lishdi. Xullas, O‘zbekistonning yangi davridagi milliy madaniyat asoslarini yaratishda Abdulla Oripovning tarixiy xizmatlari beqiyos.



Tarixga muhrlangan onlar

Bu ikki ulug‘ shoir avvalgi sobiq tuzumda o‘z vatani, xalqi, tilini madh etganlari uchun tazyiqlarga uchradilar. Abdulla Oripov Erkin Vohidovga bag‘ishlangan «Arslon chorlagandi...» she’rida shoirlik qismati naqadar og‘ir ekanini, o‘zlarida ulug‘ maqsadlarga erishish uchun matonat ham, bardosh ham borligini, lekin ularga yo‘lda qumursqalar – razil va xudbin insonlar hamroh bo‘layotganini obrazli ifoda etadi:

## ARSLON CHORLAGANDI...

*Erkin Vohidovga*

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko'zni,  
 Bizda ham bor edi matonat, bardosh.  
 Arslon chorlagandi qoshiga bizni,  
 Lekin qumursqalar bo'ldi safardosh.

Jami tiriklikka ayon shu xatar:  
 Qumursqa yaralgan yoppa talarga.  
 Do'stim, alam qilar, arslon bexabar,  
 Yem bo'lib ketsak shu qumursqalarga.

Erkin Vohidov 1936-yil Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Abdulla Oripov kabi Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini tugallagach, «Yosh gvardiya» va G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida muharrir, bosh muharrir, direktor, «Yoshlik» jurnali bosh muharriri bo'lib ishlagan.

Uning ilk she'riy to'plami – «Tong nafasi» 1961-yilda chop etilgan va darhol qo'lma-qo'l bo'lib ketgan. Shuningdek, «Qo'shiqlarim sizga», «Yurak va aql», «Mening yulduzim», «Muhabbat», «Kelajakka maktub» kitoblari adabiyot ixlosmandlari tomonidan g'oyat quvonch bilan kutib olindi. Erkin Vohidovning

1969-yilda nashr etilgan «Yoshlik devoni» o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an’analarini davom ettirib, g‘azal janriga yangi, zamonaviy ruh bag‘ishladi.



Ikki do‘st, ikki buyuk qalb sohibi

Shoir millatning uyg‘onishi, o‘zini tanishi, ma‘rifatli olamda boshqa ilg‘or xalqlar qatoridan o‘z tarixiy o‘rnini topishi uchun qayg‘urgan. U «Ruhlar isyoni» dostonida yozadi:

Shoir bo‘lsang, bo‘lsin qalbing  
Elga qurbon bo‘lgulik.  
Shoir bo‘lsang, bo‘lsin xalqing  
Senga qalqon bo‘lgulik.

Ayniqsa, benihoya shoirona mahorat bilan yozilgan «O'zbekim» she'ri millat madhiyasidek jaranglagan, ammo mustabid tuzum mafkurasi buning uchun shoirni millatchilikda ayblashga uringan. Ushbu qasida Vatan va millat haqidagi eng durdona asarlar qatoridan o'rin olgan:

### **O'ZBEGIM**

Tarixingdir ming asrlar  
Ichra pinhon, o'zbekim,  
Senga tengdosh Pomiru  
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyobu  
So'ylasin O'rxun xati,  
Ko'hna tarix shodasida  
Bitta marjon, o'zbekim.

Al Beruniy, Al Xorazmiy,  
Al Forob avlodidan,  
Asli nasli balki O'zluq,  
Balki Tarxon, o'zbekim.

O'tdilar sho'rlik boshingdan  
O'ynatib shamshirlarin  
Necha qoon, necha sulton,  
Necha ming xon, o'zbekim.



Tog'laring tegrangda go'yo  
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,  
Ikki daryo – ikki chashming,  
Chashmi giryon, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidan  
Bag'rida dog' uzra dog',  
Chingizu Botu tig'iga  
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.

Yog'di to'rt yondin asrlar  
Boshingga tiyri kamon,  
Umri qurbon, mulki toroj,  
Yurti vayron, o'zbekim.

Davr zulmiga va lekin  
Bir umr bosh egmading,  
Sen – Muqanna, sarbador – sen,  
Erksevar qon, o'zbekim.

Sen na zardusht, sen na buddiy,  
Senga na otash, sanam,  
Odamiylik dini birla  
Toza imon o'zbekim.

Ma'rifatning shu'lasiga  
Tolpinib zulmat aro,  
Ko'zlaringdan oqdi tunlar  
Kavkabiston, o'zbekim.

Tuzdiyu Mirzo Ulug‘bek  
Ko‘ragoniy jadvalin,  
Sirli osmon toqiga ilk –  
Qo‘ydi narvon o‘zbekim.

Mir Alisher na‘rasiga  
Aks sado berdi jahon,  
She‘riyat mulkida bo‘ldi  
Shoh-u sulton o‘zbekim.

Ilm-u she‘rda shoh-u sulton,  
Lek taqdiriga qul,  
O‘z elida chekdi g‘urbat,  
Zor-u nolon o‘zbekim.

Mirzo Bobur – sen, fig‘oning  
Soldi olam uzra o‘t,  
Shoh Mashrab qoni senda  
Urdu tug‘yon, o‘zbekim.

She‘riyatning gulshanida  
So‘ldi mahzun Nodira,  
Siym tanni yuvdi ko‘z yosh,  
Ko‘mdi armon, o‘zbekim.

Yig‘ladi furqatda Furqat  
Ham muqimlikda Muqiyim,  
Nolishingdan Hindu Afg‘on  
Qildi afg‘on, o‘zbekim.

Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak,  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o'zbekim.

Ortda qoldi ko'hna tarix,  
Ortda qoldi dard, sitam,  
Ketdi vahming, bitdi zahming,  
Topdi darmon, o'zbekim.

Bo'ldi osmoning charog'on  
Tole xurshidi bilan,  
Bo'ldi asriy tiyra shoming  
Shu'la afshon, o'zbekim.

Men Vatanni bog' deb aytsam,  
Sensan unda bitta gul,  
Men Vatanni ko'z deb aytsam,  
Bitta mujgon o'zbekim.

Faxr etarman, ona xalqim,  
Ko'kragimni tog' qilib,  
Ko'kragida tog' ko'targan  
Tanti dehqon, o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga  
Ne uchun madh etmayin!  
O'zligim bilmoqqa davrim  
Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,  
Men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo'lsam  
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

Menga Pushkin bir jahonu  
Menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor,  
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

Qayga bormay boshda do'ppim,  
Shuhratim, qadrim buyuk,  
Olam uzra nomi ketgan  
O'zbekiston, o'zbekim.

Bu qasidam senga, xalqim,  
Oq sutu tuz hurmati,  
Erkin o'g'lingman, qabul et,  
O'zbekim, jon o'zbekim.

Hurlik, adolat va haqiqat Erkin Vohidov ijodining yetakchi g'oyalari bo'lgan. Bu jihatdan shoir Behbudiy, Cho'lpon, Avloniy, Qodiriy singari ma'rifatparvarlarning ijodiy davomchisi sifatida maydonga chiqqan. U o'z ijodining ilk bosqichlaridayoq hamisha shoirning xalq oldidagi mas'uliyatini chuqur his etgan va buni nihoyatda ta'sirchan ifodalagan:

Shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir,  
Limmo-lim fidolik jomin ichmakdir.  
Shoirlik – jigarni ming pora etmak,  
Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.



O'zni tomchi-tomchi, zarra va zarra  
Elga qurbon qilib, eng so'nggi karra –  
Armon bilan demak: «Ey ona yurtim,  
Kechir, xizimatingni qilolmay o'tdim».

Mustaqillik yillarida Xalq shoirining ijodiy va ijtimoiy faoliyati yanada yorqin namoyon bo'ldi. Vatanimiz ozodligini, xalqimizning erkin, obod va farovon hayotini tarannum etadigan, inson qadr-qimmatini ulug'laydigan bir qancha yangi she'riy asarlari, ona tilimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini asrab-avaylashga bag'ishlangan kitoblari, bunyodkor zamondoshlarimizning fidokorona mehnati, yurtimizdagi ulkan islohot va o'zgarishlar haqidagi publitsistik maqolalari keng jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

Erkin Vohidov dramaturg sifatida ham elga tanilgan edi. Uning «Oltin devor», «Istanbul fojiasi» va boshqa sahna asarlari teatrlarda, shu jumladan, Pokistonning Lahur shahri teatrida katta muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan.

Erkin Vohidov Abdulla Oripov kabi tarjima bilan ham shug'ullangan. U Gyotening jahonga mashhur «Faust» asarini, rus shoiri Sergey

Yeseninning she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilib, alohida kitob holida nashr ettirgan. Bundan tashqari, F. Shiller, Iqbol, Ulfat, R. Hamzatov, L. Ukrainka, A. Blok va boshqa turli xalqlar shoirlari asarlarini ham o'zbek tiliga o'g'irgan.

Erkin Vohidovning asarlari nemis, fransuz, rus, ingliz, urdu, hind, arab va qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan.

Erkin Vohidov 1990–1995-yillarda O'zbekiston Oliy Kengashi qo'mitasi raisi, 1995–2005 yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi, 2005–2009-yillarda Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi kabi mas'ul lavozimlarda samarali faoliyat olib bordi.

U «Do'stlik» va «Buyuk xizmatlari uchun» ordenlari bilan taqdirlanib, Davlat mukofoti sohibi bo'ldi, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni degan oliy unvonlarga loyiq topildi.

Erkin Vohidov – jahongashta shoir edi. Osiyo, Yevropa va Afrikadaga juda ko'p mamlakatlarda bo'lib, dunyoning qariyb yarmini kezgan. Shoir

qayerda bo'lmasin, o'zining ajoyib she'rlari, teran mulohazalari, haroratli so'zi, hazil-mutoyibalari bilan tinglovchilarni o'ziga mahliyo etgan. Amerika Qo'shma Shtatlarida bir necha bor safarda bo'lib, shoirlaru oddiy amerikaliklar bilan muloqot qilganida, Kaliforniya universitetida o'zbek adabiyoti va madaniyati to'g'risida ma'ruzalar o'qiganida, o'z fikrlarini tarjimonsiz ingliz tilida ifodalagan. U Abdulla Oripov ijodiga yuksak baho bergan: «Eskirmas, to'zimas so'z sohiblaridan biri Abdulla Oripovdir. Uning ilk she'rlari xalq qalbida qanday aks-sado bergan bo'lsa, eng yangi satrlari ham shunday sehrli qudrat bilan jaranglab turibdi».

Erkin Vohidov 2016-yili vafot etdi. Abdulla Oripov uning xotirasiga shunday marsiya bitgan:

### **SHOIR ERKIN VOHIDOV XOTIRASIGA**

Rosa tortishdilar yer bilan osmon,  
Shafaqqa aylandi yanoqlar chunon.  
Shoirni meniki der edi samo,  
Meniki der edi ona yer ammo.



Shoir-chi, kuyladi ikkalasin ham,  
 Zamindan kuch oldi, samoga hamdam.  
 Sakson yil chorlashdi o'rtaga olib,  
 Oxir tortishuvda Yer chiqdi g'olib.

**Abdulla ORIPOV,**  
 2016-yil 2-iyun

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarori asosida o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga unutilmas hissa qo'shgan atoqli shoir va adib, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qad-



riyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyatini inobatga olib, 2016-yil dekabr oyida shoirning 80 yilligi keng nishonlandi. Ushbu yubiley doirasida Erkin Vohidovning o‘zbek tilida «Saylanma» asarlari, ingliz va qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan she’riy to‘plamlari nashrga tayyorlanib, chop etildi, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratildi. Shuningdek, Toshkent shahridagi O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov yashagan uyda yodgorlik lavhasi o‘rnatildi.





*Har kim mangu emas ushbu olamda,  
Agar bir kun tanim ko'rsalar...  
Koshkiydi kimlardir turib tepamda,  
- U bizniki edi, desalar...*

*Abdulla Oripov*



## MUNOSIB SHOGIRDLAR

Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning mush-tarak jihatlaridan yana biri – ular birgalikda sadoqatli, adabiyotimiz yukini o‘z yelkasiga olishga qodir iste’dodli, vatanparvar ijodkor shoirlarni tarbiyalab voyaga yetkazganlari bo‘ldi. Bu ikki ulug‘ ustozning she’riyat maktabida saboq olgan O‘zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Orif To‘xtash, Alisher Nazar ustozlarining ijodiy an’analarini bugungi kunda munosib davom ettirmoqdalar.

Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning sadoqatli shogirdi Sirojiddin Sayyid ustozlarining vafotidan chuqur qayg‘uga tushib, «Ikki ustoz xotirasi» she’rini yozgan edi. Og‘ir o‘kinch va iztirob bilan yozilgan bu she’rlarni so‘z bilan ifoda etish, sharhlash, talqin etish qiyin. Shuning uchun «O‘zbekiston ovozi» gazetasining



2016-yil 27-dekabr sonida, Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligi arafasida e'lon qilingan ana shu she'rni, ruxsatingiz bilan, to'liq keltirmoqchimiz.





Ikki xayrixoh va bag'rikeng ustoz

### **Ikki ustoz xotirasi**

Bizning vujudimiz, umrimiz nima –  
Bir qalqib, chayqalib ketguvchi kema.  
Xohla g'amlarin ye, xohlasang yema,  
Do'stim, zo'rlar ketib men zo'rman dema –  
Bor-yo'g'ing bir kamon yo bir yoydadir.

Kechikdim yo'qlov-u shitoblarimda,  
Dastxatlari qolmish kitoblarimda.  
Orom yo'q na hushim, na xoblarimda,  
Bo'zlab chorlasam-da, xitoblarimda,  
Kelmaslar na yil-u va na oydadir.

Qani deyman, qani, ikki yangroq soz,  
Ikki xayrixoh zot, bag'rikeng ustoz?  
Ovozlari kelmas, yetmagay ovoz,  
Borsam ikki do'nglik olgaydir peshvoz –  
Xoklari ko'zyoshdan somon loydadir.

Ustoz Erkin Vohidov, Abdulla Orif,  
Eng oliy dargohda turibsiz borib –  
O'znimas, unda ham bizni qutqorib,  
Ayb-u gunohimiz Haqdan yolborib.  
Endi bor hukm bir Xudoydadir...

Sirojiddin Sayyid Abdulla Oripovning eng suyuqli, sirdosh, darddosh shogirdlaridan edi. Ustozi hatto olis safarlarda yurganida ham Sirojiddin erta-yu kech telefon orqali uning holidan xabardor bo'lib turardi. Abdulla aka ham shogirdidan mehrini, e'tiborini ayamadi. Bir safar Yaponiyaga borganida, Abdulla Oripov Sirojiddin Sayyidga atab maxsus qalam olib keladi. Shogird ustozning bu muruvvatidan ilhomlanib, «Sovg'a» she'rini yozadi.

### Sovg'a

Dunyoning yarmisi – nur va ziyodan,  
Yarmi – yozuv-chizuv, yarmisi – g'avg'o.  
Qalam keltiringiz Yoponiyodan,  
Dedingiz: bu mendan sizlarga sovg'a.

Olam musofirlar bilan bedordir,  
Sayyohlar ichra ham siz mullo, aka.  
Dunyoning eng go'zal qismi diydordir,  
Diydor qutlug' bo'lsin, Abdullo aka!

Bunday payt ko'rgali do'st-u yoron ham  
O'g'illari kelgay, qizlari kelgay.  
Sizdan, quchoq ochib peshvoz olgan dam,  
Yapon yomg'irlarin islari kelgay.

Biz-chi, biz qalamni cho'ntakka urdik,  
Go'yo bo'y qo'shildi qad, bo'yimizga.  
Olis ellar haqda suhbatlar qurdik,  
So'ngra tarqab ketdik uy-uyimizga.

Shoirlik nimadir?

Dard bilan hijron.

Qalam ham bir neni ilg'asa kerak.

Biz uxlab qolganda, tunlari pinhon

Bildirmay yaponcha yig'lasa kerak.

Umuman, katta-kichik ijodkorlar uchun yonida hamdard bo'lib yuradigan do'stlari, shogirdlarining borligi katta dalda, katta davlat. Sirojiddin Sayyid ustozini uchun aynan shu vazifani bajargani, sadoqatli shogird bo'lib, doimo uning mehrini qozonganini ko'pgina she'rlarida ko'rish mumkin. Bu jihatdan, ayniqsa, Sirojiddin Sayyidning «Ehtirom» she'ri diqqatga sazovordir.



### Ehtirom

Jahon bo'lmas muhoribsiz,  
                     zamon bo'lmas muxolifsiz,  
 Yashab bo'lmas bu dunyoda  
                     vale she'r-u maorifsiz,  
 Kim aytur endi yayrabsiz,  
                     kim aytur endi horibsiz,  
 Hamon Abdulla Orifsiz,  
                     hamon Abdulla Orifsiz.

Tumanlar, barcha yomg'irlar,  
                     fasllar suhbati ichra,  
 Jununlar, iztiroblar ham  
                     asrlar suhbati ichra,  
 Qasrlar hay'ati ichra,  
                     vazirlar suhbati ichra  
 Ayon Abdulla Orifsiz,  
                     hamon Abdulla Orifsiz.



Bu yo'llardan necha ustoz,  
necha sohibkalom o'tgan,  
Ulug' Shayxzoda ham Oybek,  
ulug' G'afur G'ulom o'tgan,  
Ularning nom-u yodin ham  
bayotin bardavom etgan,  
Nishon Abdulla Orifsiz,  
hamon Abdulla Orifsiz.

Havolar, sarzaminlarda  
bu she'riy kayfiyat bordir,  
Vatan bordir Vatanda to  
bu yanglig' she'riyat bordir.  
Bu yanglig' she'riyat to bor,  
Vatanda qadriyat bordir,  
Makon Abdulla Orifsiz,  
hamon Abdulla Orifsiz.

Tuzimlar uzra chaqnab,  
ko'kda chaqmoqlarni so'ndirgan,  
Muhit devorlariga dil  
bilan chechaklar undirgan,  
Ko'mir dillarni kuydirgan,  
temir yillarni sindirgan  
Fig'on Abdulla Orifsiz,  
hamon Abdulla Orifsiz.

Bu she'rlar yangragan uylar  
chirog'ida Vatan bo'lgay,  
Ularni yodlagan avlod  
sabog'ida Vatan bo'lgay,

Dil-u joni qabog‘i ham  
qarog‘ida Vatan bo‘lgay,  
Zamon Abdulla orifsiz,  
hamon Abdulla Orifsiz.

Ulug‘ kunlar bahorida,  
tiriklikning nahorida,  
Ulug‘ el birla dardlashgan  
ulug‘ zotlar qatorida,  
Jahon ahliga yuz tutgan  
bu o‘zbeklar diyorida  
Jahon Abdulla Orifsiz,  
hamon Abdulla Orifsiz.

O‘zaro suhbatlarimizda ko‘p e‘tibor berganman. Abdulla Oripovning Sirojiddin Sayyidga mehri bo‘lak edi. «Shogirdlarimning ichida shu bolada mehr-oqibat kuchli. O‘z ustida ko‘p ishlaydi, mehnatdan qochmaydi. Gapida ham, ishida ham ma‘ni bor, tayini bor», deb shogirdidan mamnun bo‘lib gapirar edi.

Sirojiddin Sayyid ham ustoz duosini olib kam bo‘lgani yo‘q. Bugungi kunda butun O‘zbekiston taniydigan, tan oladigan katta shoir, Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari, «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining bosh muharriri, O‘zbekiston xalq shoiri, Davlat mukofoti sovrindori.

Abdulla Oripov o‘zidan nafaqat boy ijodiy meros, ayni vaqtda shunday munosib shogirdlar ham qoldirgani haqida o‘ylar ekanmiz, ulug‘ shoirga bo‘lgan mehrimiz, hurmatimiz yanada ortadi.



## SHOIR

*Ustoz Abdulla ORIPOVga*

Garchi, oson emas shoir zotiga,  
Garchi, o'z dardidan ortadi shoir.  
Tarixlarni yuklab xotirotiga,  
Millatning g'amini tortadi shoir.

Qadamidan o'tlar chaqnamas balki,  
Ammo qalamidan sachraydi chaqin.  
Jasoratli so'zdir she'riyat sharhi,  
Shu bois kalomi ko'ngilga yaqin.

Uning kulgularin o'ylamang baxt deb,  
Hayoti ham kechmas farog'at ichra.  
U zulmat qa'ridan axtarib poklik,  
Va tong tiniqligin so'zga ichirar.

Shoirni bedor qalb sohibi derlar,  
Ba'zan qarog'iga inmaydi mudroq.





Ijodiy guring

Yovqur nigohidan to'kilar she'rlar,  
Aga r eta olsak ko'zlarin idrok.

Bir qarasang, xuddi boladay serzavq,  
Bir qarasang, yana tortadi vazmin.  
Uning siyratidan zo'r hikmat ilg'ab,  
Hofizlar qo'shiqqa o'girar nazmin.

Chin shoir so'zida dard bor pinhona,  
Har bir she'ri esa uning yuragi.  
Ne baxt, avlodlarga bitilgan noma,  
Dillarda oy kabi balqib turadi.

Garchi, oson emas shoir zotiga,  
Garchi o'z dardidan ortadi shoir.  
Yorqin kelajakni tiklab yodida,  
Bir zumgina engil tortadi shoir!

**Orif To'xtash,**  
*2001-yil 4-aprel*











## MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

Ona yurt – jonajon O‘zbekiston – Abdulla Ori-pov eng baland maqomlarda qalamga olgan mavzudir. Uning asarlari chinakam vatanpar-varlik, kindik qoni tomgan zaminga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash, asrlar qa’ridan kelayotgan muqaddas qadriyatlarimizni ko‘z qorachig‘idek asrash tuyg‘ulari bilan sug‘orilganini yana bir bor alohida ta’kidlasak, ziyon qilmaydi. Doimo el-yurt dard-u tashvishi bilan yashagan otashin shoir O‘zbekistonning davlat mustaqilligini ona xalqi bilan birgalikda nihoyatda yuksak ijodiy ko‘tarinkilik bilan kutib oldi. Mustaqillik e’lon qilingan kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi minbaridan turib «Adolat oftobi» she’rini o‘qib berdi:



Safga tizil, nabiram, otajonim, tur endi,  
 Mustaqillik nash'asin, haqqing bordir, sur endi,  
 Qo'lni berib qo'llarga, bir tan bo'lib yur endi,  
 Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,  
 O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining muallifi. U boshqa biror asar yozmasa ham ana shu Davlat madhiyasi bilan o'zbek adabiyotining zarhal sahifalaridan munosib o'rin egallagan bo'lardi.

Kechagidek yodimda: O'zbekiston Oliy Kengashi 1990-yil 30-martda «O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida» qaror qabul qildi. Davlat madhiyasini qabul qilish bo'yicha tuzilgan ekspert komissiyasi tarkibiga taniqli musiqashunoslar, bastakorlar va boshqa mutaxassislar: O'zbekiston Respublikasining taniqli artistlari, Davlat mukofotlarining laureatlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari I.Akbarov, R.Abdullayev, S. Jalil, M.Burhonov, U.Musayev, B.Umidjonovlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi parlamentining 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan 11-sessiyasida



davlat madhiyasi matni va musiqasi masalasi kun tartibiga qo'yildi. Qizg'in munozaralar va bahslar natijasida O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov so'zi, taniqli bastakor Mutal Burhonov musiqasi bilan aytiladigan qo'shiq O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi sifatida tanlab olindi.

1993-yilda «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni ham qabul qilindi. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzi, Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchi ekani belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi haqida Abdulla Oripov suhbatlaridan birida bunday degan: «Biz mustaqil Vatanimizning davlat ramzlarini, millatimiz timsollarini qadrlash, ko'z-ko'z etishni o'rganishimiz zarur. Men shu o'rinda Italiyada shohidi bo'lganim bir ibratli voqeani aytib beray. Kamina mashhur «Ilohiy komediya» asarining muallifi buyuk Dante yurtida bo'lganimda bir davrada o'tirib qoldim. Mezbonlar Italiyadagi turli firqa vakillaridan iborat edi.

Italiyalik do'stlarimizdan biri menga murojaat qilib bunday dedi: «Muhtaram mehmon, mana, Sizning sharofatingiz bilan biz – turli firqa vakillari bir dasturxondan ovqat yeb, bir stol atrofida gurunglashib o'tiribmiz. Aslida biz siyosiy qarashlarimiz nuqtai nazaridan bir-birimizga butunlay qarama-qarshi kishilarmiz. Ko'chada yurganimizda bir-birimizni ko'rarga ko'zimiz, otarga o'qimiz bo'lmaydi. Ammo, bugun Siz – Dante tarjimoni sharafiga bir dasturxon atrofiga yig'ildik va siyosiy nizolarni unutib, bir millat farzandlariga aylandik. Chunki, Dante – millat timsoli! Unga daxldor har qanday narsa bizni birlashtiradi. Biz Dante timsolida Vatanimizni, millatimizni ko'ramiz va bu timsol mushkul vaziyatlarda bizni birlashtiradi, aql-idrokka da'vat etadi». O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlab aytmoqchiman. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 11-yanvarda O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi xodimlari hamda mamlakatimizning chet ellardagi elchixonalarida faoliyat ko'rsatayotgan diplomatik korpus vakillari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqida ana shu tarixiy voqea haqida to'xtalib, Abdulla Oripovning Vatanimiz shuh-

ratini dunyoga tarannum etish borasidagi xizmatlariga yuksak baho berdi.

Xalq shoiri o'zining xorijiy safarlari haqida yana bir ibratli misol keltirgan: «Yaponiyada Kioto shahrida bo'lganimda mezbon do'stlarimiz bir chiroyli chinni idishni sovg'a qilishdi. Unda Yaponiyadagi Fudziyama tog'lari go'zal bir tarzda aks etgan edi. Tog' yonbag'ri, yam-yashil vodiy manzarasi nigohingizni sehrlaydi. Idishga qaynoq suv quysangiz, haqiqiy mo'jiza ro'y beradi: uning sirtidagi tog' manzaralari o'rnida asta-sekin O'zbekiston bayrog'i va uning ortidan Ipak yo'li karvoni o'tayotgan manzaralar paydo bo'ladi. Tilla rangdagi tuya tasviri nihoyatda jonli va ko'rgan kishining bir hayratiga o'n hayrat qo'shib yuboradi.

Ana shu mo'jizakor idishchani ko'rib, yaponlarning topqirligidan behad hayratlanib, bir to'rtlik bitdim va siyohi qurimasdan, «O'zbekiston ovozi» gazetasi muharririga o'sha yoqdan telefon qilib, o'qib bergandim:

Sening amalingga qoyildir jahon,  
Burgani taqalab qo'ygansan oson.  
Nozik san'atingga tikilaverib,  
Ko'zlarim qisilib ketdi-ku, yapon<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Boboravshan G'oziddinov.* Ona tilimizning nodir jilosi // <http://www.vatandosh.uz> news /2013/09/20789/



Abdulla Oripov – Vatan kuychisi. U Vatanni borlig‘icha, butun go‘zalligi bilan birga ko‘radi. U Vatanning o‘tmishiga nazar tashlab, toleyi o‘ng kelmagan yurtini, jabrdiyda xalqini, bugungi kuniga nazar tashlab, yashnayotgan shahar va qishloqlarni, buyuk ishlarni amalga oshirayotgan xalqini ko‘radi.

**Matyoqub QO‘SHJONOV,**  
*adabiyotshunos olim, akademik*

Abdulla Oripov qalamiga mansub she‘riy drama va dostonlar ham o‘zbek adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin olgan. Uning Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga bag‘ishlab yozilgan «Hakim va ajal» dostoni (1980) xalq rivoyatlari va tarixiy voqealarga asoslangan. Asarda amirning qizini davolagan, biroq tuhmatga uchrab, saroydan haydalgan Hakim va hasadgo‘y Mirzo munosabatlari orqali ezgulik va hasadning azaliy kurashi o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Shoirning yana bir asari – «Ranjkom» dostonida butun o‘y-xayoli ig‘vo va tuhmat bo‘l-



gan uch nokasning «fisq-u fasod qo‘mitasi» fosh etiladi.

1995-yilda bitilgan «Sohibqiron» she’riy dramasi shoir ijodida ham, adabiyotimiz rivojida ham alohida o‘rin tutadi. Abdulla Oripovning o‘zi «Sohibqiron» asarimni o‘tmishga boqib, bugun uchun yozganman», degan edi. Unda shoir Amir Temur hayotining so‘nggi yillari tasviri orqali «Kuch – adolatdadir» degan aqidani o‘ziga shior qilib olib, tarqoq uluslarni birlashtirib, buyuk davlat tuzgan, qadami yetgan yerda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan, harbiy sarkardalik bobida bebaho meros qoldirgan, elsevar buyuk inson qiyofasini yorqin gavdalantirgan.

Abdulla Oripovning «Haj daftari» turkumiga kirgan she’rlarida falsafiy-axloqiy g‘oyalar mujassamlashgan bo‘lib, shoir ma’naviyatimiz manbalarini kashf etish yo‘lidan boradi. Qur’oni karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma’nolar izlaydi va topadi. «Makkayi mukarramaga borganimning dastlabki kunida, – deb yozgan shoir ushbu turkum muqaddimasida, – Ka’batullohda, Allohning uyi yonida tunni bedor o‘tkazib, tilovat bilan bir qatorda baytlar yoza boshladim. Men bu holatga avvaldan birmuncha tayyor

bo'lganim sabablimi, satrlarim o'z-o'zidan quyilib kelaverdi».

2013-yilda Abdulla Oripov ijodining eng yaxshi namunalari jamlangan «Tanlagan asarlari»ning 8-jildi kitobxonlar qo'liga yetib bordi.



«Tanlagan asarlari»ning 7-jildiga kirgan xalqona, qissago'ylik uslubida yozilgan «Istiqlol manzaralari» dostonida Mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida yurtimizda yuz bergan voqealar, shoir o'zi guvoh bo'lgan unutilmas, tarixiy jarayonlar tasvirlangan. Yoyiq, voqea-band ifoda uslubida, uchliklar shaklida yozilgan «Ranglar va ohanglar» deb nomlangan she'riy turkumga kirgan she'rlardan shoirning inson

Takror aytishga to'g'ri keladi, Abdulla Oripov nodir iste'dodi, betakror ijodi bilan o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib va mustahkam o'rin oldi. Uning sermazmun, badiiy yuksak she'r va dostonlari, dramatik va publitsistik asarlarida yurtimiz va xalqimizga, azaliy qadriyatlarimizga mehr va sadoqat tuyg'usi beqiyos mahorat bilan tarannum qilingan.



Yuqorida alohida ta'kidlaganimizdek, Abdulla Oripov juda ko'p yosh shoirlar, umuman, yangi avlod ijod ahlining ustozlari ham hisoblanadi. Xalq shoirining shogirdlari uning badiiy mahoratidan

saboq olganlar. O‘zbekistonda Abdulla Oripovning she‘riyat maktabi shakllangan.

Atoqli shoirimiz mohir tarjimon sifatida ham mashhur. U buyuk italyan shoiri Dante Aligerining shoh asari «Ilohiy komediya»ning «Do‘zax» qismini to‘lig‘icha va «A‘rof» qismidan to‘qqiz qo‘shiqni mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘giran. Shuningdek, Abdulla Oripov tomonidan tarjima qilingan Lesya Ukrainaning «Mag‘oralarda» hamda Enyo Xeltayining «Sogov ritsar» she‘riy dramalari, Aleksandr Pushkin, Taras Shevchenko, Rasul Hamzatov, Qaysin Quliyev Egishe Charens, Xarivansh Ray Bachchan, Sergey Baruzdin, Kresti Merilaas,



«Ilohiy komediya» asari haqida shuni alohida ta‘kidlashni istardikki, ana shu buyuk va qadimiy adabiy-falsafiy asarni o‘zbekchalashtirgan atoqli shoirimiz Abdulla Oripov o‘zbek kitobxoni va umuman, madaniyat va san‘atimiz uchun G‘arb adabiyotining o‘ziga xos kashshofi bo‘lib qoldi.

**Akmal SAIDOV,**  
*akademik*



Adhat Sino'g'il, Xalil Rizo kabi shoirlarning she'rlari, Mahsatiy Ganjaviy ruboiylari adabiyotimiz xazinasiga bebaho gavhar bo'lib qo'shilgan.

Abdulla Oripovning dostonlari, she'rlari ko'plab xorij tillariga tarjima qilindi. Jumladan, «Родник», «Ветер Родины», «Любов к жизни», «Жажда весны», «Удивление», «Ветер моего края», «Сохибкиран», «Благословенно прожитое мной» singari sakkizta kitobi Moskva va Toshkentda rus tilida bosilib chiqdi. «Ilhom» tojik tilida, «She'rlar» Urumchida uyg'ur tilida, «Hur o'lkam» majmuasi Istanbulda turk tilida nashr etildi.

Ushbu kitobning avvalgi sahifalarida ayt-dik, Abdulla Oripov yirik jamoat arbobi edi. U 1990-yilda O'zbekiston Oliy Kengashining, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati etib saylandi, 2005–2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zosi bo'ldi. Shuningdek, shoir 1995-yildan 2009-yilgacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi, 2009-yildan hayotining so'nggi damlarigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy raisi sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Abdulla Oripov Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari, Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofoti laureati edi.

Uning ijodi xalqaro miqyosda ham munosib darajada e’tirof etildi. U Kaliforniya (AQSH) Fan, ta’lim, sanoat va san’at xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zosi, Soka universiteti (Yaponiya) professori etib saylangan. O‘zbekiston Xalq shoiri «WIPO Creativity Award» oltin medali, «Italiya yulduzi» xalqaro ordeni bilan taqdirlangan.



Abdulla Oripov sazovor bo‘lgan «Italiya yulduzi» ordeni. «Italiya yulduzi» ordeni – Italiya Respublikasining eng yuksak mukofotlaridan biri bo‘lib, u Italiya tarixini tiklash, uning boy madaniy merosini saqlab qolishga hissa qo‘shgan shaxslarga topshiriladi

Noyob iste'dod sohibi bo'lgan Abdulla Oripov yuksak iste'dodi tufayli betakror she'riyati, dostonlari, boshqa davlat va millatlar adiblarining asarlaridan o'ta mohirona tarzda qilgan tarjimalari, otashin publitsistik maqolalari bilan yoshi, jinsi, maslagi, kasb-koridan qat'i nazar, minglab muxlislarning doimiy e'tiborida va e'zozida ekanligi shubhasizdir.

Abdulla Oripov turmush o'rtog'i Hanifaxon aya bilan besh qiz, bir o'g'ilni voyaga yetkazdi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabrda uzoq davom etgan kasallikdan so'ng AQSHning



Xyuston shahridagi shifoxonada vafot etdi. U Toshkentdagi «Chig‘atoy» qabristoniga dafn qilingan.

O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ustoz shoir Abdulla Oripov xotirasiga quyidagi qasidani bitgan:

### **SHOIR VAFOTIGA**

Bu yil og‘ir keldi O‘zbekistonga,  
Sadafdek durlarim to‘kildi qator.  
Chig‘atoytepaga shudringdek tomgan,  
Hali qurimagan ko‘zyoshlarim bor...

Alvido, muhtaram Abdulla Orif!  
Garchi ajal bermas hech kimga omon.  
Vale shoirsiz el g‘aribdan g‘arib,  
Shoirda tosh otgan millat – olomon.

G‘iybat qilib to‘kdik gunohingizni,  
Sizdan qolgan maydan mayda ho‘plashib.  
Muhtasham hayotdan bezdirdik Sizni,  
Goh yakka tartibda, ba‘zan ko‘plashib.

Kimdir qayta-qayta topar asolar,  
Uni kosov qilar boshqa g‘o‘r banda.  
Ha, kazo-kazolar va hokazolar  
Hushyor tortar edi Sizni ko‘rganda.





Siz bilan yuzma-yuz qolsak nogahon,  
Yodga solardingiz kimligimizni.  
Kecha ne sababdan edigu biyron,  
Bugun ne sababdan jimligimizni.

Rost so'zni aytmoqlik mushkulligi rost,  
Go'zal oh tortmoqqa yurak kerak, oh!  
Tafakkur shiddati Navoiyga xos,  
Temurbekka oid bu qattiq nigoh.

Bol tomizib maqtab asarlarini,  
Shoirni bundayroq ko'rguvchilar bor.  
Tutun purkab haydab asalarini,  
Asalni o'ymoqlab urguvchilar bor...

Oqibatni o'ylab chekdingiz alam,  
Gina, o'kinchingiz beg'araz tamom.  
Maqsadingiz – zavol topmasin olam,  
Odamga yarashsin inson degan nom.

Sizga oshno bo'ldim bolalik kezdan,  
Sizdan ranglar oldim so'zimga ayon.  
El qatori qarzdor edim men Sizdan,  
O'zimning armonim o'zimga ayon...

Bahri muhit to'lqin urar yolvorib,  
Yulduzlar yo'l qarar javdirab ilhaq.  
Mendan rozi bo'ling, Abdulla Orif,  
Sizdan rozi bo'lsin Hokimi mutlaq!



Xalqimiz qadim-qadimdan shoirtabiat ekani hammaga ma'lum. Biz to'y qilsak, quvonchimizni she'rga solib «yor-yor» aytamiz. Hatto boshga musibat tushgan paytlarda ham azamiz – hasratlarimiz qofiyalanib, she'rga aylantirilib bo'zlaymiz.

Faqat unvoniga ko'ra emas, haqiqatan ham butun vatandoshlarimiz suygan, ardog'ida bo'lgan Xalq shoiri Abdulla Oripov o'lmas satrlari bilan qalbimizda mangu saqlanib qolishi shubhasiz. Vatanimiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Abdulla Oripovning el-yurt oldidagi xizmatlarini hisobga olib, uning nomini abadiylashtirish masalasiga juda katta e'tibor qaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida»gi 2017-yil 17-aprelda qabul qilingan qaroriga muvofiq, mazkur bog‘da milliy adabiyotimizning bir guruh atoqli namoyandalari qatori Abdulla Oripov haykali ham o‘rnatildi. Vazirlar Mahkamasining «Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib





**Shavkat Mirziyoyev: – Abdulla Oripovdek buyuk shoirga munosib farzandlar bo‘lib kamol topish uchun ko‘p kitob o‘qish va Vatanni sevish kerak!**

o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatni tashkil etish to‘g‘risida»gi 2017-yil 24-mayda qabul qilingan qaroriga binoan Qarshi shahrida maktab-internat va muzey barpo etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 29-yanvarda Qarshi shahridagi mazkur maktab va muzey bilan tanishib, ularni yanada boyitish, mazmunli qilish bo‘yicha tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berdi.















## DANTE – UYG‘ONISH DAVRINING BIRINCHI SHOIRI

Aziz o‘quvchi, buyuk italyan shoiri Dante Alegeri ijodini o‘rganish, uning shoh asari – «Ilohiy komediya»ni o‘zbek tiliga tarjima qilish Abdulla Oripov hayoti va ijodining ajralmas bir qismiga aylanib ketgani sizga yaxshi ma’lum. Shuning uchun jahon adabiyotining bu buyuk namoyandasi, uning ijodi haqida, uni voyaga yetkazgan Italiya diyori va Italiya xalqida alohida to‘xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Balki kim uchundir bu mavzudan uzoqlashishdek bo‘lib tuyular. Lekin bizning nazarimizda, aksincha, Dante haqida qancha ko‘p bilsak, Abdulla Oripov olamiga shuncha yaqin va chuqur kirib boramiz.

Shunday ekan, ke-  
ling, aziz o'quvchi,  
mavzuning uzoq-ya-  
qinligi haqidagi be-  
huda bahslarni bir  
chetga surib, suh-  
batni davom ettiray-  
lik.

Abdulla Oripov:  
«Ulug' italyan shoiri  
va mutafakkiri Dante  
Aligeri insoniyatning  
eng muhtaram far-  
zandlaridan biri bo'-  
lib, u zot olti yuz yil-

lar muqaddam Uyg'onish davrini boshlab bergan  
daho ijodkordir»<sup>1</sup>, deb ta'kidlagan edi.

Dante (asl ismi Durante) Aligeri (italyan-  
cha: Dante Alighiyeri) Florensiyada 1265-yil  
may oyining ikkinchi yarmida kambag'al-  
lashib qolgan aslzoda oilasida dunyoga kelgan.  
Aligeri oilasi Florensiya shahriga asos solishga



Dante Aligeri

<sup>1</sup> *Abdulla Oripov. Bashariyat farzandi / Saidov A.X. Dante – yurist. – T.: Adolat, 2011. – 3-b.*

va uning qurilishiga katta hissa qo‘shgan ko‘hna rimliklarning elizeylar sulolasidan kelib chiqqan.

Dante o‘zining «Ilohiy komediya»si sahifalarida bobosining otasi arvohi bilan uchrashgan sahifalarida tilga olgan yagona ajdodi – Kachchagvida ular to‘g‘risida «sukut saqlash» kifoyaligini bildiradi. Kachchagvida jasur jangchi bo‘lgan, Imperator Konrad III ni harbiy yurishlari paytida kuzatib borgan, ritsarlik unvonini olib, jangda halok bo‘lgan.

Dantening bobosi Bellinchione Florensiya-dagi siyosiy kurashda faol ishtirok etgan. U Imperatorga qarshi, biroq Rim Papasining tarafdori bo‘lgan, ko‘p marta Florensiyadan quvilgan.

Taniqli italyan yozuvchisi va shoiri, Dante va Petrarka bilan birga butun Yevropa madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan, mashhur «Dekameron» asarining muallifi Jovanni Bokachcho (1313–1375) Danteni quyidagicha ta’riflagan:

«Shoirimiz o‘rta bo‘ylidan ham pakanaroq bo‘lib, buning ustiga ulg‘ayganidan keyin bukchaya boshlagan, lekin shoshilmay ravon yurar, yoshiga mos holda juda kamtarona kiyingan. Afti uzunchoq va bug‘doyrang, burni burgutnikidek, ko‘zlari anchayin katta, jag‘lari

yirik, pastki labi cho‘zilgan, qora sochi soqoli kabi jingalak, ko‘rinishi doimo o‘ychan va qayg‘uli bo‘lgan. Uyida ham, odamlar orasida ham ajablanarli darajada vazminligi va sipoligi, juda jo‘yaligi va nazokatligi bilan ajralib turgan.

Bundan tashqari, Dante aslo taqqoslab bo‘lmaydigan qobiliyatga, favqulodda xotira va mulohaza yurgizishda o‘tkirlikka ega bo‘lgan. Shuning uchun Parijda munozaralar paytida bunday – munozaralar dinshunoslik fakul-tetida vaqti-vaqti bilan uyushtirilib turardi – shoir juda ko‘pchilik olimlarga bir o‘zi qarshi turib, turli masalalar bo‘yicha o‘z fikrini himoya qilayotganida muxolifatchilarning barcha mulohazalarini eshitadi, so‘ng ular e‘tirozlarining hammasini, biror marta chalkashmasdan, birma-bir takrorlaydi va xuddi shu tartibda nihoyatda asoslangan holda, ularni birma-bir chilparchin qiladi. Munozaralarda ishtirok etganlar buni haqiqiy mo‘jiza sifatida xotirlab yurishgan»<sup>1</sup>.

Dante dunyoga kelgan Florensiyani daholar shahri deyish mumkin. 1304-yilda ushbu shaharda yana bir buyuk italyan shoiri Franchesko Petrarka tavallud topgan.

<sup>1</sup> *Bokkachcho D. Jizn Dante.* – M.: Eksmo, 2006. – 576 s.



Italiyalik mashhur haykaltarosh, rassom va me'mor Mikelanjelo Buonarrotoning vatani ham Florensiyadir. Uning «David», «Baxus», «Peta», «Musso» kabi haykallari Mikelanjelo hayotligi paytidayoq Uyg'onish davri san'atining eng yuksak cho'qqisi sifatida baholangan. Uning yana bir asari – «Sikstin kapellasi» bezaklari haqida buyuk Gyote bunday degan edi: «Sikstin kapellasini ko'rmasdan, bir odam nimaga qodirligi to'g'risida yaqqol tasavvur hosil qilish amrimahol».

Mana, bir necha asrlardan beri dunyoning hamma burchaklaridan muntazam kelib turgan sayyohlar birinchi navbatda Parijdagi Luvr muzeyining eng qimmatbaho eksponati – «Mona Liza» («Jokonda») rasmini asliyatida o'z ko'zlari bilan ko'rib, zavqlanishga oshiqadi. Uning muallifi ham florensiyalik Leonardo da Vinchidir.

Aligerining «Durante» ismi italyanchadan tarjima qilinganida «sabotli», «chidamli» ma'nosini anglatadi. Dante Aligerining butun hayoti uning taqdiri ismiga monandligidan dalolat beradi. U olti yoshligida onasidan ajralgan. Bolalik paytida amakisi Jeri del Bello florensiyalik fuqaroni o'ldirib, biroz muddatdan keyin o'g'li

ham xoinlik oqibatida dahshatli tarzda halok bo'lgan. O'sha vaqtdagi «jonga-jon» qoidasiga ko'ra oilada eng katta farzand bo'lgan otasi amakisining qotilidan o'ch olishi kerak bo'lgan. Ammo otasi bunga jur'at eta olmagan uchun butun oila isnodga qolgan. Dante shuning uchun birorta asarida otasi haqida bir og'iz ham so'z ochmagan.

1277-yilda Aligerining otasi o'g'lining kelajagi to'g'risida g'amxo'rlik qilish payti keldi, deb hisoblagan va uning nikohini hal qilishga kirishgan. O'sha vaqtlarda farzandlarni juda yoshlik paytidayoq nikohdan o'tkazish hamda nikoh shartnomasiga o'xshash hujjatni rasmiylashtirish odatiy hol hisoblangan.

Dantega unashtirilgan qiz – Jemma di Monetto Donati florensiyalik juda nufuzli aristokratlar oilasidan bo'lgan. Uzoq vaqt davomida ikki yoshning to'yi Beatriche vafotidan keyinoq, 1295-yilda bo'lgan deb hisoblab kelingan. Bu oilada uch o'g'il – Petro, Yakopo va Ioann hamda qizi Antonio dunyoga kelgan. Shuni aytish kerakki, Jemma nomi yoki unga bag'ishlangan satrlarni Dante asarlarida uchratmaysiz. Uning Jemma bilan munosabatlari asrlar pardasi bilan

to'silgan. Shoir biron marta tug'ilgan uyi va yaqinlarini yodga olmagan, asarlarida rafiqasi Jemma Donati, o'g'li va qizlari to'g'risida biror narsa demagan.

Dante butun umri va ijodini mahjubasi Beatrichega bag'ishlagan. Shoirning ta'rificha, go'zallikda tanho, maloyikalardan-da loabar Beatrice boy-badavlat va o'ta nufuzli Folko Portinarining qizi edi. Dante ilk bor uni ko'rganida qizaloq 8 yoshda bo'lgan. Keyinchalik Beatrice florensiyalik katta sarmoyadorlar oilasidan hisoblangan Simoni de Bardiga turmushga chiqqan. Ammo Beatrice 1290-yil iyunida – atigi 24 yoshida vafot etgan.

Dante qaysi ta'lim muassasida o'qigani noma'lum, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u diniy maktabda tahsil olgan. O'sha davrda Florensiyada bolalar faqat boshlang'ich ta'lim oladigan maktablar bo'lgan. Dante maktabda grammatika va ritorikani o'rgangan. Bu O'rta asrlarda bitilgan lotincha matnlarni erkin o'qiy olish imkonini berishi ma'nosini bildirgan.

Bundan tashqari, Dante tarix, din, mantiq, musiqa, jug'rofiya, astronomiya va boshqa tabiiy fanlardan muayyan darajada xabardor bo'lgan. Lekin maktabda asosiy fan din ta'li-

moti hisoblangan. Dinshunos o'qituvchilar nafaqat Injilni, balki Platon, Aristotel, Vergiliy, Ovidiy, Statsiy asarlarini ham yaxshi bilishgan. Ular o'quvchilarni mushohada yuritishdan ham ko'proq raso fikrlashga mohirlik bilan o'rgatganlar.

Dantening Bolonya universitetida o'qigani, ammo onasidan keyin 1283-yilda otasi vafot etgach, oilasini boqish uchun (uning Franchesko ismli tutishgan ukasi va ikki singlisi bo'lgan) o'qishini tashlab ketishga majbur bo'lgan deyishadi. Shunga qaramasdan u umr bo'yi falsafa, axloq, ilohiyot, tarix, mantiq va turli xalqlar adabiyotini mustaqil ravishda o'rgangan. Dante zamonasining eng bilimdon kishilaridan biri hisoblangan.

Dantening birinchi ustози o'sha vaqtda taniqli shoir va olim, qomusiy bilimlar sohibi, Sitseron, Seneka, Aristotel ta'limotini mukammal egallagan mashhur siyosiy arbob Brunetto Latini edi. Shoir o'zining «Ilohiy komediya»sining «Do'zax» qismidagi o'n beshinchi qo'shiqda ustози Brunetto Latini bilan qurgan suhbatini keltirgan:





Brunetto Latini (1220 – 1294)

Endi ayon bo'ldi mavhum turgan zot:  
Jizg'anak bandaga kelib yaqinroq,  
Dedim: «Ser Brunetto, sizmisiz, nahot?»

U dedi: «Af-u et meni, bo'taloq,  
Balki boshqalarni bir zum etib tark,  
Xohlasang, lotincha dars o'tsak ozroq».

Dante ayni paytda olim va shoir, Fransiyaning nazmda bitilgan «Xazinalar kitobi» qomusi va

ko'pgina italyanacha asarlar muallifi Brunetto Latini ustozligida Vergiliy, Ovidiy, Yuvenal kabi daho adiblarning asarlarini qunt bilan o'zlashtirgan. Unda she'riyatga qiziqish ham juda erta uyg'ongan. O'sha vaqtlarda Italiyada nashr etiladigan asarlar provansal va fransuz tillarida bitilgan. Dante provansal she'rlarini, asosan lirik asarlarni tinmay mutolaa qilgan. Provansal she'riyatining barcha mashhur namoyandalari – Arno Daniel, Bertran de Born, Geraut de Bornel va ko'plab boshqa shoirlar uning uchun qadrdon bo'lib qolgan.

Dante bir yo'la Sitsiliya maktabi vakillarining ijodi, italyan lirikasining dastlabki namunalari, shuningdek, florensiyalik birinchi shoirlar asarlari bilan tanishgan. Uning yoshligi do'sti Gvido Kavalkanti rahbarlik qilgan «Yangi totli uslub» («Doice stil nuovo») she'riyat maktabi ishtirokchilari doirasida o'tgan.

Dante Florensiyaning siyosiy hayotida faolligi bilan tez orada tanilgan, jangovar harakatlarda ishtirok etgan, diplomatik topshiriqlarni bajargan. Ko'p o'tmay, u faol a'zosi bo'lgan partiya hokimiyat tepasiga kelganidan keyin, moliya boshqarmasini boshqargan, keyin Flo-

rensiyaning davlat rahbarlaridan biri (prior) bo'lib saylangan. Ammo uning siyosiy partiyasi mag'lubiyatga uchrab, hokimiyat tepasiga muxolifatchilar kelgandan so'ng Dante Florensiyadan quvg'in qilingan va qolgan umri darbadarlikda o'tgan.

Buyuk shoirning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. U surgun qilingan dastlabki paytda Dantening Verona shahri hukmdori Bartolomeo della Skala panohida qo'nim topgani aytiladi. Shundan so'ng u Italiyaning Bolonya, Lunijyane va Kazentino shaharlarida yashagan, 1308-1309-yillarda esa Parijga kelib qolgan. Bu shaharda Dante o'sha paytda universitetlarda muntazam o'tkazib turiladigan turli ommaviy bahs-munozaralarda otashin nutqlar so'zlagan.

Bevosita Parijda ekanida Dante imperator Genrix VII Italiyaga «tinchlik yurishi» bilan yo'l olgani to'g'risida xabarni eshitgan. Genrix VII 1308-yil 27-noyabrida Muqaddas Rim imperiyasi imperatori bo'lgan edi. 1310-yilda u Italiyaga «hammani yarashtirish» maqsadida qo'shin tortib kirgan va «muxolifatchilarni bir-biridan

ajratmayman va hammani o'z homiyligim ostiga olaman», deb e'lon qilgan.

Quvg'inga uchragan minglab italiyaliklar, jumladan, Dante ham imperatorni qarshi olishga intilgan. Ko'pgina shaharlar – Milan, Genuya, Piza Imperatorga o'z darvozalarini ochib bergan, lekin markaziy Italiyadagi «Gvelf ligasi» Genrix VII ni tan olishni xohlamay, unga qarshi kurashga Florensiya boshchilik qilgan.

«Rimliklar qirol» Genrix VII Alp tog'laridan o'tib, Italiya ichkarisi tomon yurishini davom ettirar ekan, Dante boshqa yuzlab quvg'inlar bilan birga Tangridan u tezroq Florensiyani qo'lga kiritishini, uni badarg'a qilgan «Qora gvelflar» hokimiyatini ag'darib, o'zlarini vatanlariga qaytishlari uchun imkoniyat yaratishini iltijo etgan. Imperator Genrix VII o'ziga fuqarolik huquqlarini qaytarishiga umid qilgan.

Ammo imperator 1313-yilda to'satdan vafot etgan. Oqibatda qirol Robertning Florensiyadagi noibi Raneri di Zakkariya Dante hamda uning o'g'illari surgun qilingani to'g'risidagi ilgarigi qaror kuchda qolishini tasdiqlagan hamda agar ular qo'lga tushsa, qatl etilishlarini e'lon qilgan.



1315-yilga kelib Florensiya ma'murlari uning shahar shuhratiga shuhrat qo'shishi mumkinligini tushunib yetgan va agar Dante o'zini siyosiy jinoyatchi deb tan olib, Florensiya fuqarolari oldida tiz cho'kib tavba qilsa, shaharga qaytib kelishi mumkinligini bildirishgan. Bunga javoban Dante: «Axir, men quyosh va yulduzlarga Yerning xohlagan joyidan boqa olmaymanmi? Axir, men xohlagan joyimda buyuk masalalar xususida mushohada yurita olmaymanmi? Shunday ekan, mening Florensiya xalqi oldida sharmandali va pastkash jazolanishga ko'nishimga ne hojat bor?» degan.

Dante 1316-yilda Rovenna hukmdori Gvido da Polenta taklifiga ko'ra mazkur shaharga kelgan. 1321-yilda ana shu hukmdorning elchisi sifatida Venetsiyaga Muqaddas Mark Respublikasi bilan sulh tuzish uchun yo'l olgan. Ammo u Venetsiyadan qaytayotganida bezgak kasalligiga chalinib, 1321-yil 13-sentabrdan 14-sentyabrga o'tar kechasi Ravennada vafot etgan va shu yerda dafn qilingan.

Dante Aligeri vafotidan so'ng yarim asr o'tgach, butun Italiya uni ilohiy shoir deb atay boshlagan. Florensiya ma'murlari ko'p marta Ravennadan uning jasadini tug'ilgan shahriga berishni so'raganlar. Biroq Ravenna hamma

vaqt bunga rad javobini bergan. Buni Dante o'zini darbadar qilgan Florensiyaga murda sifatida ham qaytib borishni xohlamagan, deb izohlaganlar. Shunga qaramasdan, Florensiyada Santa-Karcho bosh cherkovida Dantega hashamatli dahma o'rnatilgan.

Umuman, Dante Aligeri jasadi bilan bog'liq voqealar sarguzasht asari uchun mavzu bo'lishi mumkin.

Shoir Ravennadagi San Franchesko cherkovida dafn qilingan. Butun umri davomida shoirning homiysi Gvido Novello da Polenta Dante uchun hashamatli maqbara barpo etish rejasini tuzgan, biroq u shaharda hokimiyatni qo'ldan boy bergach, ushbu loyihasini amalga oshira olmagan. 1483-yilda Ravenna boshlig'i Bernardo



Florensiyaning  
Santa-Krocho maydonida  
Dantega o'rnatilgan haykal

Bembo buyurtmasi bo'yicha haykaltarosh Petro Lombardi shoir suratini chizgan. Ushbu surat hozirgacha saqlanib qolgan.



Dantening Ravennadagi qabri

1519-yilda mashhur Mikelanjelo iltimosiga binoan, o'sha paytdagi Rim Papasi Lev X Dante jasadini Florensiyaga olib kelishga rozilik bergan. Ammo shoirning tobuti ushbu shaharga olib kelinganida, uning ichida hech narsa yo'qligi aniqlangan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Ravennadagi fransuzlarning monastiri rohiblari Dante jasadi Florensiyaga olib ketilmasligi uchun uning jasadini o'g'irlashib, o'z monastirlari ostida chuqur qazib, o'sha yerga

yashirib qo‘ygan ekanlar. Rohiblar 1677-yilda Dantening jasadini yashirib qo‘ygan chuqurdan olib, yog‘ochdan yasalgan maqbaraga qo‘yganlar. O‘sha paytda monastir boshlig‘i bo‘lgan Antonio Santi Dantening yog‘och maqbarasiga unga bag‘ishlangan marsiyani o‘yib yozdirgan.

1780-yilda Rim Papasining diplomatik vakili (legati) Valenti-Gonzaga Dantening sobiq tosh qabri o‘rnida klassik uslubda tosh maqbara barpo etishni buyurgan. 1810-yilda Fransiya Imperatori Napoleon Rimni zabt etgach, Ravennadagi monastir tarqatib yuborilgan, rohiblar esa shoirning yog‘och maqbarasini yana monastirga yashirib qo‘yganlar.

Ushbu yog‘och maqbara 1865-yilda monastirda ta‘mirlash ishlari boshlanganida topilgan. U Danteniki ekani Antonio Santining yog‘och maqbarasiga bitilgan marsiyasidan aniqlangan. Natijada shoirning jasadi o‘sha tosh maqbaraga joylashtirilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Dantening jasadi yana tosh maqbaradan olingan, chunki o‘sha paytda Ravenna bombardimon qilinayotgan edi. Fransiyaliklarning rohiblari o‘sha vaqtda Dante jasadini yashirgan joyda hozir xotira lavhasi qo‘yilgan.



Shoir tosh maqbarasining chap tomonidagi zinapoya 1921-yilda ochilgan Dante muzeyiga (italyancha: Museo Dantesco) olib chiqadi. Muzeyga kiraverishda Italiya shaharlarining sovgʻasi – xotira jomi oʻrnatilgan. Ushbu muzeyda Dantega oʻrnatilgan haykallar, byustlarning maketlari, suratlar, xotira gulchambarlari, yorliqlar, shuningdek, 1677-yilda Antonio Santi tomonidan yasattirilgan yogʻoch maqbara hamda shisha qutida 1865-yilda shoirning tekshirilib, aniqlangan jasadi suyaklari saqlanmoqda.



«Museo Dantesco» kutubxonasi



## «ILOHIY KOMEDIYA» – INSONPARVARLIK MADHIYASI

Yuqorida bir necha bor qayd etilganidek, Dante Aligeri nomini abadiyatga muhrlagan shoh asari – «Ilohiy komediya»dir. Buyuk shoirning o‘zi ushbu asari to‘g‘risida «Mening vazifam – insonni baxtsizlik holatidan olib chiqish va uni baxtiyorlik holatiga yetaklab borishdir», degan. U «Ilohiy komediya» ustida butun umri davomida ish olib borgan va aftidan, vafotidan biroz ilgarigina tugallagan.

Dantening «Ilohiy komediya» epik poemasi oxirgi ming yil ichida G‘arbda yaratilgan eng sara o‘nta kitobning birinchisi sifatida e‘tirof etilgan.

Italiyalik ulug' shoirning ushbu asarining nomlanishi ham o'z tarixiga ega. Muallifning o'zi uni «Komediya» deb atagan. O'rta asr adabiyoti an'analariga muvofiq, muqaddimasi baxt-saodat bilan boshlanib, qayg'u-hasrat bilan tugaydigan har qanday asar «tragediya» deb atalgan. «Komediya» deb nomlanadigan asar esa qayg'u-hasrat bilan boshlanib, quvonch bilan tugagan.



Eng yetuk va mazmunli, O'rta asrlar xristian katoliklarining haqiqiy badiiy eposi – bu «Ilohiya komediya»dir.

**G.Gegel**

Asarning «Ilohiy komediya» deb nomlanishi butun dunyoga «Dekameron» asari orqali mashhur bo'lgan Jovanni Bokachcho bilan bog'liq. U Dante vafotidan so'ng shoirning ushbu asarini o'qib, nihoyatda ta'sirlangani va ruhlanganidan mazkur nomni berishni taklif qilgan ekan. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, asarning «Ilohiy komediya» deb nomlanishi faqat XVI asrdagina paydo bo'lib, mutlaqo diniy mazmuni emas, balki badiiy mukammallikni ifoda etgan.

Dante o'z homiysi Della Sakalaga yozgan maktubida «Ilohiy komediya» to'rt ma'noni anglatishini bayon qilgan:

1. Aynan ma'nosi – insonlarning narigi dunyodagi taqdiri.

2. Majoziy ma'nosi – Yer yuzidagi qilmishlari yoki ezgu ishlari uchun narigi dunyoda shunga yarasha jazo olishi yoki rohat topishi.

3. Axloqiy ma'nosi – insonni gunoh ishlardan qaytarish va ezgulikka da'vat etish.

4. Yashirin ma'nosi – o'zining Beatrichega bo'lgan muhabbati mazkur asarini yaratishga ilhomlantirganini ma'juziy ma'noda bayon etish:

O, siz Ilohalar, beringiz madad,  
 Tamg'ai dahongni, o sen, tafakkur,  
 Mening bayonimda zohir et minba'd.

Dedim, rahbonimga aylar tahayur:  
 «Benazir bir ishga chorlading, qaydam,  
 Qurbim yetarmikan, yetmam tasavvur».

Ma'lumki, narigi dunyo haqidagi dastlabki tasavvur zardushtiylikda mavjud bo'lgan. Zardushtiyalar narigi dunyo jannat, a'rof va do'zaxdan iborat, vafot etgan insonlar hayotliklaridagi qilmishlariga binoan marhamat



yoki jazo topadilar degan aqidani yaratganlar va o'sha narigi dunyoning uchala qismi tafsilotlari og'izdan og'izga o'tib yurgan. Ammo jannat, a'rof, do'zax qanday qurilgan, kimlar qaysi qismga borishga hukm qilinishi, qanday gunohlar uchun qanaqa jazo olinishi, a'rof, jannatga kimlar kirishi, jannat rohati qanday ekani Dantegacha mavhum bo'lgan.

Buyuk italyan shoirining o'ta boy xayoloti narigi dunyoni shunchalik aniq tasvirlab berganki, jahon adabiyotining biror namunasi, hatto Sharq afsonalari, antik dunyo rivoyatlari ham unga teng kelolmaydi, deyish mumkin.

«Ilohiy komediya» asari o'sha O'rta asrlar davriga xos bo'lgan an'anaviy shaklga egadir. U uchta katta qismga («kantik»larga) bo'linib, diniy ta'limotlarda ta'riflanadigandek, narigi dunyodagi uch olam – Do'zax, A'rof va Jannatni tasvirlaydi.

Asarning qurilishi juda murakkab. Bu Dantening raqamlardan ramzlar sifatida foydalangani bilan izohlanadi. «Ilohiy komediya» yuzta qo'shiqdan iborat uchta dostonni o'z ichiga qamrab oladi. Birinchi dostonda 34 ta, ikkinchi va uchinchi dostonlar tarkibida esa 33 tadan

qo'shiqlar mavjud. Bunda birinchi qo'shiqqa yana bitta, dastlabkisi qo'shib, u ana shu qism uchun o'ziga xos muqaddima vazifasini o'taydi. Ya'ni, har bir kantikning umumiy soni 100 ta.

Qo'shiqlarning har bir bandi uch satrdan iborat va bu uchliklar ham o'zaro qofiyalanib, ham mazmunan zanjirdek bog'lanib kelaveradi. Bu tartib qo'shiqning boshidan oxirigacha davom etadi. Narigi dunyoning bo'linishi «Ilohiy komediya» misralarida ham hisobga olingan (ular uch bandli – tersinlardir).

Uch marotaba uch to'qqiz, ya'ni to'qqiz qavat osmon. Shoir mahbubasi Beatrichening vafotini ham muqaddas «9» raqami bilan bog'laganini aytish kerak. Dante bu raqamni ramz qilib olish uchun Sharq xalqlari yilnomasiga murojaat etgan.

Dante asarida ramzlarga nihoyatda sinchkovlik bilan munosabatda bo'lgan. Yana shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, har bir kantik yagona so'z – «yulduzlar» («stelle») bilan tugaydi.

Muallif tasvirlagan Do'zax Yer markaziga yuqoridan pastga torayib boradigan shakldagi to'qqiz pog'onali chuqurlik bo'lib, gunohkorlar qilmishiga yarasha jazoni oladi. Bunda chuqurlikning pastroq pog'onasiga tushilgani

sari, do‘zaxga mahkum bo‘lganlarning joni qattiqroq azoblanadi. Muallif o‘zining siyosiy muxolifatlarini do‘zaxning so‘nggi pog‘onalariga joylashtirishi ham e‘tiborlidir.

Do‘zaxning yo‘lagida kechirgan hayoti tutundan ham tez tarqalib ketadigan, jamiyat uchun foydasiz hisoblanganlar yotgan bo‘ladi. Ular hatto do‘zaxga ham nomunosibdir. Do‘zaxning ikkinchi qavatida – shahvat lazzatiga berilganlar, uchinchisida – yebto‘ymas mechkaylar, to‘rtinchisida – xasislar, beshinchisida – g‘azabnoklar va qotillar, oltinchisida – yo‘ldan ozganlar, yettinchisida qo‘shmachilar va xushomadgo‘ylar, sakkizinchida – o‘g‘rilar va nihoyat, to‘qqizinchisida – eng ashaddiy jinoyatchilar, xoinlik qilganlar qattiq azob chekib yotadi.

Dante «Ilohiy komediya»sini kunlardan birida qorong‘u o‘rmonda adashib qolganidan boshlaydi:

Yerdagi umrimning yarmini yurib,  
Zulmat vodiysida adashib qoldim.  
Boqsam, bir o‘rmonga ketibman kirib.

Shoir bu joydan amallab chiqib oladi va yuksak tepalikka ko‘tarila boshlaydi. Ammo

uning yo'lini qoplon, arslon va qashqir to'sib,  
qaytadan o'rmonga chekintira boshlaydi:

Baland tog' bag'rida qiya qoyadan  
Tushib keldi nogoh bir qoplon chaqqon,  
Tanasi palakdek xol-xol g'oyatan...

Endi cho'chimasdim maxluqdan, ammo  
Shu choq paydo bo'ldi yoldor bir arslon,  
Qalbdagi taskin ham so'ndi mutlaqo...

Qoq suyuk qashqir ham tishi shaqillab,  
U bilan baqamti solardi dahshat,  
Kelardi jahldor maxluq yaqinlab.

Shoirning yo'lini to'sgan uch yirtqich majoziy ma'noga ega: ya'ni, qoplon – soxtakorlik va sotqinlikni, inson qiyofasida – katta boylarni; arslon – mag'rurlik va zo'ravonlikni, shuningdek, zulmkorlikni; qashqir esa – ochko'zlik va takabburlikni, ayni paytda cherkovning dunyoviy hukmronligini ham anglatadi.

«Ilohiy komediya»ning majoziyliги faqat bular bilan chegaralanmagan. Shoirning o'rmonda adashishi gunoh ishlari borligidan, uch yirtqich – odamlarning Yer yuzida qilgan gunohlaridan ramziy dalolatdir.



«Do‘zax»ning to‘rtinchi qo‘shig‘ida shoir insoniyat tamadduniga buyuk hissa qo‘shgan mutafakkirlarning ulug‘ namoyandalari bilan yuz ko‘rishtiradi:

Ko‘zimni uzoqqa yugurtdim shunda:  
Hisobdon Evklid, Batlimus, Galen,  
Gippokrat, Ibn Sino, Ibn Rushd paydo –  
Yangi g‘oyalarni targ‘ib etgan chin.



Abu Ali ibn Sino

Abu Ali ibn Sino nomining «Ilohiy kome-diya» asarida dunyo donishmandlari qatorida tilga olinishi bejiz emas. Avvalo, Dante uni, orada ming yillik masofa yotsa-da, maslak va dunyoqarashda Arastu hamda Aflotunning sobitqadam izdoshi deb biladi. Bu

davrda Abu Ali ibn Sinoning obro‘si Yevropada Aristotelnikidan kam emasdi. Shoir buyuk tabibni «yangi kun g‘oyalarni targ‘ib etuvchi» sifatida ulug‘laydi, uni o‘zining birinchi darajali ustozlari qatoriga qo‘shib, buyuk aql egalari

ishtirokidagi tafakkur bazmi to'ridan joy ajratgan.

Dante oliy insoniy xususiyatlar, ayniqsa, saxiylik, oliyjanoblik haqida fikr yuritganida ham Abu Ali ibn Sino fikrlariga tayangani ma'lum. «Birinchidan, – deb yozgan edi u, – inson ruh va tanadan iborat; saxiylik ruh bilan bog'liq. To'g'ri, bu haqda turli faylasuflar, turli fikrlarni bayon qiladi. Abu Ali ibn Sino va G'azzoliy ruhlar dastlab yaratishdan fazilatli yoki qabih bo'ladi, deb ta'kidlagan».

Vergiliy Dantening asarida farishta vazifasini ijro etadi. U shoirga qalbini qutqarish yo'lini ko'rsatib, Do'zax va yetti bosqichdan iborat A'rofdan o'tkazadi. Gunohi u qadar og'ir bo'lmagan jonlar shu bosqichlarda tozalanib o'tib, to'g'ri Jannatga kiradi. Ular Jannat eshigiga yetganlarida Vergiliy ko'zdan g'oyib bo'ladi (u xristian bo'lmagani uchun jannatga kirolmas edi) va darhol paydo bo'lgan Beatriche Danteni ichkariga olib kirib ketadi.

Dantening tasvirlashicha, A'rof Yer kurrasiga qarama-qarshi joylashgan. Yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o'rtasidagi orolda baland tog' bor. Tog' yetti pog'onali bo'lib,

ulardan o'tib borayotganida aybdorning bittadan gunohi yuviladi, yetti pog'onadan ko'tarilganida yetti gunoh (mag'rurlik, ichi qoralik, g'azab, umidsizlanish, tamagirlik, mechkaylik, buzg'unchilik) yo'qoladi va jannatga chiqadi. Jannat ham to'qqiz qavatga bo'linadi, bu yerga tushishga muyassar bo'lganlar qancha yuqori pog'onaga ko'tarilsa, Tangrining shuncha ko'p marhamatiga muyassar bo'ladi.

Beatriche majoz orqali muallif samoviy mukofotga sazovor bo'lish uchun zamindagi donolik yetarli emasligini, Beatriche ramzidagi samoviy donolikka ega bo'lish kerakligini uqtiradi. Beatriche Dante bilan samoda sayr qilar ekan, uni yerdagi gunohlarini yuvishiga imkoniyat yaratadi va ezgulik sari yetaklaydi.

«Ilohiy komediya»da odamlarning ruhi vafot etganidan so'ng qayerga tushishi ularning hayotlik paytidagi fe'l-atvori, qilmishlariga bog'liqligi majoziy ma'noda ifodalangan. Ya'ni, taqvodorlar Jannatga, Tangri yoniga, «abadiyat»ga, gunohkorlar esa – Do'zaxga ravona bo'ladi. Ammo buni Tangri ham, shayton ham hal qilmaydi. Gunohkorlar o'zlarini o'zlari do'zaxga mahkum etadilar. Ularning poklanishga va hayotni yangidan boshlashga umidvor ruhlari esa A'rofdan

bo'ladi. Shu ma'noda Dantening bu shoh asari – inson illatlari ustidan o'ziga xos adolatli sud. Bu bilan shoir odamlarni hayotligi vaqtida halol yashashga, o'z ma'naviyati va axloqiga ko'proq e'tibor berishga da'vat etadi.

«Ilohiy komediya» O'rta asrlar madaniyatini mujassam etgan holda yangi Uyg'onish davrining insonparvarlik madhiyasidek jaranglaydi.

Buyuk italyan shoiri va uning shoh asarini butun ma'rifiy dunyo biladi va yuksak qadrlaydi. Mana 700 yildan ko'proq vaqtdan beri kurrayi zaminimizning hamma burchaklarida asliyatda va o'z ona tillarida «Ilohiy komediya»ni o'qishadi, tarjima qilishadi va o'rganishadi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning yuksak iste'dodi va adabiy jasorati tufayli o'zbek kitobxonlari ham Dantening «Ilohiy komediya»sini asliyatidan aslo qolishmagan holda ona tilida o'qish baxtiga muyassar bo'ldi.

Nihoyatda murakkab tuzilmaga ega, O'rta asr atamalari bisyor bo'lgan «Ilohiy komediya»ni boshqa tillarga tarjima qilish nihoyatda mashaqqatli ekani o'z-o'zidan yaxshi ma'lum. Abdulla Oripovning aytishicha, uning Dante



shoh asarini tarjima qilayotganidan xabar topgan italiyalik adabiyotshunoslar «Ilohiy komediya»ni o'zbekchalashtirish uchun ona tilimiz ojizlik qilib qolmasmikan, degan savolni berishgan. Bunga javoban buyuk o'zbek shoiri «shamol»ning o'zbek tilidagi sinonimlarini birma-bir sanab berganidan so'ng Dante vatandoshlari uning iste'dodini tan olishgan ekan.

«Men hozir Dantening fe'li qanday bo'lgan, nimani yaxshi ko'rgan, nimani yomon ko'rgan – shularni bir darajada tasavvur qila olaman, – degan Abdulla Oripov. – Agar hozir bir mo'jiza bo'lsayu u kishi bilan gaplashishga to'g'ri kelib qolsa, xuddi u kishining ukasidek yoki bir farzandidek qiynalmasdan, bemalol gaplashib ketgan bo'lar edim. U kishining xarakterini bilaman, nimani yaxshi ko'rishi, nimani yoqtirmasligi, kayfiyatlari qanaqa bo'lishini, bir kunda necha holatga tushishlarini, o'tmishga, tarixga, kelajakka, zamondoshlarga munosabatlarini yoki bugungi voqea-hodisalarga qanday murojaat qilishlarini, munosabat bildirishlarini men tasavvur qilaman, bilaman shuni... U... mening qandaydir bir qonimga singgan, menga qadrdon, tanish odamimga aylangan»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Abdulla Oripov. Adolat ko'zgusi. – T.: Adolat, 2005. – 138-b.*

«Ilohiy komediya»ning qolgan qismlari qachon tarjima qilinishi haqidagi savollarga esa Abdulla Oripov bunday javob bergan:

«Dantening «Ilohiy komediya»sini bir kirishgandayoq tarjima qilib tugatish – mumkin bo‘lmagan ish. Bu, o‘ylaymanki, vijdonan ishlaydigan tarjimonga hech qachon to‘g‘ri kelmaydi. Mumkin emas. Dantening «Ilohiy komediya»sidek buyuk, muxtasar asarini bir o‘tirib, ketma-ket ishlab, boshdanoyoq tarjima qilib chiqib ketish uchun odam bolasi emas, balki qandaydir bir boshqa mavjudot bo‘lishi kerak. Bunga hech kimning kuchi yetmaydi. Buning uchun ma’lum bir tanaffus bo‘lmasa – bu ezib tashlaydi odamni. Shuning uchun ham mening do‘stlarimdan biri O‘ljas Sulaymonov: «Qiziq, Abdullajon, Dante tarjimonlaridan birortasi ham tarjimadan tirik chiqmagan, men hisoblab chiqqanman», degan edi. Irim qilgan emasman-u men juda o‘ylab qolganman shunda. Masalan, mana, Ozarbayjon tarjimoni Ali og‘a Qurchayli tarjima qilgan. U ham dunyodan o‘tib ketdi. Qozoqlardan Mahamadjon Matsatoyev – u ham dunyodan o‘tib ketdi... Bularni shu tarjima o‘ldirib yubordi demayman. Lekin buning tagida boshqa bir ma’no borki, bu asarning

ulug'ligini, og'irligini ro'yirost, dildan, qalbdan his qilish kerak. Bu asar o'ziga shunchaki yengil munosabatda bo'lishni ko'tarmaydi. Unga kishi o'zni tamomila bag'ishlashi, uning ichiga kirib ketishi kerak. «Do'zax»ni tarjima qilgan kezlarim tushlarimda qo'limda ketmon bilan odamlarning suyaklarini qazib yurardim. Bunday tush ko'rish ketmon bilan qabrlarni kovlab, kallalar, suyaklar bilan gaplashib chiqish kimga yoqadi deysiz»<sup>1</sup>.



Abdulla Oripov mana shu muazzam va murakkab badiiy obidaning birinchi qismini salobat va salohiyat bilan ijodiy qayta yaratib, adabiyotimiz xazinasiga xazina qo'shdi, o'zi ham ijodiy kamolotga ko'tarildi.

**Najmiddin KOMILOV,**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

Abdulla Oripov tomonidan tarjima qilingan Dantening «Ilohiy komediya»sining «Do'zax» qismida «yosuman», «qasirg'a», «zulf», «abgor», «belutf», «arsh», «ibtido», «piri komil» kabi

<sup>1</sup> *Abdulla Oripov.* Adolat ko'zgusi. – T.: Adolat, 2005. – 137-b.



soʻzlarni oʻqir ekansiz, italyan tili naqadar diqqat bilan oʻgirilganiga guvoh boʻlasiz. Bu – badiiy tarjimaning yuksak choʻqqisidir.

«Ilohiy komediya»ning Abdulla Oripov tomonidan tarjima qilingan «Doʻzax» dostoni birinchi marta 1975-yilda Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti tomonidan alohida kitob shaklida nashr etildi. Bu nodir asar adabiyot ixlosmandlari tomonidan intiqlik bilan kutilayotgan edi, shuning uchun u qoʻlmaqoʻl boʻlib ketdi. «Ilohiy komediya»ni oʻz ona tilida oʻqishga ishtiyoqmandlar kutubxonalarda navbatlari kelishini oylab kutishlariga toʻgʻri kelgani ham bor gap.



Rimga miloddan avvalgi 754-753-yillardayoq asos solingan. Miloddan avvalgi VI asrga kelib, Rim quldorlik davlatiga aylangan. Rim Apennin yarim orolini zabt etib, O'rta yer havzasida o'z hukmdorligini o'rnatgach, miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib, dunyoda eng yirik davlatlardan biriga aylangan. Bosib olingan yerlardan boyliklarning Rimga olib kelinishi uning ravnaq topishini ta'minlagan.

Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar (miloddan avvalgi 27 yil – milodning 14-yili) Rim davlatining «oltin asri» hisoblangan. Tarixchilar bu davrda avj olgan bunyodkorlik ishlari salobatini ta'riflab, «Avgust Rimni g'ishtdan qurilgan holda olib, uni marmarga qoldirdi», deb yozganlar. Haqiqatan ham bu davrning hashamatli binolari, nafis gumbazlari, favvora va hovuzlarining qoldiqlari ham sizni hayratga solmay qo'ymaydi. Butun dunyoga mashhur, miloddan avvalgi 125-yilda qurilgan Rimdagi Kolizey 50 ming tomoshabinga mo'ljallangani bilangina sizni lol qoldirmaydi. U avval uch qavatdan iborat bo'lib, to'rtinchisi milodiy ikkinchi asrda to'la bitkazilgan. Shuni si yanada ajablanarliki, Kolizeydan bir kilometr

uzoqlikdagi qullar qishlog‘i bu ulkan stadion-gacha yer osti yo‘li bilan tutashgan. Kolizey ustiga brezent qoplama tortilib, u yopiq tomoshagohga aylantirilgan, degan taxminlar ham mavjud.

Milodiy 290-yilda Rim barcha italyanlarni o‘ziga qaram qilishga muvaffaq bo‘lgan. Rimlik bo‘lmagan aholi erlarining bir qismi rimliklarga olib berilgan va ana shu hududlar mustamlakalarga aylantirilgan. 476-yilda Rim imperiyasi quladi, 555-yilda esa u Vizantiya tomonidan zabt etilgan.

Italiyada, ayniqsa, Uyg‘onish davrida madaniyat, adabiyot va san‘at mislsiz darajada yuksalgan. Uyg‘onish davrining eng muhim xususiyati – shaxs erkinligini, umuman, insonni ulug‘lash, tabiat va jamiyatni uning manfaatlariga xizmat ettirishga yo‘naltirilganidir. Insonparvarlik (lotincha: «humanis» – «insoniylik» demakdir) italyan adabiyot va san‘at namoyandalari uchun bosh mavzuga aylangan. Ular adabiyot janrlarining turli uslub shakllarigagina emas, balki ularning tarixiy manbalariga ham murojaat qila boshlaganlar. Eng avvalo, insonparvarlik g‘oyasi asoschilaridan biri bo‘lgan Bokkachcho unutib yuborilgan

qadimgi qo‘lyozmalarni qidirib topishga kirishgan. Umuman, XV asrda Konstantinopol yemirilganidan so‘ng bu yerdan qochgan yunon olimlari Italiyaga juda ko‘p noyob antik qo‘lyozmalarni keltirganlar. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rim shoirlari Vergiliy va Gomer poemalari, Aristotel va Platonning asarlarini nashr ettira boshlashgan.



Kolizey (milodiy 72–80-yillar)

1802-yilda Italiya Respublikasi tuzilgan. Ammo uch yil o‘tgach, u Italiya Qirolligiga aylantirilgan va uning Qiroluqi Fransiya imperatori Napoleon Birinchi bo‘lgan.

Umuman, Rim imperiyasi tanazzulga uchraganidan keyingi davr mobaynida – 1361-yilgacha Italiya muttasil o‘zaro qirg‘inlar gir-

dobida bo'lgan, ko'p marta parchalanib ketgan. Bu davlat Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida ham ishtirok etgan.

Insoniyat taqdiriga qudratli ta'sir o'tkazgan qadimiy Rim o'rnida qad rostlagan bugungi Italiya Respublikasining o'tmishdagi mohir notiqdari, demokrat hukmdorlari, davlat arboblari, xalq qahramonlari, faylasuf va sarkardalari, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari butun jahonda mashhur. Dante bilan bir qatorda rassom Leonardo da Vinchi, g'ijjakchi N.Paganini, kompozitor Juzeppe Verdi kabi tengsiz ijodkorlar, Jordano Bruno va Galileo Galiley kabi ilm-fan fidoyilari nomi necha asrlarki, insoniyat tarixidagi mashhur zotlar qatoridan tushmay kelayotir.

Bugungi kunda Italiya taraqqiy etgan davlatdir. U Yevropa Ittifoqi ta'sischi bo'lgan olti mamlakatdan biri. 2007-yildan buyon Italiya Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik kengashining a'zosi ham hisoblanadi.

Italiyaning davlat tuzumi respublika bo'lib, amaldagi Konstitutsiyasi 1948-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Ijroiya hokimiyatni Vazirlar Kengashi amalga oshiradi.



Mamlakat 20 viloyatga bo'lingan, uning aholisi 2008-yilda 60 million kishiga yetgan edi, hozir biroz kamaygan. Aholisining asosiy qismi – 98 foizdan ko'prog'i italyanlardir. Italiyada retoromanlar, tirollar, fransuzlar, sloven va xorvatlar, shuningdek, albanlar, katalonlar va boshqa xalqlarning vakillari yashaydi.

Italiya yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha jahonda 7-o'ringa, aholining turmush darajasi bo'yicha 8-o'ringa turadigan rivojlangan mamlakat. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot yiliga 30 ming AQSH dollarini tashkil etadi. Uning iqtisodiyotida mashinasozlik, avtomobilsozlik, kemasozlik, metallurgiya, avtomobilsozlik, to'qimachilik, elektr energetikasi, neftni qayta ishlash, neft kimyosi, shuningdek, qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Padan tekisligi, Po daryosi etaklari, Adriatika dengizi sohiliga yaqin joylar va Sitsiliya orolida neft va gaz, Aostada va Sardiniya orolida qo'rg'oshin, rux va temir rudalari bor.

Neft kimyosi, plastmassa, ma'danli o'g'it, sun'iy tola, farmatsevtika va rezina mahsulotlari, sintetik kauchuk ishlab chiqarish yuqori darajaga yetgan. Lombardiya va Pemont an'anaviy

to'qimachilik markazlaridir. Un, makaron, pishloq, qand-shakar, konserva, zaytun yog'i va vino tayyorlash oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoqlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida asosiy don ekinlari bug'doy, makkajo'xori, suli, arpa va sholi bo'lib, qandlavlagi, uzum, zaytun, sitrus mevalar va sabzavot ham etishtiriladi. Italiya vino tayyorlash hajmi jihatidan dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yiliga olti million tonna ho'l meva beradi, uning 60 foizini ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari yetishtiradi.

Janubiy viloyatlarda bodomzor va yong'oqzorlar ko'p. Yiliga 10 million tonna uzum hosilining 90 foizi qayta ishlanib, vino tayyorlanadi. Yiliga 3,3 million tonna sitrus mevalar yetishtiriladi. Mamlakatda sut va go'sht chorvachiligi, baliqchilik yaxshi rivojlangan.

Genuya, Triyest, Venetsiya, Neapol Italiyaning asosiy dengiz portlari bo'lib, yuklar dengiz transportida ham tashiladi.

Italiya 1992-yilning 24-martida O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatgan. Ushbu davlat mamlakatimiz bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini ham rivojlantirib

bormoqda. «O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida»gi 1996-yil Florensiyada imzolangan bitim o‘zaro munosabatlarning huquqiy asosini yaratgan. Italiya O‘zbekiston bilan tovar aylanmasi hajmi jihatidan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida Germaniya va Buyuk Britaniyadan so‘ng uchinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Italiyaga paxta tolasi, metall buyumlar, ipak, ip gazlama, kalava ip va boshqa mahsulotlar sotadi. Italiyadan asbob-uskuna, mebel, plastmassa, baliq mahsulotlari, sariyog‘ va o‘simlik yog‘i, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar xarid qilinadi.

«O‘zmevasabzavotuzumsanoat-xolding», «O‘zbekneftgaz» kompaniyalari, «O‘zbekmebel» aksiyadorlik birlashmasi va boshqa tashkilotlar yangi texnologiya va asbob-uskunalar xarid qilish hamda o‘zaro hamkorlik yuzasidan Italiya firmalari bilan yaqin aloqa o‘rnatgan.

Madaniy va ma‘rifiy sohalarda ham O‘zbekiston bilan Italiya o‘rtasida hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan. Har ikki mamlakat xalqlarining tili va adabiyotini o‘rganish, o‘quv va ilmiy-tadqiqot institutlari, olimlar va tadqi-

qotchilar o'rtasida hamkorlik muttasil ravnaq topib bormoqda.

Sayyohlik – Italiya iqtisodiyotining muhim tarmog'iga aylangan. Milliy yalpi ichki mahsulot hajmida turizmning ulushi 12 foizga yetgan. Ushbu mamlakatga har yili 50 million sayyoh keladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha u Yevropa Ittifoqida Fransiya va Ispaniyadan keyin uchinchi o'rinda turadi. 2015-yilda Italiyaga faqat Xitoydan 3 million sayyoh kelgan.

Butun dunyo sayyohlarini ohanrabodek o'ziga tortayotgan narsa – Italiyaning madaniy yodgorliklari hisoblanadi. YUNESKOning umumjahon madaniy meroslar ro'yxatida Italiyaning ana shunday 155 ta obyektini – jahon davlatlari o'rtasida eng ko'p miqdordagi obidalari qayd etilgan. Shuning uchun jahon turizm bozorining 5,6 foizi Italiya hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ayni paytda Italiya «La Skala» kabi jahonda mashhur teatrlari, son-sanoqsiz muzeylari bilan ham nom qozongan. Danti Aligeri an'analari izdoshlaridan hisoblangan to'rt mashhur italyan adibi – Jozue Karduchchi 1906-yilda, Gratsiya Deledda 1926-yilda, Luiji Pirandello 1934-yilda va Salvatore Kvazimodo 1959-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lganlar.





Milandagi La Skala teatri

Adabiyot ixlosmandlariga taniqli italyan adiblari – Yevropa Yozuvchilar uyushmasining



Muallifning Italiya safari  
taassurotlari bitilgan kitob

raisi bo‘lgan Juzeppe Ungaretti, Chezare Paveze  
va boshqalarning ijodi ham yaxshi tanish.

Abdulla Oripovning hikoya qilishicha, ushbu  
go‘zal va maftunkor diyor – Italiyada birinchi  
marotaba 1983-yilda bo‘lgan.

Ana shu safar taassurotlarini shoir o‘z  
esdaliklarida esga olgan edi.



## **BOLONYADAN BOSHLANGAN SAFARIMIZ**

Italiya atoqli shoirimiz Abdulla Oripov kabi men uchun ham qadrlı diyor. Avval ham bu afsonaviy o'lkaga turli sabablar bilan borishimga to'g'ri kelgan. Dastlab Italiyaga bir guruh iqtisodchi mutaxassislar safida borganman.

Istiqlol yillari yurtimizga tashrif buyurgan italiyalik yuqori martabali mehmon Morobini janoblari mehnat bozori muammolari bo'yicha tajriba oshirish uchun mamlakatimizning o'ttizdan ortiq iqtisodchi mutaxassisini Italiyaga taklif qildi. Ana shu mutaxassislar tarkibida menga ham Italiyaga borish nasib etdi. Biz 1997-yilning noyabr-dekabr oylarida Italiyaning deyarli barcha yirik markazlarida bir oy mobaynida

bozor iqtisodiyoti tamoyillari bilan yaqindan tanishdik.

Bizga Italiyada ishbilarmonlar tomonidan kichik biznesni yo'lga qo'yishdagi muvaffaqiyatlar, ayniqsa, manzur bo'ldi. Yevropada kichik biznes eng taraqqiy etgan mamlakat Italiya hisoblanadi. Ushbu davlatning tajribasi milliy iqtisodiyot barqaror o'sishini va ishsizlik muammosini hal etishning asosiy vositasi kichik biznesni rivojlantirish ekanining yaqqol dalolatidir. Mamlakatdagi 4 milliondan ortiq korxonaning 98 foizi kichik va o'rta biznes subyektlari hisoblanadi. Mikrofirmalarning o'zi korxonalar umumiy sonining 60 foizini tashkil etadi.

Italiyada hammasi bo'lib 3,5 millionta kichik va o'rta korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Ularda 13 million aholi yoki ish bilan bandlarning deyarli 79 foizi mehnat qiladi. Ularning hissasiga mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmining 52 foizi to'g'ri keladi. 2-3 kishi ishlaydigan kichik hunarmandlik firmalari esa Italiya eksportining 18 foizini ta'minlamoqda.

Guruhimiz oldiga iqtisodiy masalalarni o'rganish vazifasi qo'yilgan bo'lsa ham men oliy ta'lim muassasasi rahbari sifatida Italiya ta'lim



tizimi, ayniqsa, Bolonya universiteti tajribasi bilan yaqindan tanishishni juda xohlardim. Bu niyatimni Moskvada G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti rahbariyatiga bildirganimda, ular menga shunday imkoniyat yaratib berishni va'da qilishdi.

Biz 1997-yilda Italiyaga safarimizni Bolonya shahridan boshlagan edik. Shundan keyin Venetsiyaga yo'l oldik. Biz tashrif buyurgan Venetsiya shahri ertaklardagidek go'zal ekan. U dunyodagi g'aroyib shaharlardan biri. Venetsiyani birinchi marta ko'rgan kishi hammayoq suv ekan, degan xayolga borishi mumkin. Aslida esa turli binolar va ibodatxonalar yerga qoqilgan minglab qoziqoyoqlar ustidagi sun'iy orolchalar uzra tiklangan.

Venetsiya – Adriatika dengizining 118 ta marjon orollarini birlashtirgan Italiyaning ma'muriy viloyati. Orolchalarni ajratib turadigan, turli kema-qayiqlar suzib yuradigan kanallar riyalar deb ataladi va ular bizning shahar ko'chalarimizga teng keladi. Qadimgi Rim davrida bu orolchalarda asosan baliqchilar istiqomat qilishgan.

Rivoyatlarga qaraganda, unga 421-yilda qadimiy german qabilalari bostirib kirishi

natijasida jonini saqlash uchun odam qadami tegmagan ushbu orollarga yashiringan qochoqlar tomonidan asos solingan. Ular shundan qirq yil o'tgandan so'ng Venetsiyaning birinchi hukumatini tuzgan. Ushbu hukumat orollardagi mavjud 12 qishloqning har biri vakilidan iborat bo'lgan. Yana 200 yildan so'ng esa bu yerdagi aholi o'z jajji respublikasining birinchi hukmdori – dojni saylagan.



Venetsiya – mo'jizaviy shahar

Venetsiyada dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati bo'lmagani sababli dengizchilik va savdo-sotiq jadal rivojlana boshlagan. U Yevropa bilan O'rtayer dengizining sharqidagi portlar

o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tagan. Yevropadan Venetsiya orqali ipak, sholi, qahva va o'sha vaqtning eng qimmatbaho mahsuloti – ziravorlar jo'natilsa, Sharq ham ana shu shahar orqali Yevropani shakar, mayiz, Qora dengizning ikrasi bilan ta'minlagan.



Venetsiya «ko'cha»lari

Jajji respublikada savdo-sotiqning avjiga chiqishi bank faoliyatining rivojlanishini ham ta'minlab, XII asr o'rtalarida bu yerda dastlabki banklar ochilgan. Ayni paytda Venetsiya dengizi orqali tashiladigan yuklarni birinchi bo'lib sug'urta qila boshlagan.

1869-yilda Suets kanalining ochilishi Venetsiyaning iqtisodiy munosabatlardagi ahamiyatini yanada kuchaytirgan. Bu orol shaharda yangi

port ochilgach, Venetsiya Sharqqa dengiz orqali yo‘l olish uchun asosiy port vazifasini o‘tagan. O‘sha paytlarda dengizda cho‘milish urfga kirgach, orol-shaharda turizm ham jadal rivojlana boshlagan.



Venetsiyaning qadimiy muhtasham binolari

Venetsiyaning ko‘cha-kanallari butun shaharni «S» harfi shaklida chirmab olgan. Tarixan shahar aholisi bir joydan ikkinchisiga qayiq va kemalarda boradi.

Venetsiya aslida dengizdan ajratib hosil qilingan sayoz ko‘l. Ko‘rfaz tubiga qoqilgan noyob qoziqoyoqlar orolchalarda mustahkam binolar qurishga imkon yaratgan. Iqtisodiy va siyosiy qudrat ramzi bo‘lgan dengiz esa shaharga bir



necha bor xavf solgan. Suvning ko'tarilib-pasayib turishi, ayniqsa, dengizda bo'ron quturgan kezlarda ko'rfazda joylashgan shaharga tez-tez tahdid soladi: 1966-yili ro'y bergan suv ko'tarilishi hali-hanuz odamlarning yodida. O'shanda shaharni omon saqlab qolishning o'zi gumon bo'lgan. Endilikda Venetsiya aholisi suvning bunday tez-tez ko'tarilib turishiga deyarli ko'nikib ketgan.

Venetsiyaning tarixiy obidalari va muzeylari ham olamda mashhur. San-Makro maydoni shaharning yuragi hisoblanadi. Ushbu maydon atrofida tarixiy binolar juda ko'p. Ularning eng e'tiborlilari – Akademiya muzeyi hisoblanadi. Venetsiya o'zining Muqaddas mark milliy kutubxonasi bilan ham haqli ravishda faxrlanadi. Bu yerda 1 million jildlik adabiyotlar bilan birga kitob chop etish boshlangan davrga doir 24 mingtadan ko'p nodir asarlar, shuningdek, 13 mingtaga yaqin qo'lyozma hujjatlar saqlanadi. Shaharda «Arsenal» harbiy va savdo-dengiz muzeyi bo'lib, uning eksponatlari orqali Venetsiya tarixiga oid qimmatli ashyo va ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

Shahardagi San Jorjo Majore cherkovi Avliyo Georgiy orolchasida joylashgan. Old

tomoni oppoq tusda ishlangan bu ibodatxonani me'mor Palladio loyihalagan. Cherkovda rassom Tintorettoning rang-barang asarlari, Karpachchio mo'yqalamiga mansub Avliyo Georgiyning ajdahoni yengayotgani aks ettirilgan asar saqlanadi.



Venetsiyadagi Avliyo Pyotr maydoni

Venetsiyadagi Avliyo Pyotr maydoni – me'mor Jon Lorenzo Bernining shoh asari hisoblanadi. Maydonga via della Konchilyatsione orqali

borish mumkin. Bu ko'cha 1937-yilda ochilgan bo'lib, Avliyo Pyotr majmuasida mahobatli sahna ko'rinishini hosil qilgan. Eni 240 metrlik cho'ziq tarzdagi maydonni Bernini 1656–1667 yillar davomida ulug'vor kolonnadalar, ya'ni yarim doira shaklidagi qator ustunlar asosida yaratgan.

Har yili fevral oyida Venetsiyada niqoblar bayrami o'tkaziladi. Bu bayram davomida turli-tuman kiyim-kechak va niqoblarni ko'rib, Italiyadagi O'rta asrlarda hukm surgan sharoitni bevosita his etish mumkin.

O'sha safarimiz davomida Florensiya, Venetsiya, Piza va Rim shaharlarida hamda Rimdagi Vatikan davlati hududida ham bo'lgan edik. Men she'riyat, adabiyot shaydosi bo'lganim uchun butun safar davomida mumtoz italyan shoirlari, xususan, Dante Aligeri va uning buyuk o'zbek tarjimoni Abdulla Oripov haqida ko'p o'ylar edim.





## «LA DOTTA» («OLIMA») – TALABALAR SHAHRI

Italiyaga ikkinchi bor – 2007-yilning oxirida G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasining rektori Vitaliy Ivanovich Vidyapin rahbarligida xizmat safariga bordim va ushbu safarim tafsilotlari haqida ham ozgina to‘xtalmasam, bu diyor bilan bog‘liq taassurotlarim to‘liq bo‘lmay qoladi.

Bolonya Emiliya-Romanya mintaqasi poytaxti bo‘lib, Reno daryosi sohilida joylashgan, qadimdan Uyg‘onish davrining bosh shahri hisoblanib kelgan. Shu bois u o‘zining O‘rta asrlardagi qiyofasini saqlab qolgani bilan diqqatni tortadi. Bolonya jo‘g‘rofiy jihatdan qulay joylashgan shahar. Hozir ham butun Shimoliy Italiyaning avtomobil va temiryo‘llari



minoralari, qip-qizil, to‘q-sariq binolari har qanday odamni lol qoldiradi. «Qizil Bolonya» deb nom olishining yana bir sababi bolonyaliklar so‘lchilik siyosati tufayli boshqa mintaqalardan ajralib turishi bilan izohlansa kerak.



Bolonyaning bosh maydoni –  
Pyatstso Majore (Piazza Maggiore)

Bolonyaning bosh maydoni doimo gavjum. U Pyatstso Majore (Piazza Maggiore), unga tutashib turgan maydon esa Pyatstso Nettuno (Piazza del Nettuno) deb nomlanadi.

Mamlakatning bu shahri tub aholisi soni 400 mingtaga yetmagani holda, o‘quv sessiyalari paytida talabalar hisobidan yana 100 mingdan ko‘proq nafarga ko‘payadi. Bolonya universiteti jahonda eng qadimiy universitetlardan

hisoblanib, 1088-yilda tashkil etilgan. Ushbu ilm dargohida Dante, Petrarka, Kopernik va jahonning boshqa mashhur olimlari, shoir va yozuvchilari o‘qiganlarining o‘zi uning nufuzidan yaqqol dalolat beradi.



Bolonyadagi «qulayotgan»  
Azinelli i Garizenda minoralari

«La Dotta» – «Olima» nomiga ham ega ushbu ta’lim muassasasi Parijning Sorbonna (1160) va Angliyaning Oksford (1167) universitetlari shakllanishi uchun asos bo‘lgan.

Bolonya universitetining Italiyaning Paduya va Moden hududlaridagi bo‘limlari mustaqil bo‘lishlari natijasida hozirgi Rim, Peruja, Piza, Florensiya va Neapol universitetlari ham «Olima» asosida tashkil topgan. Shu bilan birga, Turin va Parma, Kalyari, Sassari va Messina, Palermo va Genuya universitetlari ham xuddi shunday tashkil topgan.

Bolonya universiteti XVIII asrda sanoat texnologiyalarini yaratishga katta hissa qo‘shgan. Shu tariqa u Yevropada sanoat rivojlanishi sur‘atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu davrning eng yorqin voqeasi universitet talabasi, keyinroq esa anatomiya professori bo‘lgan Luiji Galvanining nomi bilan bog‘liq. U Alessandro Volta, Benjamin Franklin va Genri Kavindesh bilan birgalikda elektr to‘g‘risidagi zamonaviy ta’limotga asos solgan.

Bizni shaharda Bolonya universiteti rektorining Yevropa mamlakatlari bo‘yicha maslahatchisi, professor Kamilla Danilchenko xonim kutib oldi.

Ertasi kuni universitet rektori janob Per Ugo Kolsarali bilan uchrashdik. U universitet tarixi, buguni va kelajagi haqida batafsil gapirib berdi.

Italiyaning universitetlar, texnika universitetlari, universitet kollejlari va akademiyalardan iborat oliy ta'lim tizimi o'ziga xos va u uch bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich (Corsi di Diploma Universitario) – bakalavriatga xos bo'lib, o'qish muddati uch yilni tashkil etadi.

Ikkinchi bosqichda (Corsi di Laurea) talabalar tanlagan ixtisosliklariga qarab 3 yildan 5 yilgacha (tibbiyot va farmatsevtikada – 6 yil) tahsil olishadi.

Uchinchi bosqich (Corsi di Dottorato di Ricerca va Corsi di Perfezionamento) fan doktori tadqiqot dasturlari hamda diplom himoya qilingandan keyingi yoki kasb mahorati kurslarini qamrab oladi. Bu dasturlar bo'yicha universitetlarda yoki maxsus ta'lim muassasalarida (Scuole di Specializzazione) o'qish mumkin.

Bolonya universiteti boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'ziga xos «onalik» qilgani bilangina mashhur emas. 1986-yilda Bolonya universitetining rektori Fabio Roversi Monako uchinchi ming yilligimizda jahonda oliy ta'limning asosiy tamoyillarini belgilaydigan hujjat qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi.





Bolonya universiteti

Ushbu g'oya Yevropaning ta'lim va ilmiy jamoatchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. 1987-yilning iyunida Bolonyada Yevropaning 80 ta universiteti vakillari Yevropaning yetakchi universitetlari rahbarlari va Yevropa Kengashining sakkiz vakilidan iborat Kengash tuzdilar. Ushbu Kengash «Yevropa universitetlarining Buyuk xartiyasi»ni (lotincha: «Magna Charta Universitatum Europearum») ishlab chiqdi. 1988-yil – Bolonya universiteti tashkil etilganining 900 yilligi tantanalarida ushbu xartiya Yevropaning 80 ta universiteti tomonidan imzolandi. Bugungi kunda esa mazkur hujjatni imzolagan universitetlarning soni 900 tadan ortgan.

Ushbu Xartiyada texnologiyalar rivojlanishi-ning jadallashishi, jamiyat barcha qatlamlari iqtisodiy ahvolining yaxshilanishi natijasida ommaviy oliy ta'limga o'tish jarayonida universitetlarning yangi roli belgilab qo'yilgan.

Talabalar soni jihatidan Bolonya universiteti Italiyadagi mavjud 21 ta universitet o'rtasida Neapol va Turin universitetlaridan keyin uchinchi o'rinda turar, bu yerda o'rtacha 60 ming kishi o'qir ekan. Ta'lim muassasasi o'n to'rt fakultetdan iborat bo'lib, talabalarning uchdan bir qismi asosiy to'rt: muhandislik, iqtisodiyot, falsafa va huquqshunoslik fakultetlarida tahsil oladi. Bu yerda 63 ta kafedra mavjud bo'lib, professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar soni qariyb 9400 kishini tashkil etadi.

Bolonya universitetida o'qish muddati ham turlicha. Bakalavr darajasini olish uchun to'rt-olti yil o'qiladi. Chunonchi, bu darajani olish uchun filologlar to'rt yil, kimyo va me'morlik ixtisosliklari bo'yicha – besh yil, tibbiyotchilar olti yil o'qiydi. Magistr darajasini olish uchun esa yana uch yil (shuningdek, ixtisoslashgan ikki yillik kurslar ham mavjud) ta'lim olinadi.

O'qish davrida talabalar fakultativ predmetlarni ham qo'shib hisoblaganda 19-20 ta fanni o'rganadi. Dars mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiy bo'lgani uchun har bir talaba ma'ruzalarni tinglagan kunlarini o'zlarining sinov daftarchalarida qayd qilib boradi. Har bir kurs yakunida talabalar diplom ishini yoqlaydi. Talaba imtihonlarni va diplom ishini belgilangan muddatda topshira olmasa, unga qo'shimcha vaqt beriladi.

Bolonya universitetida ta'lim olish tekin. Biroq barcha talabalar uchun ta'lim solig'i to'lanishi shart. Bu soliqning miqdori talaba oilasining daromadiga qarab belgilanadi. Barcha talabalar har yili universitetga o'z oilasi daromadi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etishi lozim. Aks holda eng yuqori miqdor bo'yicha soliq to'lashga to'g'ri keladi. Bolonyada eng kam soliq yiliga 500 AQSH dollarini, eng yuqori soliq 3000 AQSH dollarini tashkil etadi. Darvoqe, xususiy oliy ta'lim muassasalarida bu miqdor ancha yuqoriroq – yiliga 8000 AQSH dollarigacha yetishi mumkin. Yaxshi o'qiydigan talabalar davlatga qarashli universitetda soliq to'lashdan ozod qilinishi mumkin.

Magistr darajasiga ega bo'lganlar uch yil davomida ishlab chiqarishda amaliyotni o'tganla-

ridan keyingina doktoranturada o'qishga qabul qilinishi mumkin. Doktoranturaga test asosida qabul qilinadi.

Balonya universiteti rektori Per Ugo Kalsalari ishtirokidagi rasmiy uchrashuv marosimi tugashi bilan qiziqarli savol-javoblar bo'lib o'tdi. Bizga Dante dafn qilingan Ravennada buyuk shoir kunlari o'tkazish an'anaga aylanganini, mazkur tadbir universitetda boshlanib, shahar miqyosida tantanaga aylanib ketishi haqida gapirib berishdi. Mezbonlarimiz bizni ham Dante festivaligi taklif qilishdi.

Ayni shu paytda Ravennada buyuk italyan shoiri Dantening festivali o'tkazilayotgan ekan. Biz Dante Aligeri maqbarasi hamda uning nomi bilan atalgan ko'chani ziyorat qildik. O'shanda Ravenna shahar meri bilan uchrashganimda Dantening «Ilohiy komediya»si O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan tarjima qilinib, nashr etilgani va mamlakatimizda eng mashhur asarlardan biriga aylanganini gapirib berdim.

Bu Ravenna meri va madaniyat ishlari bo'yicha vazirni juda qiziqtirib qoldi va ular «Dante festivallari»dan birini buyuk italyan shoirining



o‘zbek tilidagi asari asosida o‘tkazish taklifini bildirdi.

Butun safarimiz davomida bizga hamrohlik qilgan Kamilla xonim o‘zining yozgi qarorgohi joylashgan Rim shahriga taklif etdi. Adriatika dengizi bo‘ylab 20–25 kilometr ga cho‘zilgan sohildagi dam olish maskanlarini tomosha qildirdi. Biz sohildagi plyajlarni sayr qilib, dengiz havosidan to‘yib-to‘yib nafas oldik.

Ravennada o‘tajak Dante festivallaridan biri O‘zbekistonga, «Ilohiy komediya»ning atoqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripov qalamiga mansub o‘zbekcha tarjimasiga bag‘ishlanishi haqidagi xabar g‘ururimizga g‘urur qo‘shdi.

Kamilla xonim Danilchenko o‘sha uchra-shuvimizdan so‘ng Toshkentga tez-tez kelib turadigan bo‘ldi, hatto bu yerda uy ham sotib oldi. Natijada u har yili bir-bir yarim oy davomida universitetimiz talabalariga italyan tilini interfaol usulda o‘rgata boshladi.





## RAVENNADA DANTENING O‘ZBEKCHA LUTFI

Men 1998-yilda Italiyaga qilgan safarimdan Toshkentga qaytib kelgach, Abdulla Oripovga Dante vatandoshlarining salomi va ehtiromlari bilan birga, Ravenna merining taklifini ham yetkazdim. Keyin unga G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida ana shunday dantexonlik tadbirini o‘tkazish rejasini aytdim. Abdulla Oripov bu fikrni astoydil ma’qulladi.

Eng avvalo, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali bosmaxonasida Dantening «Ilohiy komediya» asarining Abdulla Oripov tarjimasidagi «Do‘zax»

«ILOHIY KOMEDIYA» KITOBINING  
TAQDIMOT MAROSIMIDAN LAVHALAR











qismi to'liq va «A'rof» qismidan 13 ta qo'shiq shoirning yangi tahririda o'zbek tilida chop etildi.

Universitetning Toshkentdagi filialida tez-tez ilmiy, amaliy va adabiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib turiladi. 2008-yilning fevral oyida bo'lib o'tgan xalqaro anjumanlardan biri Uyg'onish davrining buyuk shoiri Dante Aligeri ijodiga bag'ishlandi. Unda taniqli olimlar, diplomatik korpus hamda mamlakatimizdagi Italiya va Rossiya elchixonalari vakillari, shuningdek, Ispaniyaning O'zbekistondagi konsuli janob Ruiz Morales ishtirok etishdi.

«Dante va O'zbekiston» mavzusidagi mazkur xalqaro ilmiy anjumanda Dantening «Ilohiy komediya»si asrlar osha jahondagi barcha xalqlar, el-u elatlarni umuminsoniy qadriyatlardan bahramand etib, zamondoshlarni o'zaro samimiy do'stlik rishtalari bilan bog'lab turgani ta'kidlandi.

Anjumanda Italiya Respublikasining mamlakatimizdagi elchixonasi madaniyat ishlari bo'yicha attashesi L.V.Tyulkina Markaziy Osiyo

mintaqasida dantexonlik anjumani ilk bor o'tayotgani, kitobxonlarda «Ilohiy komediya» tarjimasiga qiziqish oshib borayotganini uqtirib o'tdi.



Italiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Richulli janoblari Toshkentdagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining filialida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitasining raisi, yuridik fanlari doktori, professor Akmal Saidov: «Dante adabiyot tarixida ma'lum va mashhur, lekin men Dantening bugun katta qiziqish uyg'otayotgan huquq mavzusidagi traktat va boshqa ishlari yaxshi o'rganilmagani bois, jahon yurisprudensiyasi ko'p narsani boy berganini aytmoqchiman», dedi.



Haqiqatan ham, Dante haqidagi bilim va tasavvurlarga qo‘shimcha chizgilar qo‘shish uchun uning yurisprudensiya sohasidagi chuqur bilimlarini ham aks ettirish kerak. U butun umri davomida din va davlat, axloq va huquq masalalarini jiddiy o‘rgangan.

Bu o‘rinda yuridik fanlari doktori, professor Akmal Saidov «Dante – yurist»<sup>1</sup> kitobining muallifi ekanini ta’kidlash joiz. G‘arb va Sharq mumtoz adabiyotidan yaxshi xabardor bo‘lgan muallif bu asarida buyuk italyan shoirining deyarli barcha muhim asarlarini chuqur tahlil qilish bilan birga bevosita Dantening siyosiy, falsafiy qarashlari, ayniqsa, uning asarlarida insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan huquqshunoslik g‘oyalarining hozirgi davrdagi dolzarbligi va ahamiyatini batafsil tadqiq etgan. Kitobda adabiyot ixlosmandlariga, shu jumladan, mutaxassislariga ham yaxshi ma’lum bo‘lmagan ilmiy tadqiqotlar xulosalari, noyob manbalar keltirilgani Dante ijodini o‘rganishga tom ma’noda yangicha yondashuv, deyish mumkin. Ayniqsa, hozirgi davrning huquqiy

---

<sup>1</sup> *Saidov Akmal Xolmatovich. Dante – yurist / Kirish so‘zi O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovniki. – T.: Adolat, 2011. – 200-b.*

davlat va erkin jamiyat, insonning huquq va erkinliklari, boshqa dolzarb muammolari ilk Uygʻonish davrining huquqiy qarashlari va gʻoyalari bilan taqqoslangan holda tahlil etilgani muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Akmal Saidovning «Dante – yurist» kitobi danteshunoslikka munosib hissa, mumtoz adabiyot muxlislari, huquqshunoslar, umuman, keng kitobxonlar ommasiga munosib sovgʻa boʻldi.

Tadbirimizda soʻzga chiqqan taniqli olim, professor Najmiddin Komilov koʻp yillardan beri buyuk italyan shoiri ijodini oʻrganar ekan, uning Abu Ali ibn Sino, Ahmad Fargʻoniy va Ar-Roziy siymolariga qayta-qayta murojaat qilgani, bu faylasuf shoirning Sharqqa katta qiziqish bilan qaraganini chuqur his etgani haqida gapirdi.

«Ilohiy komediya»ning oʻzbek tiliga tarjimasi muallifi, Abdulla Oripov bu mashhur asarni ona tilimizga oʻgirish qanchalik mashaqqatli boʻlmasin, bu jarayon zavq-shavq bilan kechganini taʼkidladi. «Asarning ruhi va teran falsafasi butun iqtidoringizni ishga solib, katta ilhom bilan ijod qilishga daʼvat etadi. Doston insoniy donishmandlik va ruhoniyatni toʻkis

gapirib berdi hamda mustaqil davlatning vakili va shoiri sifatida bu galgi tashriflaridan hayajonda ekanini izhor etdi.

Samolyot havoga ko'tarilishi bilan Abdulla Oripov yon daftarchasini olib, uning oppoq sahifasiga yuqorida tilga olingan: «Go'zal Italiya, maftunkor diyor....» misrasini bitgan edi. Keyin «Italiya» she'rining qolgan misralari ham qog'ozga tushdi:

Yillar o'tib, mana, sog'inchim toshib,  
Sening tuprog'ingga keldim men qayta.  
Yashil o'rmonlaring, tog'laring oshib,  
Moviy dengizingga salomlar ayta.

Do'zax har qayda bor va lekin Jannat –  
Ipakka o'ralgan durdek nihondir.  
Gar uni zaminda axtarsang, albat  
Biri – sen, birisi – O'zbekistondir.

O'tgan daholarning nomin etib yod,  
Kezdim ko'hna Rimni qadam-baqadam.  
Yurib Avitsenna ko'chasida shod  
Ichdim Ibn Sino sharbatidan ham.

Italiya poytaxti Rimda bizni O'zbekistonning o'sha vaqtdagi Italiyadagi elchisi Jahongir G'aniyev kutib oldi. Biz ertasi kuni Rimning tarixiy va diqqatga sazovor joylari bilan tanishdik.



Romul va Rem rivoyatiga doir rasm

«Rim» atamasi shaharning afsonaviy asoschilaridan biri – Romul nomi bilan bog‘liq. Shaharga miloddan avvalgi 754-753-yillarda asos solingan. Kichikroq shahar-davlat bo‘lgan Rim Apennin yarim orolini, keyinroq atrof hududlarni sekin-asta o‘ziga bo‘ysundirgan holda, O‘rta dengiz bo‘yidagi ulkan qadimiy Rim davlatining poytaxtiga aylangan. Rim juda ko‘p ibodatxonalari, saroy va yo‘llari, me‘moriy obidalari bilan mashhur shahar.

XV XVI asrlar – Uyg‘onish davriga kelib Rim yanada ravnaq topdi. Ko‘plab rassomlar, me‘morlar va boshqa ijodkorlarning faoliyati aynan shu davrda gullab-yashnagan. Rim 1798-1799 yillarda Birinchi Rim Respublikasining, 1848-1849-yillarda Rim Respublikasining mar-



kazi hisoblangan. 1871-yil 26-yanvardan Italiya qirolligi poytaxtiga aylanadi. 1943-1944-yillarda nemis fashistlari Rimni bosib oladi. 1944-yili shahar ulardan ozod qilingan. 1946-yildan buyon Rim Italiya Respublikasining poytaxtidir.



Ko'hna Rim shahri

Bugungi Rim mamlakatning muhim sanoat, moliya, ilmiy va madaniy markazi, eng yirik transport yo'llari chorrahasi hisoblanadi. Ikkita xalqaro aeroport ishlab turibdi, metropoliten qurilgan.



Rimning zamonaviy mavzelari

Endilikda Rimda yangi mavzelar ham qurilib foydalanishga topshirilayotgan ekan. Ularni bunyod etishda zamonaviy qurilish materiallaridan ko‘proq foydalanishga ahamiyat berilgan. An‘anaviy me‘morlik elementlarini o‘zida mujassamlantirgan yangi zamonaviy binolar asosan Rimning chekka qismlarida qad ko‘tara boshlabdi.

Rim – xalqaro sayyohlikning eng yirik markazlaridan biri. Shaharga yiliga uch milliondan ortiq sayyoh kelib ketadi. Rimda dunyo ahamiyatiga molik noyob san‘at durdonalari saqlanadi. Unda o‘tayotgan ko‘pgina xalqaro anjumanlarda bizning yurtdoshlarimiz ham faol qatnashmoqda.

Miloddan avvalgi 75–80-yillarda imperator Tit tomonidan qurilgan Kolizey binosi Rim bo‘ylab qilgan sayohatimizning ilk manzili bo‘ldi. Kolizey so‘zi lotincha «ulkan» degan ma‘noni anglatadi. Bino o‘sha davrda qurilgan eng ulkan inshootlardan biri bo‘lgan.



Ko‘hna Kolizey yonida

Uning balandligi 57 metr, tarhi ellips shaklida, uzunligi 524 metrni tashkil etadi. Kolizeyga ellik ming tomoshabin siqqan. O‘rindiqlar to‘rt ro‘ya bo‘yicha joylashgan, sahna tagida hayvonlar qafasi, omborxonaga bo‘lgan. Imperator o‘rindig‘i sahna bilan teng – balandligi

3,5 metr. Birinchi ro'yada – imperatorning yaqinlari, ikkinchisida – yuqori tabaqali kishilar, uchinchi va to'rtinchi ro'yalarda – oddiy tomoshabinlar o'tirgan. O'rindiqlar toshdan ishlangan, galereyalar beton va g'isht bilan mustahkamlangan. Kolizeyning ulug'vor old tomoni to'rt qavatli. Har bir qavat saksontaravoqlar qatori bilan jozibador ishlangan. Kolizey markazidagi sahnada bayram marosimlari, qurbonliklar, gladiatorlar jangi, teatr tomoshalari o'tkazilgan.

Kolizey vayronalari bo'ylab qilgan sayohatimiz davomida Abdulla Oripovning falsafiy mazmundagi yana bir she'ri dunyoga keldi:

### XARITA

Xaritaga boqsang, ko'zing oldidan  
Turfa mamlakatlar o'tar birma-bir.  
Qay biri kimgadir boshpana, Vatan,  
Qay biri sajdagoh bo'lgan kimgadir.

Mana, Italiya – Dante diyori,  
Tagor shuhratiga noil Hindiston.  
Farzandlar o'z yurtin nomusi, ori,  
Bulbulim bor, deydi har qanday bo'ston.

Garchi zaminda ko'p har xil xor-u xas,  
Tog'larga mengzashar dunyo tomini.  
Ayonki, to'rt-beshta yomonlar emas,  
Yaxshilar tanitar yurtning nomini.



Rimning diqqatga sazovor manzilgohlaridan yana biri Navona maydonida me'mor Jovanni Lorenzo Bernini loyihasi asosida ishlangan «To'rt daryo fontani» hisoblanadi. Favvora go'zalligi, me'moriy yechimi bilan bu erga tashrif buyurayotgan sayyohlarnigina emas, Italiyaning tub joy aholisini ham hayratga soladi. Shuning uchun ham favvora ansambli atrofida uning go'zalligiga mahliyo bo'lib o'tirgan odamlar ko'p.

Men avval ham bu favvorani tomosha qilganimda o'zim uchun bir yangilik topgandek bo'lgandim. Abdulla Oripov ham favvoraning orombaxsh go'zalligidan bahra olib, o'zining yangi she'rlarini yon daftarchasiga bitib qo'yardi.



Rimdagi to'rt daryo favvorasi

Yon daftarchaning ochiq turgan bir sahifasida «Nabiramga» deb yozilgan she'r sarlavhasiga ko'zim tushib, Abdulla aka olis Italiya safaridagi go'zalliklardan har qancha zavq-u shavq tuymasini, ona yurtimizni, farzandlari va nabiralarini bir daqiqa ham sog'inmasdan turolmasligini his etdim. Ilhomjon o'g'lining to'ng'ich farzandi, endigina bir yoshdan oshgan jajji Islomjon Abdulla bobosining suyukli nabiralaridandir:

### **NABIRAMGA**

Garchi xosiyat yo'q har xil irimda,  
Men seni o'yladim muqaddas Rimda.  
Mitti bir insonsan, juda kichiksan,  
Mening hayotimga lekin sheriksan.

O'g'limning o'g'lisan, zurriyotimsan,  
Sen mening bir zarram, mangu yodimsan.  
Bobo deganingda bobong yoshardi,  
Momo deganingda momong yoshardi.

Bugun Rimda turib bir gap ayturman,  
Ismingning sharhiga tag'in qayturman.  
Yaxshi niyat bilan atadim: Islom,  
Yo'lingni yoritgay shu nom vassalom!

Rim bo‘ylab qilayotgan sayohatimizdagi yana bir diqqatga sazovor manzil – bu Vatikanidir. Vatikan Rimning g‘arbiy qismidagi Monte-Vatikan tepaligida joylashgan mustaqil shahar-davlat. Vatikan Katolik cherkovining siyosiy, ma‘muriy va mafkuraviy markazi. Qarorgohning qariyb hamma tomoni tosh devor bilan o‘ralgan. Maydoni 0,44 kvadrat kilometr. Doimiy aholisi ming kishiga yaqin (700 kishi Vatikan fuqarosi hisoblanadi). Rasmiy tillari – lotin va italyan tillaridir.

Vatikan – cheklanmagan teokratik monarxiya. 1929-yili konstitutsion hujjatlari qabul qilingan. Davlat boshlig‘i – Rim Papasi.

Konstitutsiyaga muvofiq, u, odatda, kardinallar orasidan yashirin ovoz berish orqali ovozlarning uchdan ikki qismiga ega bo‘lgan taqdirda kardinallar hay‘ati tomonidan umrbod saylanadi. Oliy qonun chiqaruvchi, ijrochi va sud hokimiyati Papaning ixtiyorida. Ayni vaqtda u Rim katolik cherkovining ham boshlig‘i hisoblanadi. Papa huzuridagi maslahat organi – Kardinallar hay‘ati cherkovning eng muhim ishlarini muhokama qilish va Papani saylash uchun yig‘ilib turadi.



Vatikan – afsonaviy shahar

Davlatning iqtisodiy negizini kapital mablagʻlardan tushadigan daromadlar, milliy katolik cherkovlarining badallari, dindorlarning ehsonlari tashkil qiladi. Vatikan – dunyodagi yirik sanoat-moliya monopoliyalaridan biri (uning oltin va valuta bisoti 12 milliard AQSH dollaridan ortiq deb taxmin qilinadi).

Vatikan – Rimning ajralmas qismi, undagi goʻzal binolar arxitekturasi jihatidan Rimning diqqatga sazovor manzilgohlaridan biri hisoblanadi.

Biz bu dargohni avval ham tomosha qilgan boʻlsak-da, uning bosh maydoni – Avliyo Pyotrda esdalik uchun suratga tushdik. Abdulla Oripov bilan birga 9-sentabr kuni ertalab





Vatikan hukumating saroyi



Vatikan Apostol kutubxonasining Sikstin zali

Ravennaga yetib keldik. O'sha kuni shahar meriyasida bizning sharafimizga qabul marosimi uyushtirildi. Ravenna meri Alberto Kassani bizni mehmonnavozlik bilan kutib olib, shahar tarixi, bugungi kuni, dantexonlik festivallari haqida batafsil gapirib berdi.

Alberto Kassani janoblari o'zbekistonlik mehmonlarni ushbu tashrif bilan samimiy qutladi. Bizga shahar tarixini aks ettiradigan sovg'a va nishonlar topshirdi. O'z navbatida biz ham mezbonlarga atalgan esdalik sovg'alarimizni topshirdik.



Vatikan (Apostol kutubxonasi maydonida)

Abdulla Oripovni ham, meni ham Alberto Kassani janoblarining Shahrisabz shahri haqida yaxshi xabardor ekani hayratga soldi. Mer Ravenna ko'p jihatlari, ayniqsa, tarixiy va madaniy obidalari bilan Shahrisabzga o'xshab ketishini va bu ikki shaharning o'zaro birodarlashishi haqidagi taklifni bildirdi.

Ravennaga tashrifimizning ikkinchi kunini shahar meriyasi belgilagan dasturga binoan Dante Aligeri dafn etilgan maqbarani ziyorat qilishdan boshladik. Ziyorat barchamizda katta taassurot qoldirdi. Abdulla aka esa taassurotlarini misralarga tizib, yon daftariga bitib qo'yardi.

\* \* \*

Insonlik sharafi pul emas faqat,  
Qilgan mehnating ham topgaydir rag'bat.  
Dante sabab bo'lib, italyan yurti  
Ko'rgizib turibdi menga ham hurmat.

\* \* \*

Jahon shoirlari nechun galma-gal,  
Yolg'izlik haqida yozar she'r, g'azal.  
Olam havosiga ko'nikolmasang,  
Yolg'izlik afzaldir, yolg'izlik afzal.

\* \* \*

Har kim ado etar o‘z rejasini,  
Adiblar do‘ndirar so‘z rejasini.  
Quloqqa ortiqcha yuk ortsa birov,  
Birov tuza boshlar ko‘z rejasini.

\* \* \*

Makr-u hiylalaring, zamon, ko‘rsatma,  
Yovuz kimsalarni omon ko‘rsatma.  
Elimning nomidan har xil so‘z aytib,  
Menga millatimni yomon ko‘rsatma.

\* \* \*

Ko‘rdim hayot bog‘in ko‘p in‘omini,  
Ko‘rdim pishganin ham, ko‘rdim xomini.  
Mayli, safarga chiq, har qayga borgil,  
Va lekin pok tutgin yurtning nomini.

\* \* \*

Hozir hayot tarzi shundan iborat:  
Tongda – tijoratdir, shomda – tijorat.  
Mening ular bilan zarra ishim yo‘q,  
Men shoir qabrini qildim ziyorat.

Xalqaro dantexonlik festivalining «Dante – O‘zbekistonda» kuni tadbirlari Ravenna shahri meriyasining madaniy aloqalar markazi tomonidan tayyorlangan va tashkillashtirilgan ekan. Tashkilotchilar ushbu tadbirga katta tayyor-





Dante maqbarasini ziyorat etib

garlik ko'rganlari shaharning deyarli har qadamida sezilardi. Katta pannolarda O'zbekiston manzaralari, tarixiy va madaniy yodgorliklarimiz, Dantening o'zbek tilidagi «Ilohiy komediya»si nashrlari ko'zga tashlanardi. Tadbir bo'lib o'tadigan hashamatli bino peshtoqida esa O'zbekiston va Italiya bayroqlari hilpirab turardi.

Mashhur San Vitale cherkovi dantexonlik festivallari o'tkaziladigan qarorgoh ekan. Uning qurilishi qirol Teodorix tomonidan 521-yili boshlangan va 547 yilda tugallangan. Bu ibodatxonaning sakkiz burchakli binosi me'morlik san'atining haqiqiy durdonasidir.



Ravennadagi San Vitale cherkovi

Qadimda bu yerda qurilgan ko‘pdan-ko‘p naqshinkor binolar ham kishida hayrat uyg‘otadi. Ularning birida imperator Yustinianning saroy ahllari va uning rafiqasi Teodora tasvirlangan. San Vitale hududida yana bir ajoyib obida bor. Bu 401-yilda poytaxtni Ravennaga ko‘chirish taklifini tasdiqlagan imperator Gonoriy I ning opasi Galla Plachidiya maqbarasidir. Tashqaridan oddiygina ko‘ringan bu binoning ich tomoni mozaika bilan nihoyatda ko‘rkam qilib ishlangan. San Vitale monastiri X asrda qurilgan. Uning bir qismida hozir Milliy muzey joylashgan.

Shuni eslatish kerakki, Rimda 1889-yilda «Dante jamiyati» ta’sis etilgan bo‘lib, u jahonda

italyan tili va madaniyatini tarqatish o'z maqsadi, deb biladi. Ana shu jamiyat qo'mitasining sa'y-harakatlari bilan chet ellarda 3300 ta maktab ochilgan. Dunyoda 200 mingdan ko'proq talaba yoshlar «Dante jamiyati» a'zolari hisoblanadi. Jamiyatning chet ellarda 500 ming jilddan ortiq adabiyot saqlanayotgan 250 tadan ko'proq kutubxonasi mavjud.

«Dante festivali» esa Ravennada tug'ilib voyaga yetgan, taniqli opera artisti Kristina Matsavellani Muti tashabbusi bilan 1990-yilda paydo bo'lgan.



Kristina Matsavellani Muti –  
Ravennadagi  
«Dante festivali»ning  
asoschisi va rahbari

Ravenna shahri meri Alberto Kassani xalqaro festivalning «Dante – O'zbekistonda» kunini ochar ekan, O'zbekiston dunyo xaritasida mustaqil davlat sifatida paydo bo'lganiga ko'p vaqt o'tmaganiga qaramasdan, uning tarixi va madaniyati uzoq o'tmishga borib ta-



qalishini, Sharqdagi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa qadimiy shaharlarning me'morchiligi G'arbdagi Rim shaharsozligiga hamohangligini ta'kidladi. U nafaqat Ravenna aholisi, balki butun italiyaliklar xalqaro dante-xonlik festivalida bizning timsolimizda butun o'zbek xalqini qutlayotganlarini aytar ekan, olqishlar binoni larzaga soldi.

Shundan keyin organ sadolari ostida «Ilohiya komediya»ning «Do'zax» qismidagi «To'rtinchi qo'shiq» italyan tilida o'qildi. So'ngra bu qo'shiqni o'zbek tilida o'qish uchun «Ilohiy komediya»ning tarjimoni Abdulla Oripovga so'z berildi. Shunisi e'tiborga molikki, xalqaro festival tashkilotchilari bu qo'shiqning o'zbekcha matnini ham chop ettirib qo'ygan ekan.

Abdulla Oripov minbarga ko'tarilishi bilan yana olqishlar kuchaydi. «Ilohiy komediya»ning o'zbek tilidagi satrlari festival qatnashchilari uchun notanish eshitilayotgan bo'lsa ham mashhur shoirimizning yoddan aytilayotgan so'zlarining musiqiy ohangi, jarangdor urg'ular asar iste'dodli shoir tomonidan tarjima qilingani ular tomonidan his etilayotgan va misralarga gulduros qarsaklar jo'r bo'layotgandi.





SETTEMBRE DANTESCO 2008

**martedì 9**

Conversazione sulla presenza di  
**Dante e  
la Divina Commedia in  
Uzbekistan**

partecipano  
il traduttore  
**Abdulla Aripov**  
e gli esperti  
**Khalandar Abdurakhmanov**  
**Kamilla F. Danilcenko**

Letture del  
**IV CANTO DELL'INFERNO**

in italiano di  
**Alessandro Sorrentino**  
e in uzbeko di  
**Abdulla Aripov**  
nella sua versione

Ravennada «Dante – O‘zbekistonda»  
xalqaro festivalining kun tartibi

Anjumanda so‘zga chiqqan Amerika Qo‘shma Shtatlarining Medison universiteti professori Alesandro Jenteyli jahon adabiyotining shoh asarini o‘z ona tilida o‘qiyotgan o‘zbek xalqini adabiyotning chinakam ixlosmandi sifatida



Abdulla Oripov Ravennadagi «Dante – O‘zbekistonda» xalqaro festivalida

ta’rifladi. «Men garchi o‘zbek tilini bilmasam ham, – deb uqtirdi u, – «Ilohiy komediya»ning o‘zbek tilida jaranglashini tinglab, bu tilning boyligi va go‘zalligiga, tarjimonning mahoratiga tasannolar aytgim kelmoqda. Bu tarjima o‘zbek



«Dante – O‘zbekistonda» xalqaro festivalining ochilishi marosimi

xalqining naqadar yuksak ma’naviyat va ma’rifat egasi, o‘zbek tilining esa naqadar boy va go‘zal til ekanidan dalolatdir».

Ravenna shahar madaniy aloqalar markazining direktori Valter Della Monika ham «Ilohiy komediya»ning o‘zbek tilidagi taqdimoti Italiya jamoatchiligi uchun unutilmas voqeaga aylanganini e’tirof etdi. «Ilohiy komediya»ning o‘zbek tilidagi taqdimoti unutilmas voqea bo‘ldi, bunday bayramlar o‘zbek xalqi bilan do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, uning boy, rang-barang madaniyati va adabiyotini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar ochishga



Anjumanda «O‘zbekiston» va  
«Italiya» so‘zlari qayta-qayta jarangladi

xizmat qiladi, deb ta’kidlab, quyidagilarni bayon qildi:

«Biz Dante Aligerining «Ilohiy komediya» dostoni O‘zbekistonda katta qiziqish bilan mutolaa qilinayotgani, dantexonlik anjumanlari bo‘lib o‘tayotganini eshitdik. Bu bejiz emas. O‘zbekiston – boy madaniy merosga ega mamlakat. Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Beruniy kabi jahon fan va madaniyati namoyandalari, ulug‘ mutafakkirlar hamda allomalar vatanidir. O‘zbek xalqi shoh asarlari bilan jahon adabiyoti tarixidan munosib o‘rin olgan Alisher Navoiy kabi ulug‘ shoirlari bilan faxrlansa arziydi. Xuddi shu kabi, Dante Aligerining jahon



adabiyotidan o‘rin olgan monumental epik asari – «Ilohiy komediya»ning ulug‘ shoir Abdulla Oripov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi O‘zbekistonda ham bu asarning o‘quvchilari ko‘pligi ham diqqatga sazovordir. «Ilohiy komediya»ning keng doiradagi o‘zbek kitobxonlariga taqdim etilishi Italiya jamoatchiligining bir vakili sifatida mening qalbimni cheksiz iftixorga to‘ldiradi, – dedi Valter Della Monika, – O‘zbekistonda Dantening «Ilohiy komediya»si bu buyuk mutafakkirlar tilida jaranglayotgani har ikki xalqning allomalari jahon tamadduniga qo‘shgan hissasining munosib baholanishi timsolidir».

Emeliya Romanya mintaqasining madaniyat vaziri A.Sorentino ham «Ilohiy komediya»-ni o‘z tiliga tarjima qilgan xalq yuksak hurmatga sazovor ekani haqida hayajonlanib gapirdi: «Ilohiy komediya»ni o‘z ona tiliga tarjima qilgan xalq yuksak hurmatga sazovordir. Bugungi kunda o‘zbek xalqining milliy madaniyati va adabiyoti dunyo madaniyatiga uyg‘un holda rivoj topayotgani mamlakat rahbarining oqilona siyosati va yuksak e‘tiboridan dalolatdir».

Tantanali tadbir davomida Abdulla Oripovga ko‘plab savollar berildi. «Ilohiy komediya»ni nega tarjima qilayotirsiz», degan savolga shoirimiz bunday javob berdi:



«Dante – O‘zbekistonda» anjumani tashkilotchilari:  
Bolonya universitetining professori Kamilla Danilchenko, Ravenna shahar meri Alberto Kassani, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, O‘zbekistondagi Rossiya iqtisodiyot universitetining filiali rektori, akademik Qalandar Abdurahmonov, Dante she‘rlarini italyan tilida o‘qigan san‘atkor Vazzoni, O‘zbekistonning Italiyadagi Favqulodda va muxtor elchisi Jahongir G‘anyiev, AQSHning Medison universiteti professori Aleksandro Jenteyli

«Qadimiy va ma‘rifatli o‘zbek xalqi jahon adabiyotiga bevosita daxldordir. Bizning xalqimiz Dante o‘z asarida tilga olib o‘tgan Ibn Sino-dek zotlarni kamolga yetkazgan, Navoiydek daholarni bergan. Demak, dunyo adabiyotining eng oliy namunalarini o‘z ona tilimizga o‘girish

bizning ma'naviy maqomimizga mos keladi. Qolaversa, Dante she'riyati ruhan menga yaqindir».

Abdulla Oripov ushbu savol-javoblar cho'g'ida Dante muxlislariga tarjima jarayoni haqida quyidagilarni aytdi: «Dantedek shoirni tarjima qilish uchun u bilan bellasha oladigan til boyligi ham kerak. Bizning tilimiz dunyodagi eng badavlat tillardan biridir. Til boyligini undagi ma'nodosh so'zlarning ko'pligi belgilaydi. Masalan, tilimizda birgina «yig'i» so'zining o'nlab sinonimlari bor. Yer, oftob, oy, muhabbat va boshqa so'zlar ham o'zining juda ko'plab ma'nodosh ekvivalentlariga ega».

Bu misollar anjuman ishtirokchilarini yanada qiziqtirdi. Ular shoirimizdan: «Yana bir shunday asar yaratilishiga ehtiyoj sezasizmi?» deb ham so'rashdi. «Alisher Navoiy ham, Dante ham Uyg'onish – Renessans davri namoyandalari edi, – deb javob berdi Abdulla Oripov. – Bizning Alisher Navoiy bobomiz ham inson va uning qalbi ma'naviy manzaralari, illat va fazilatlarini, buyukligi va tubanligini yuksak mahorat bilan istifoda etganlar. Alisher Navoiy ijodida bu jarayon boshqacha shaklda, Danteda boshqacharoq tarzda o'z aksini topdi. Shundoq

ekan, bu buyuk shoirlarning kalomi hanuzgacha har birimizni qanoatlantirib kelayotir. Yana shuni aytishim kerakki, men ulug' va ma'rifatli xalqimizning tarbiyasini olib kelyapman. Men Navoiy va Boburdek zotlarni o'qib ulg'ayganman. Bizning xalqimiz har qanday sharoitda ham qo'ldan kitobni qo'ygan emas».

Texnika taraqqiyoti, kompyuterlar, Internet, tijorat, yugur-yugur, chop-chop kuchaygan davrda kitobga qiziqish masalasi ham ko'pchilikni qiziqtiradi. Shu masalaga doir muloqotlarda Abdulla Oripov Dante muxlislari savollariga bunday javob berdi: «Agar olti yuz yil oldin o'tgan bobolarimiz asarlarini o'qimay qo'ysak, yuz yildan so'ng bizni ham o'qimay qo'yishlari mumkinligini o'ylaganda qanday holga tushgan bo'lardingiz?! Insoniyat o'zining me'moriy yodgorliklari yoki o'lmas musiqasini qanchalik ardoqlasa, kitob ham o'shalar qatorida, balki ulardan ham yuksakroq turishini unutmashimiz kerak. Bu gaplarni ko'proq yosh avlodlar ongiga singdirish – hammamizning burchimiz!»



Italiyaliklar shoirimizga ijodiy mehnat mashaqqatlari haqida ham soʻz ochib, «Ilohiy komediya»ni tarjima qilishdan oldin bu qadar katta zahmat oldida choʻchimadingizmi?» – deb savol berishdi. Abdulla Oripov bunga javoban shunday dedi:

«Dante aytadiki, doʻzax darvozasiga «Ey banda, bu yerga umidlaringni tashlab kir», deb yozib qoʻyilgan ekan. Bu gap aynan tarjimonga ham tegishlidir. Yaʼni tarjimon ham jahannamiy mehnatni boʻyniga olib, bu ishga kirishmogʻi shart edi. Tarjimaga kirishish jarayonida Dante ijodiga oid yiqqan yuzlab manbalarim butun bir kutubxonaga aylanib qolgan edi. «Ilohiy komediya» sheʼriyatning eng murakkab shakli – «tertsina»da yozilgan. Sheʼrning qofiyalari uchlik, xuddi zanjir halqalari kabi bir-biriga ulanib ketadi va qofiya takrorlanmasligi shart. Sheʼriy shakllarning murakkabligi esa biz uchun tamoman begona emas. Bizning Sharqda sheʼriy sanʼat nihoyat darajada qiyomiga yetgan, «tertsina»dan ham murakkabroq aruziy qoidalar mavjud, shu bois «Ilohiy komediya»ning sheʼriy shakli – qofiya, ritm oʻzbek tilida toʻliq saqlandi».

Bu tantanali tadbir nihoyasida Abdulla Oripov va kaminaga «Dantexonlik – 2008» laureatlik guvohnomalari, «Dante» esdalik medallari taqdim etildi.

Xalqaro dantexonlik festivalining «Dante – O‘zbekistonda» kuni Italiya ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Xususan, bu yerda chiqadigan «Ravennanotizie», «La vose», «La Piazza» gazetalari sahifalarida ushbu tadbir haqida maqolalar, Abdulla Oripov bilan intervyular e‘lon qilindi, Italiya televideniyesi ham ko‘rsatuvlar tashkil etdi.



Corriere Romagna – mercoledì 10 settembre 2008

«Dante – O‘zbekistonda» xalqaro festivali  
Italiya gazetariga muhrlandi





## SHARQNING HIKMAT- LARIN ORTMOQLAB OLIB, GO‘YO KELAYOTIR G‘ARB SARI KARVON

Xalqaro dantexonlik festivali bahonasida biz Apennin yarim orolida joylashgan, Italiyaning Marke va Romanya viloyatlari oralig‘idagi jajjigina San-Marino davlatining diqqatga sazovor joylari bilan tanishdik, Adriatika dengizi sohillarida bo‘ldik.

San-Marino – jahondagi eng kichik va mustaqil qadimiy davlat. Bu davlatga milodiy III asrda asos solingan. U bizga azaldan erksevar diyor sifatida ma’lum-u mashhur. San-Marino o‘lkasi Italiyaning markaziy qismidagi Apennin yarim orolida, Marke va Romanya

viloyatlari oralig'ida – Apennin tog'laridan bir necha o'n kilometr, Adriatika dengizi sohilidan esa 13 kilometr uzoqlikda joylashgan. Mamlakat hududi to'rtburchak shaklda bo'lib, 60,57 kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Atrofida tik Monte Titano tepaligi qad ko'targan. Uning dengiz sathidan balandligi 750 metrga boradi. Tepalikning chap yonbag'rida respublika poytaxti San-Marino shahri joylashgan.

Mamlakat hududidan Auza va San-Marino daryolari oqib o'tadi. Hammayoq o'rmonlaru bog'-rog'larning yashil libosiga burkangan. Adriatika dengizining yaqinligi tufayli iqlimi mayin va shifobaxshdir. Subtropik o'simliklar, eman va kashtanzorlar o'sib yotibdi. Nabotot va hayvonot olami ham boy.

Aholisi mayin tabiatli, xushfe'l odamlar bo'lib, atigi 30 ming kishidan iborat. Erkaklar-u ayollari baland bo'yli, mag'rur qiyofaga ega. Davlatning rasmiy tili – italyan tili. Sanmarinoliklar katolik diniga e'tiqod qilishadi.

Mamlakatning yirik shaharlari – San-Marino, Serravalle, Borgo-Majore. Respublikaning butun hududi San-Marino, Akkuaviva, Borgo-Majore, Kiyezanuova, Domanyano, Faetano, Forentino,





San-Marinoning tarixiy obidalari

Montejardino va Serravalle deb nomlanadigan to‘qqizta okrugdan iborat.

San-Marinoning amaldagi konstitutsiyasi San-Marino Respublikasi davlat tizimi to‘g‘ri-sidagi qonunlar majmuasidan iborat va u 1600-yilning 8-oktabrida qabul qilingan, keyinchalik unga tuzatishlar kiritilgan. Davlat rahbari Davlat Kengashi tomonidan olti oy muddatga saylanadigan ikki kapitan-regentdir. Ular davlat boshlig‘i vazifasini bajaradi. Qonun chiqaruvchi oliy organ – Katta Bosh Kengash bir palatali parlamentdan iborat. Ijroiya hokimiyatni kapitan-regentlar Davlat kongressi, hukumat bilan birgalikda amalga oshiradi.

San-Marinoga yiliga uch million sayyoh kelib ketadi. Shu sababli mamlakat sanoati va hunarmandligi ichki ehtiyojlar bilan bir qatorda xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Hunarmandlik, jumladan, esdalik sovg'alar, qimmatbaho tosh va yog'och bu-



San-Marinoning diqqatga sazovor joylari

yumlar ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari, San-Marinoda to'qimachilik, sement, qog'oz, ko'nchilik, metall ishlash, kimyo, mebel, sopolsozlik, vinochilik, un, yog' ishlab chiqarish korxonalari bor. Italiyaning mashinasozlik va boshqa firmalari filiallari ishlab turibdi. Qishloq aholisi asosan g'allachilik, uzumchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Aholisining turmush farovonligi yuqori darajada.

San-Marino betaraflik va qo‘shilmaslik tamoyillariga amal qiladi, harbiy-siyosiy bloklarga kirmaydi. San-Marino Respublikasi BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida kuzatuvchi mamlakat sifatida ishtirok etadi. San-Marino Yevropa Kengashining a‘zosi. U ko‘pgina davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan.

San-Marino Monte-Titano tog‘ida joylashgan. Bu tog‘ va u yerdagi qadimiy binolar YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

San-Marinodan keyin Rimini shahrida va unga tutash Adriatika dengizi sohillarida bo‘ldik.

Rimini Italiyaning Emiliya-Romanya viloyatida – Adriatika dengizi sohilida joylashgan shahar. U shaharlar orasida go‘zallarning go‘zali deb nom qozongan. Shaharda ko‘rkam tabiat manzaralari bilan birga mashhur tarixiy va madaniy yodgorliklar ko‘p. Rimini mashhur rangtasvir ustasi Jotto, kinorejissor Frederik Fellini kabi san’atkorlarning ona shahri. Bu yerda salkam oltmish ming aholi istiqomat qiladi.



Rimini shahri

Rimini nomi yunonchadan olingan. Hozir Rimini Italiyaning mashhur kurort shahri. Bu yerdagi dengiz sohilida XVIII asrning o'rtalari-dayoq Rimining mukammal darajada jihozlangan plyaj va dastlabki kurortlari qurila boshlagan. Oradan ko'p o'tmay birinchi otellar ham ochilgan. XX asrning 60–70-yillariga kelib Rimini Yevropadagi eng nufuzli kurortlardan biriga aylandi.

Rimini shahrining markazi – Kavur maydonida Palatstso del Podesta, Palatstso Komunale va Palatstso del Arengo deb nomlangan hashamatli qadimiy saroylar qad ko'tarib turibdi. Maydonda yangi klassik teatr ham joylashgan. Pinya favvorasi esa maydonga uzukka qo'yilgan



ko'zdek yarashib tushgan. Shahar sayyohlar va dam oluvchilar bilan gavjum. Italiyaning qadimiy obidalarga boy, o'ta xushmanzara tabiat go'shalari serob, Adriatika dengizining sermavj to'lqinlari ko'kka o'rlayotgan bu go'zal shahari har bir insonni o'ziga mahliyo etmay qo'ymaydi.

Biz ham Abdulla Oripov bilan Adriatika dengizi suvlariga sho'ng'ib, huzur qilib, oftobda toblandik.



Adriatika dengizi sohili

Abdulla Oripov bu o'lka tabiatining go'zalliklaridan ta'sirlanib, Italiya ko'rinishlarini O'zbe-

kistonga qiyoslagan «Manzaralar» she'rini bitdi.  
Unda shoir bevosita kaminaga murojaat qiladi:

### MANZARALAR

#### I

Qalandar, mana bu dengizga qara,  
Qaynab yotgan his bu, ilohiy tug'yon.  
Jazavaga tushar bunda har zarra  
Abduhoshim g'ijjak chalganisimon.

Gohida jim qolar, tiniqib, to'lib,  
Xayolga nimalar kelmas shu onda.  
Dengizni choy to'la piyola qilib  
Yelpinib o'tirsang Shohimardonda.



Adriatika dengizi

**II**

Qalandar, mana bu o‘rmonlarga boq,  
Insonning xayoli kabi chigaldir.  
Bir boqsang go‘yoki zangori bayroq,  
Bir boqsang, so‘zana yanglig‘ tugaldir.

Chodir qilish mumkin, ilojin topsang,  
Xohlasang, choyshab ham bo‘lmasin nechun.  
Ustiga Muyunqum sahrosin yopsang,  
Yashil chiroq bo‘lgay sayyora uchun.

**III**

Qalandar, mana bu qirlarga yuz bur,  
Maktab bolasidek saf-saf g‘aramlar.  
Siyohi yaltiroq jo‘yaklarni ko‘r,  
Daftar chizig‘idek taram-taramlar.

Sibizg‘ada chalib notanish kuyni,  
Gohida yonboshlab yayrasang erka.  
Va qo‘yib yuborsang bir surur qo‘yni,  
Uni boshlab yursa, albatta, serka.

**IV**

Qalandar, tog‘larga nazar sol-chi tik,  
Qator tuyalarga o‘xshaydi go‘yo  
Biri o‘rkachiga sochibdi ko‘pik,  
Birining chotidan oqmoqda daryo.

Atrof-tevarakka g'ulg'ula solib,  
 Cherkov qo'ng'irog'i taratar suron.  
 Sharqning hikmatlarin ortmoqlab olib,  
 Go'yo kelayotir G'arb sari karvon<sup>1</sup>.

Biz Italiyaga tashrifimiz nihoyasida bu mamlakat poytaxti Rimning odatdagi sayyohlarning qadami yetmaydigan joylarini ham tomosha qildik.

Bu hozirgi paytda Bolonya universitetining professori, ma'lum bo'lishicha, bolalik yillari O'zbekistonda o'tgan Kamilla Danilchenko va uning turmush o'rtog'i Pavloning mehmonnavozligi tufayli bo'ldi. Kamilla xonim yetimxonada o'sgan bo'lsa ham O'zbekistonni qo'msashini, o'zbeklarning bag'rikengligi, milliy to'ylarimizning jozibasi hali-hali ko'z o'ngidan ketmasligini tez-tez takrorlardi. Adriatika dengizi sohillarida bo'lsin, Italiya shaharlarida bo'lsin, Kamilla xonim bizga o'zgacha bir ehtirom ko'rsatar, sayohatlarni juda maroqli tashkil etishga astoydil harakat qilar, mehmonlar ko'nglini olish payida bo'lardi. Bu Abdulla Oripovning e'tiboridan chetda qolmadi, buni Italiyaga ushbu safari taassurotlariga bag'ish-

<sup>1</sup> Q.X.Abdurahmonov. Go'zal Italiya, maftunkor diyor. – T.: Akademiya, 2009. – 149–151-betlar.



langan o‘zining turkum she‘rlari qatoridan o‘rin olgan «Kamilla»da aks ettirdi:

### **Kamilla**

Muhabbat hech qachon topmagay zavol,  
Mehr ham tutashdir vujudga, qonga.  
Kamilla ismli italyan ayol  
Talpinib yashaydi O‘zbekistonga.

Garchi turmushida zarra kami yo‘q,  
Dengiz sohilida qasri bor ko‘rkam.  
Lekin yuragida o‘chmas bitta cho‘g‘ –  
U o‘zbek tuprog‘in qo‘msaydi har dam.

Der: yetimxonada o‘sdim bir zamon,  
O‘tdi o‘sha yurtda mas‘um chog‘larim.  
Meni onasidek chorlaydi hamon  
Karavotda qolgan qo‘g‘irchoqlarim<sup>1</sup>.

O‘zbeklarning bag‘rikengligi, milliy to‘ylarimiz va ularda ijro etiladigan xalqona raqslar jozibasi Kamillani hamon o‘ziga ohanrabodek tortar ekan. U o‘ziga atalgan she‘r bilan tanishgach, Abdulla Oripovga 2008-yilning oxirida minnatdorlik maktubi jo‘natgan:

---

<sup>1</sup> O‘sha manba, 152–153-betlar.



### «Muhtaram Abdulla aka!

Sizni Yangi yil bilan qutlashga, O‘zingiz va oilangizga 2009-yilda baxt, sog‘liq va barcha ijodiy ishlaringizda katta yutuqlar tilashga ijozat bergaysiz.

Janob Oripov, garchi men yuragimdagi sog‘inchlar haqida hech narsa deya olmagan va buning uchun vaqt ham bo‘lmagan esada, Siz ularni she’rga solganingiz, Vatanim – O‘zbekistonga bo‘lgan mehr-u muhabbatimni ilg‘ay olganingiz va bu bilan menga ko‘rsatgan e’tiboringiz uchun qanday minnatdorlik bildirishni bilolmayapman.

Beqiyos tashakkurumni qabul qilgaysiz!

Sizga va oilangizga eng ezgu tilaklar bilan:  
Kamilla».



## «SHOIR O‘LDI» DEMANG...

Abdulla Oripov Amerika Qo‘shma Shtatlari Texas shtatining Xyuston shahridagi kasalxonada mahalliy vaqt bilan 2016-yil 5-noyabrga o‘tar kechasi vafot etdi. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoirining dafn etish marosimi 2016 yil 10 noyabrda uning o‘zi sevgan Do‘rmondagi dam olish bog‘ida bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Abdulla Oripov so‘nggi nafasiga qadar tom ma‘noda xalq shoiri bo‘lib qoldi. U og‘ir betobligiga qaramasdan, Xyustondagi kasalxonada ham ijodini davom ettirdi. Buni vafotidan so‘ng e‘lon qilingan she‘rlari isbotlab turibdi:

### MANTIQ

Dunyodagi jamiki ne‘mat,  
Inson uchun yaralgan, derlar.

Daryolar ham tegrada faqat  
Bizlar uchun taralgan, derlar.

Yer ostida konlar ham shundoq,  
Tayyorlangan faqat biz uchun.  
Yog' bilan sut, patir va qaymoq  
Oshiradi tanamiz kuchin.

Men mantiqni sevdim juda ham,  
Lekin chiqdi savollar doim.  
Xo'sh, kim uchun yashaydi odam?  
Yolg'iz O'zi bilgay Xudoyim.

*Xyuston, 2016-yil 10-sentyabr*

## **FASLLARIM**

Etaklashib qator va qator,  
Yo'ldan o'tdi yetmish besh bahor.  
U bahorlar meniki edi,  
Bolam, bari seniki endi.

Yo'ldan o'tdi yoz bilan kuz ham,  
Ular menga bo'lganlar hamdam.  
Ikkovi ham meniki edi,  
Egalik qil, seniki endi.

Ortda qoldi chamanlar, bog'lar,  
Yo'l so'ngida ko'rindi tog'lar.  
Muzliklarga borib etdim men,  
Faqat qishni ola ketdim men.

*Xyuston, 2016-yil 13-sentabr*



## **CHIROQ**

Uydami, ko'kdami – nur sochsa porloq,  
Uning oti erur, albatta, chiroq.  
Qalbingga yashirib qo'ygm quyoshni,  
Ko'rgaysan, qanchalar burkama boshni.  
Agar yuragingda bo'lsa zimiston,  
Hech kim yoritolmas, bilib qo'y, Inson.  
Yaxshisi so'qirdan olgin sen ibrat,  
Yo'lida chiroqdir orzusi faqat.  
Yolg'iz bitta nur bor, yo'qdir qiyosi,  
U Alloh ziyosi, Alloh ziyosi!

*Xyuston, 2016-yil 13-sentabr*

## **QUYOSH VA SHAM**

*Nabiram Mumtozbeimga*

Abadiyat muhri bor go'zallik tuyg'usida,  
Qudratin u yo'qotmas hattoki uyqusida.  
Toblanib yursa arzir quyosh nurida, ammo  
«Xamsa» yaratsa bo'lar shamning yog'dusida.

*Xyuston, 2016-yil 22-sentabr*

Abdulla Oripov bundan yarim asr muqaddam  
buyuk shoirimiz G'afur G'ulom vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasida:

Yorug' bu olamda bormikan, axir,  
Shoir vafotidan ortiqroq motam,

deb hayqirgan edi. Uning izdoshlaridan biri, shoir Nodir Jonuzoq esa «Shoir o'ldi demang» marsiyasini bitdi:

**«SHOIR O'LDI» DEMANG ...**

*O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri  
Abdulla Oripov xotirasiga*

«Shoir o'ldi» demang – yashaydi shoir,  
Bezavol, shirali qo'shiqlarida.

«Shoir o'ldi» demang – yashnaydi shoir  
Birinchi muhabbat ko'shklarida.

«Shoir o'ldi» demang – yozar qasdma-qasd,  
Uni yengolmaydi yillar armoni.

«Shoir o'ldi» demang – mitti yulduzmas,  
Charog'on yulduzdek porlar har oni.

«Shoir o'ldi» demang – to bordir o'zbek,  
Tilida, dilida yangraydi sasi.

«Shoir o'ldi» demang – quyoshli so'zdek  
Muzlarni eritgay o'tlig' nafasi.

«Shoir o'ldi» demang – bo'y berar har yil  
Dehqonning ko'klamgi, kuzgi o'yida.

«Shoir o'ldi» demang – davrada u, dil  
Piyoladek to'lsa elning to'yida.

«Shoir o'ldi» demang – visol chog'lari  
Sirlashgan qalblarning shavqiga sherik.  
«Shoir o'ldi» demang – hijron dog'larin  
Davolab yurguvchi tabib u – tirik!

«Shoir o'ldi» demang – urar yuragi  
Yurtning bosh, ulug'vor taronasida.  
«Shoir o'ldi» demang – ko'chib yuradi  
Millatning she'rsevar har onasida...

«Shoir o'ldi» demang – uyg'oq, sarosar  
Ko'ngildan jannatga yo'l soldi shoir.  
«Shoir o'ldi» demang – do'zax, arosat  
Yukini yelkalab, yuksaldi shoir.

«Shoir o'ldi» demang – shikasta rozi  
Siniqdil ko'zida silqir yosh bo'lib.  
«Shoir o'ldi» demang – sobit ovozi  
Hasadgo'y ko'ksiga botar tosh bo'lib.

«Shoir o'ldi» demang – bir umr mayda  
G'iybatlardan bezib, cho'chib o'tdi u.  
«Shoir o'ldi» demang – chorlashgan paytda  
Ulug'lar yoniga ko'chib o'tdi u.

«Shoir o'ldi» demang – Baqo qasriga  
Muhtasham, qutlug' bir yalov – tug' ildi.  
«Shoir o'ldi» demang! Shoir, aslida,  
O'lmaydigan bo'lib qayta tug'ildi!

*Nodir Jonuzoq*  
*2016-yil 7-noyabr*

USTOZ YODI . . .

*Vafo qilarmisan, bahorim?*

*Abdulla Oripov*

Xo'rsinadi elda maysalar,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?  
Sho'x jilg'alar mungli kuy chalar,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?

Tog'laringning viqori ketmish,  
Ildizidan madori ketmish,  
Baland uchgan bir Sori ketmish,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?

Seni kutdik, poyandoz bilan,  
Ash'or bilan, dilda roz bilan.  
Nechun kelding singan soz bilan,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?

Axir bizam ahli dil edik,  
Ruhi gul-u tani gil edik.  
Yaxshilikka mudom el edik,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?

Qizg'aldoqlar qirlarga qaytdi,  
Yer-u osmon sirlarga qaytdi,  
Yalpiz bo'yi she'rlarga qaytdi,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?



Shabnamlarda aksimiz qoldi,  
Shamollarda vasfimiz qoldi.  
Ishq tilinda darsimiz qoldi,  
Vafo qilmadingmi, bahorim?

Vafo qilmadingmi, bahorim?

*Alisher Nazar*

Haqiqatan ham, she'rlari butun xalqimizning  
tilida va dilida bo'lgan Abdulla Oripovdek el  
ardog'idagi shoir doimo biz bilan birga, mangu  
barhayot!





## ABDULLA ORIPOVNING HAYOTI VA FAOLIYATI

1941-yil 21-mart – Qashqadaryo viloyati, Koson tumani Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi.

1958-yil – o‘rta maktabni oltin medal bilan bitirdi.

1958-yil – Toshkent davlat (hozirgi O‘zbekiston milliy) universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetining jurnalistika bo‘limiga o‘qishga kirdi.

1963-yil – Toshkent davlat (hozirgi O‘zbekiston milliy) universitetini a‘lo baholar bilan tugalladi.

1963 yil – mehnat faoliyatini «Yosh gvardiya» nashriyoti muharriri vazifasidan boshladi.

1967–1974-yillar – G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotining muharriri, bosh muharriri.

1974–1976-yillar – «Sharq yulduzi» jurnalining bo‘lim boshlig‘i.

1976 – 1982-yillar – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi.

1982-1983-yillar – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limining mas’ul kotibi.

1983 – 1985-yillar – «Gulxan» jurnalining bosh muharriri.

1983-yil – Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati.

1985–1987-yillar – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Rayosati raisining o‘rinbosari.

1987–1989-yillar – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi.

1990–1994-yillar – O‘zbekiston Oliy Kengashining deputati.

1992-yil – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati.

1994-yil – Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti laureati.

1995–1999-yillar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati.

1988–2007-yillar – O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligining raisi.

1995–2009-yillar – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi.



Abdulla Oripovga G.Plexanov nomidagi  
Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filialining  
20 yillik esdalik nishoni topshirilishi

1995-yil – «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

1998-yil – «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berildi.

2005–2010-yillar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a‘zosi.

2007-yil – «WIPO Creativity Award» oltin medali bilan mukofotlandi.

2009-yildan – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Faxriy raisi.

2015-yil – «Italiya yulduzi» faxriy xalqaro ordeni bilan mukofotlandi.





## ABDULLA ORIPOV ASARLARI

«Mitti yulduz» she'rlar to'plami (1965).

«Ko'zlarim yo'lingda» she'rlar to'plami (1966).

«Onajon» she'rlar to'plami (1969).

«Rodnik» sbornik stixov (1970).

«Ruhim» she'rlar to'plami (1971).

«O'zbekiston» she'rlar to'plami (1972).

«Hayrat» she'rlar to'plami (1974).

«Ветер Родины» сборник стихов (Moskva, 1975)

«Yurtim shamoli» she'rlar to'plami (1976).

«Yuzma-yuz» she'rlar to'plami (1978).

«Najot qal'asi» she'rlar to'plami (1980).

«Hakim va ajal» dostoni (1980).

«Любов к жизни» сборник стихов (Moskva, 1980).

«Jannatga yo'l» dostoni (1980).

- «Surat va siyrat» she'rlar to'plami (1981).  
 «Yillar armoni» she'rlar to'plami (1983).  
 «Oltmish yoshli vatanning olti yoshli o'g'loni» she'rlar to'plami (1983).  
 «Ilhom» she'rlar to'plami (tojik tilida, 1984).  
 «Jajda vesny» sbornik stixov (1985).  
 «Удивление» сборник стихов (1985).  
 «Ranjkom» dostoni (1988).  
 «Ветер моего края» сборник стихов (Moskva, 1988).  
 «Ehtiyoj farzandi» she'rlar to'plami (1989).  
 «She'rlar» she'rlar to'plami (uyg'ur tilida, Urumchi, 1989).  
 «Sen bahorni sog'inmadingmi?» she'rlar to'plami (1991).  
 «Bobo va nabira» she'rlar to'plami (1991).  
 «Qush tili» she'rlar to'plami (1991).  
 «Munojot» she'rlar to'plami (1992).  
 «Muborak haj yo'llarida» she'rlar to'plami (1992).  
 «Haj daftari» she'rlar to'plami (1992).  
 «Hikmat sadolari» she'rlar to'plami (1993).  
 «Dunyo» she'rlar to'plami (1995).  
 «Ibodat» she'rlar to'plami (1996).  
 «Sohibqiron» she'riy dramasi (1996).  
 «Сохибкиран» поэтическая драма (1996).  
 «Saylanma» to'plami (1996).

«Savob» she'rlar to'plami (1997).

«Bedorlik» she'rlar to'plami (1999).

«Hur o'lkam» she'rlar to'plami (turk tilida, Istanbul,1999).

«Mustaqillik qo'shig'i» she'rlar to'plami (2000).

«Tanlangan asarlar» 1-7-jild (2000-2013).

«Bir qaragam...» she'rlar to'plami (2001).

«Shoir yuragi» she'rlar to'plami (2003).

«Blagoslovenno projitoe mnoy» sbornik stixov (2003).

«Mehr» she'rlar to'plami (2004).

«Ko'ztumor» she'rlar to'plami (2005).

«Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'rlar to'plami (2006).

«Birinchi muhabbatim» she'rlar to'plami (2006).

«Talosh pallasi» she'rlar to'plami (2007).

«Saylanma» to'plami (2007).

«Ona yanglig' yagona» she'rlar to'plami (2009).

«Menga xushxabar ayt» she'rlar to'plami (2009).

«Istiqlol manzaralari» she'rlar to'plami (2011).

«Saylanma» to'plami (2011).

«Ezgulik» she'rlar to'plami (2012).

«Ranglar va ohanglar» she'rlar to'plami (2012).

«Umr manzillari» she'rlar to'plami (2014).

«Tutash dunyolar» she'rlar to'plami (2015).

«Yangi she'rlar» she'rlar to'plami (2015).

«Everest va ummon» she'rlar to'plami (2015).







## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	5
Umrboqiy iste’dod .....	19
Shoirlik qismatin birga ko‘targanlar .....	42
Munosib shogirdlar .....	58
Men nechun sevaman O‘zbekistonni? .....	70
Dante – Uyg‘onish davrining birinchi shoiri ....	94
«Ilohiy komediya» – insonparvarlik madhiyasi .....	111
Italiya – go‘zal va maftunkor diyor .....	128
Bolonyadan boshlangan safarimiz .....	140
«La dotta» («olima») – talabalar shahri .....	149
Ravennada Dantening o‘zbekcha lutfi .....	161
Sharqning hikmatlarin ortmoqlab olib, go‘yo kelayotir G‘arb sari karvon .....	200
«Shoir o‘ldi» demang... ..	212
Abdulla Oripovning hayoti va faoliyati ...	219
Abdulla Oripov asarlari .....	222

*Adabiy-badiiy nashr*

**Qalandar  
ABDURAHMONOV**

**BUYUKLAR  
KAHKASHONIDA**

*Hujjatli qissa*

Muharrir *Ilhom Zoyirov*

Badiiy muharrir *Shuhrat Odilov*

Texnik muharrir *Dilmurod Jalilov*

Musahhih *Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Bobur Tuxtarov*







ISBN 978-9943-5213-2-2



9 789943 521322